

ANVAR OBIDJON

# QO'NG'IROQLI YOLG'ONCHI



Китоб шу ерда кўрсатилган муддатдан  
кечикирмалмаган ҳолда топширилиши шарт

Илгариги берилмалар миқдори \_\_\_\_\_

**ANVAR OBIDJON**

# **QO'NG'IROQLI YOLG'ONCHI**

*Qissa va hikoyalar*



**ZIYO NASHR**

**Toshkent  
2019**

**UO‘K:821-512.133-32**

**KBK 84(56)6**

„Ziyo nashr“ nashriyoti O‘zbekiston xalq shoiri, bolalarning sevimli adibi Anvar Obidjonning asarlarini chop etishni rejalashtirgan.

Qo‘lingizdagи kitobdan Anvar Obidjonning „Qo‘ng‘iroqli yolg‘on-chi“ qissasi hamda qiziqarli hikoyalari o‘rin olgan. Ushbu to‘plam bolajonlarimiz sevib mutolaa qiladigan kitoblar qatoridan o‘rin olishiga ishonamiz.



ISBN 978-9943-5937-7-0

© A. Obidjon.

© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2019

# **0099 RAQAMLI YOLG‘ONCHI**

*Qissa*



## QO‘NG‘IROQ O‘G‘RISI

Tug‘ilganligimiz to‘g‘risidagi guvohnoma biz odamlar uchun eng asosiy hujjat hisoblanadi. Agar shu narsamiz bo‘lmasa, bizni kuyib-pishib boqayotgan, tarbiyalayotgan kimsalarning ota-onamiz ekanligini, haqiqatan ham shu yurt, shu millatga mansubligimizni birovlar xohlasa tan oladi, xohlama yoz‘q. Fermadagi hayvonlarga bunaqa nodir qog‘oz berilmaydi. Chunki, o‘sha shildiroq qog‘ozni avaylab asrash uchun u sho‘ring qurg‘urlarda na zang kalitli sandiq bor, na pistonli cho‘ntak. Jonivorlarning qulog‘iga har xil raqamlar yozilgan yum-yum-aloq mis tamg‘alar muhrlab qo‘yiladi xolos.

„Babachoq“ fermasida ham tartib shunaqa: hayvon dunyoga keldi deguncha, birinchi galda uning qulog‘iga yopishishadi. Ushbu qissadagi barcha hangomalarning bosh sababchisi bo‘lgan jangari Uloqcha ham bu marosimni allaqachon boshdan kechirgan. Baldoq taqishning o‘ziga yarasha azob-uquباتи borligini o‘g‘il bolalarga aytib, yana bir janjalli bahsni qo‘zib o‘tirmaylik. Buni isirg‘a taqib olib, o‘zini oynakka soladigan qizaloqlar yaxshi bilishadi.

Xullas, Uloqchamizning qulog‘iga 0099 raqamlı baldoqcha osishib, uni hammaga taniqli qilib qo‘yishgan. Shunday qilishmaganda-ku, bu diqqinafafermadan tezda juftakni rostlagan, birorta tinchroq xonadondagi erkin hayvonlar orasiga sekingina qo‘shilib olgan bo‘lardi.

Umuman olganda, „Babachoq“ fermasida hamma narsa oshib-toshib yotibdi. Ombor to‘la yem, g‘aram-g‘aram pichanlar, issiqqina og‘ilxona. Buning ustiga, ular yotgan joylarni o‘z vaqtida tozalab, taglariga yumshoqqina arrato‘pon sepib qo‘yishadi. Shunga qaramay, Uloqcha fermani o‘lgudek yomon ko‘rar, bir xil turmush va qattiq tartib-intizom uning jon-joniga tegib ketgandi. Ayniqsa, har kuni erta tongda uning shirin uyqusini buzib, majburan yaylovga haydashgan paytda tomorqasi kengroq dehqonning xonaki echkisi bo‘lib tug‘ilmaganidan jundayam afsuslanardi.

Dunyoga keliboq onasidan ayrilgan bu zumrasha ur-to‘palon hayotga boshqalardan oldinroq moslashishga urindi, hech bir mulohaza qilib o‘tirmay, duch kelgan qo‘y-echkini aralash-quralash emib ketaverdi. O‘zga uloq-qo‘zilarning rizqini qiyayotgan bu ochofatning biqiniga takalar ayamay kalla solishar, achchig‘ini bosolmagan qo‘chqorlar uni tiraqaylatib quva ketishardi. Yetim Uloqcha ta-ka-yu qo‘chqorlarning zarbli suzishlaridan uch-to‘rt yumalanib, yana diriklab o‘rnidan turar, tanasidagi og‘riqlarni birpasda esdan chiqarib, andishasizlik

bilan qaytadan oraga suqilardi. Ishtahang karnay bo‘lib turganda tortinchoqlilikka balo bormi?

„Babachoq“ fermasidagi hayvonlar oxiri bu surbet Uloqcha bilan o‘chakishmaydigan bo‘lib qolishdi. O‘zining qoniqarsiz xulqi bilan hammaning jig‘iga tegib yuruvchi olg‘ir qahramonimiz bo‘lak tengdoshlariga nisbatan ikki hissa ko‘p sut emib, baquvvat ulg‘aya boshladi.

Tartib bor joyda uni buzuvchilar ham uchrab turadi. Aks holda, „intizom“ degan so‘zning sariq chaqalik qadr-qimmati qolmagan bo‘lardi. Bu gaplarni men ichimdan to‘qib aytayotganim yo‘q. „Babachoq“ fermasidagi podaga bir necha yildan beri oqsoqollik qilib kelayotgan Nayzashox ismli Serkaning fikri ana shunday.

Nayzashox qanchalar qattiqqa‘l bo‘lmasin, ba’zan hatto kap-katta qo‘y-echkilar arzimagan narsa ustida san-manga borib qolishar, yoshlar esa o‘yinqaroqlik qilib, o‘zlariga yem solinadigan oxurni pachoqlab qo‘yishar yoki endigina bo‘rtib chiqayotgan muguzchalari bilan yaqindagini oqlangan devorni chalama-chakki chizib tashlashardi.

Lekin, 0099 raqamli Uloqcha oyoqqa mustah-kamroq turib olgan kundan boshlab, oxurni pachoqlash, devorga chizish singari ishlar mayda bezoriliklar qatoriga tushib qoldi. Endigi yig‘ilishlarda birovlarining ovqatini zo‘ravonlarcha tortib olish, o‘z fermadoshini eti momataloq bo‘ladigan darajada do‘pposlash, yaylovda o‘zboshimchalik bilan po-

dadan ajrab qolish kabi katta masalalar muhokamaga qo'yila boshlandi. Uloqcha hali to'rt oylik bo'lmay turib, besh marta „hayfsan“ olishga ulgurdi. „Hayfsan“ oldingmi, uch kun davomida ma'ramay yurishga majbursan. Shunchaki „mi“ deb qo'ysang ham, kechqurungi kepakli teritdan mahrumsan. Uch kun jim yurishga chidash – o'limdan sal mundog'roq-da.

Uloqchaning yoshi ulg'aygan sayin uning nuqsonlari ham kattaya bordi. Manmanlik, yolg'onchilik va muttahamlidan tashqari unda xudbinlik, amalparastlik alomatlari shakllana boshladи. Avvaliga, podaning oldingi safida yuruvchi keksa hayvonlar orasiga suqilib kirdi. Keyinchalik, yanayam oldiroqqa o'tib, oqsoqol bilan deyarli yonma-yon odimlaydigan qiliq chiqardi. Hatto oqsoqolning fermadagi birinchi laganbardori hisoblanmish Sulla laqabli Taka ham shu mahalgacha bunday qilishga botinolmagan edi.

Qattiqqo'l Nayzashox, negadir, bu betamizlikka ortiqcha ahamiyat berib o'tirmadi. Balki uning so'qqabosh yetimchaga ozor bergisi kelmagandir, balki qandaydir tirmizak bilan hadeb xirillashaverish me'dasiga tekkandir, uyog'i bizga qorong'i.

Hovliqmachilik va mansabparastlik juda yomon narsa. Bu dardga duchor bo'ldingmi, o'z boshing-ga keladigan balolarga o'zing zamin hozirlayotganimni payqamay qolasan. Kunlardan bir kuni 0099 uqamli Uloqcha qo'rsayganicha oqsoqoldan olding-ga o'tib, oliftanamo odimlay boshladi. Bu endi eng

uchchiga chiqqan intizomsizlik edi. Nayzashox asta ortga o‘girilib, Sullaga ma’nodor ko‘z qisib qo‘ydi. Nihoyat xo‘jayinning toqati toq bo‘lganini fahmlagan Sulla bora solib, tartibbuzar Uloqchaning chap qovurg‘asiga gupira-qars kalla qo‘ydi. Ana endi osmonda tipirchilab aylanishni ko‘ring-u, gupillab yerga tushishni tomosha qiling!

Beti bezlashib ketgan qahramonimiz shundan keyin ham podaning oldingi qatorlarida o‘ralashish-dan voz kechmagan bo‘lsa-da, harqalay boshliqdan ilgariroqqa o‘tib yurishga yuragi chopmay qoldi.

Uloqcha o‘taketgan kekchi edi. U biqinidagi og‘riqlar tiyilganidan so‘ng ham Sullani kechirol-madi. Qayerdandir bir bo‘lak kirsovun topib, unidepsib maydaladi va raqibining oxuridagi yemga sekingina aralashtirib qo‘ydi. Ko‘p o‘tmay, Sul-laning junlari tullab, tasqara bir qiyofaga kirdiki, yaqin oshnalari ham undan jirkanib, nariroqda yu-radigan bo‘lishdi.

„Bu kuningdan battar bo‘l! – deya ich-ichi-dan quvonib qo‘yardi Uloqcha, Sullaning ahvolini ko‘rib. – Xo‘jayinga yaxshi ko‘rinaman deb, bosh-qalarni tepalashning oqibati shunaqa bo‘ladi“.

Navro‘z oyining so‘nggi tongi „Babachoq“ fermasiga bezovtalik olib keldi. Ilk sahardayoq misli ko‘rilmagan to‘s-to‘palon boshlandi. Nayzashoxning bo‘ynidagi kumush qo‘ng‘iroq tuyqus yo‘qolgani haqidagi xabar og‘izdan-og‘izga o‘tib, hammani notinch qildi. Oqsoqolning Sulla boshchi

ligidagi bir to‘p xushomadgo‘ylari fermadagi bar-cha kavak-kandiklarni, o‘ra-xandaqlarni, oxur va chelaklarni erinmay tintib chiqishdi. Qo‘ng‘iroq hech qayerdan topilmadi. Shundan keyin, fermadagi borliq qo‘y-echkilar bola-baqrалari bilan maydonga saflansin, degan buyruq berildi. Hayvonlar belgi-langan joyda yig‘ilib, yo‘qlama o‘tkizilgach, 0099 raqamli bevosh Uloqchaning o‘z o‘rnida emasligi ma’lum bo‘ldi.

– Aha! Ana, qo‘ng‘iroq kimda ekan! – xirqirab qichqirdi, terisiga qo‘tir tusha boshlagan Sulla. – Bilardim shunaqa bo‘lishini!

Serkaning qo‘ng‘iroqsiz qolishi qirolning toj-dan ayrılishi singari katta ko‘ngilsizlik hisoblanadi. Podada nima ko‘p – tako ko‘p. Biroq, ana shu erkak echkilardan faqatgina bittasi Serka deyiladi. Serka bo‘ynidagi qo‘ng‘iroq‘ini jingillatib qayoqqa yursa, o‘zga hayvonlar unga ergashishga majbur. Qoida shunaqa.

Hammaning ko‘zi oqsoqolda edi. Nayzashox motamsaro qiyofada bir zum sukut saqlab turgach, mungli tovushda dedi:

Ikkita nol-u ikkita to‘qqiz raqamli qaroqchi endi shafqatimizdan mahrumdir. Uni tutib keltirgan Jonivor besh paqir kunjara bilan mukofotlangay. Ammo, mukofotdan bo‘kib o‘ladigan bo‘lsa, uyo-g‘iga javobgar emasmiz.

Bu gapdan hammaning nafsi jikillab, yaloqilar-cha tamshanib qo‘yishdi.

## BILIMDON

Shudringlar quyosh taftidan bug‘lana boshlagan sari maysalardagi yoqutrang nurlar asta-sekin so‘nib, yaylov yana odmi tusga kirdi. Xuddi shu pallada o‘ziga bino qo‘ygan shalpangquloq bir maxluq o‘tloqqa tashrif buyurdi. Bu Bilimdon laqabli Eshak edi.

Bilimdon juda ko‘p narsaga qiziqar, hamma narsani bilishni istar, ayrim jumboqlar ustida kechallari bilan mijja qoqmay bosh qotirardi. Masalan, „Nima uchun yoz faslida qor yog‘maydi“, degan chigal bir savol uni uzoq vaqt bezovta qilib yurdi. Tinmay o‘ylayverib, oxiri shunday xulosaga keldi: „Qor yozda ham yog‘adi, ammo issiqlidan osmonning o‘zidayoq erib ketaveradi“.

Keyin u „Toki yer yuzida Ot bilan Eshakday mukammal hayvonlar bor ekan, Xachir degan bachkana narsa nima maqsadda yaratilgan“, deyiluvchi savoldan iborat ulkan masala ustida fikr yurita boshladи. Fikrlay-fikrlay, nihoyat jo‘yali javob topdi. Uning aytishiga qaraganda, dunyo shunday sirli tuzilgan ekanki, ikkita zo‘r narsaning o‘rtasida bitta qandaydir silqindining ham bo‘lishi tabiiy hol emish. „Chunonchi, ma’danga boy tog‘lar bilan mevazor bog‘lar oralig‘ida tap-taqir adirlar bor“, deya fikrini isbotlashga tirishardi u.

Hayot juda qiziq narsa. O‘lib-tirilib bitta jumboqni hal qilganingda, o‘sha zahoti oldingda boshqasi ko‘ndalang bo‘lib turaveradi. Eshak so‘nggi payt-

larda behad chalkash bir masalani o‘ylab, miyasi-ning qatig‘ini qaynatib yuribdi. Uning zahmatkash kallasida: „Odamlar nima uchun Mushukni quch-og‘iga o‘tqazib erkalatishadi-yu, Eshakni esa mini-shadi“, degan savol charxpalakdek aylangani-aylangan. Afsuski, hali-hozir bunga javob topolgani yo‘q.

Shu topda ham, ishtaha bilan ajriq kavshab, ana shu to‘g‘risida o‘ylay boshlagan edi, „Vey, Esh-shak!“ – degan haqoratomuz tovushni eshitib, jahllanib ortga o‘grildi. Uning qarshisida bo‘yniga qo‘n-g‘iroq ilib olgan o‘yinqaroq Uloqcha turardi. Eshak kalondimog‘lik bilan burnini jiyirib, o‘shqirdi:

– Bir tepishda to‘rttala tuyog‘ingni osmondan qilgayman! Meni „eshak“ deyishga qanday tiling bordi?

Eshakning baqirishidan ne-ne hayvonlar talvasaga tushmagan deysiz. Uloqcha bo‘lsa, miq etib qo‘ymadi.

– Meni aldab bo‘psan, – deya bamaylixotir javob qildi u. – Yo‘lbars emasliging shundoqqina ko‘rinib turibdi. Xex-xex-xe...

Senga aytib qo‘yayin, tirrancha, – ko‘krak kerib hangradi Eshak. – Meni Bilimdon deydilar! Bunda keyin og‘zingga qarab gapirgaysan. Maylimi?

Eshak o‘zini aqlli mavjudot qilib ko‘rsatishga urinayotgani Uloqchaning kulgisini qistatdi.

Ho‘, o‘qimagan! – tap tortmay gapni davom ettirdi u. – O‘zing eshaksan-u, nega endi oting Bilimdon bo‘larkan?

Eshak gerdaygan kuyi unga yaqinroq keldi:

– Chunki, men hamma narsani bilaveraman. Hatto o‘ngacha sanashniyam bemalol eplashtiramiz. Mana, eshit: bir, olti, uch, sakkiz, o‘n! Qoyilmisan endi?

– To‘g‘ri sanading, – sir boy bermay chimrildi Uloqcha. – Sanashni men ham bilaman. Ishonmasang, bir bog‘ xashakdan garov o‘ynaymiz.

Eshak chirancoq Uloqchaga diqqat bilan boshdan-oyoq nazar solib chiqdi. Keyin uning qayoqdan kelib qolganini surishtirdi. Uloqcha burnini yuqori ko‘tarib, bo‘ynidagi qo‘ng‘irog‘ini faxr bilan jiringlatdi:

– Kumush qo‘ng‘irog‘imni ko‘ryapsanmi? Fermadan yuborishdi meni. Endi shu yaylovga oqsoqollik qilaman.

– Qarang-ga, qarang-ga! – uni masxaralab tirjadi Eshak. – Bo‘lak oqsoqol qurib ketganakan-da, a, echkivachcha?

Bu gapni eshitib, Uloqchaning fe’li aynidi. Eshakni suzmoqchidek, boshini pastga egib, tuyog‘ida yerni timdaladi.

– Qaytib „echkivvachcha“ deydigan bo‘lsang, seni yaylovda hangrash huquqidan mahrum qilaman! deb o‘dag‘ayladi u. – Shalpanq qulqlaring bilan uqit olginki, bugundan boshlab meni „hurmatli oqsoqol“ yo bo‘lmasa, „hukmdorim“ deb chaqirishing kerak!

Eshakning birdan dumi qisilib, ko‘zi bejo o‘ynadi. Uloqcha endi qittak yumshab, muloyimroq ohangda so‘z qotdi:

Agar-r... chizgan chizig'imdan chiqmaslikka no'z bersang, aytaylikki... seni o'zimga yordamchi qilib olishim ham mumkin.

Eshak beqiyos aql-u farosati bilan shu yoshgacha birin-bir mansabga ega emasligidan juda o'ksinib yurardi. Hozirgi sha'madan keyin uning bo'zraygan ko'zlar to'satdan yorqin chaqnab ketdi. Gapni cho'zib o'tirmay, yordamchi degan lavozim unga qinaqa foyda keltirishini surishtirdi. Uloqchaning „boshliq bilan yordamchi yaylovning eng sero't joyida tamaddilanish huquqiga ega bo'ladi“, degan no'zini eshitib, quvonchdan dumi o'ynadi.

Manavi boshqa gap! – gijinglab turib, dimo'ida po'ng'illadi Eshak. – Agar va'dangda tursang, hozirdan boshlab gapingdan chiqmagayman, echki-vuchcha.

Nima deding? – chaqchaydi Uloqcha. – He, tiling kesilgur!

Ke... ke... kechirgaysiz, – aybini yuvishga urinib, Uloqchani sizlay boshladи Eshak. – M.... men „hukmdorim“ demoqchi bo'luvdim. Ha, manashunaqa!

Uloqcha yengil tin olib, Eshakning ko'zlarigainchiklab tikildi.

Mana, sen bilan kelishib oldik, – dedi u, huqiqiy boshliqlardek miyig'ida jilmayib. – Endi boshqalarni tartibga solishimiz kerak.

Uloqcha sopolrang ko'zlarini jovdiratib, atrofga alingladi-da, takroran Eshakka yuzlandi:

Aytganday, boshqalar qani?

– Bugun yakshanba bo‘lsa kerak, – axborot berdi Eshak. – Menden bo‘lak hamma hayvon yakshanba kuni dam olgay.

Buni eshitib, Uloqchaning achchig‘i chiqdi:

– Nima-nima? Yaylovdagilarga yakshanbada dam olishni kim qo‘yibdi? Butun qish bo‘yi og‘ilxonadan chiqmay yem chaynashgani kammi ularga? O‘zboshimchalik bu! Tushundingmi?

– Tushunganda qandoq! – askarchasiga qaddini g‘ozladi Eshak. – Nima, kallam oshqovoqmidi?

Kumush qo‘ng‘iroqli boshliq hozirgina lavozimga tayinlangan shalpangquloq yordamchisiga dastlabki topshiriqni berdi.

– G‘irillab borib, o‘sha yalqovlarni tezda yaylovga yetaklab kel, – shohona qiyofada buyurdi u. – Katta yig‘ilish o‘tkazamiz. Kelgunlaringcha, men tevarak-atrofni aylanib, yaylovning ahvoli bilan tanishib turaman.

Eshak yana qaddini rostladi:

– Xo‘p bo‘ladi, hukmdorim!

Eshak bir shattalab ortga burildi-da, so‘qmoqni changitganicha, qishloq tomonga poyga qo‘ydi. Uloqcha labining chetida mamnun iljaydi.

“Mana, bu to‘s-to‘palon yaylovdayam tartib o‘rnatadigan bo‘ldik, – bo‘ynidagi qo‘ng‘iroqni siypalab o‘yladi u.– Endi ahmoqlarga oz-moz aql o‘rgatamiz. Aqlilarning tilini tiyib qo‘yamiz. Mahmadanalar bizga to‘g‘ri kelmaydi. Gap degani o‘zimizdayam yetarli”.

Uloqcha yaylovni ko‘zdan kechirishga kirishdi. Yo‘l-yo‘lakay uyer-buyerdagi o‘tlarni labida chimgilab, har qaysi joyning ta’mini imkon qadar eslab qola boshladi.

### **Tanishuv**

*Eshshaklarga kulmanglar,  
Ular bari polvondir.  
Eshshaklarning aqli kam –  
Degan gaplar yolg‘ondir,  
Eshshaklarga kulmanglar.  
Eshshaklarga kulmanglar,  
Og‘ir yukni tortishsa.  
Aslo kulmas edingiz  
Yukni sizga ortishsa,  
Eshshaklarga kulmangla-a-r...*

Eshak ashula aytganicha qishloqqa kirib kelib, hammadan oldin bu atrofdagi eng keksa va obro‘li hayvon hisoblangan Ho‘kiz og‘aning huzuriga bordi. Daraxtning ostiga yonboshlab olib, bo‘yni yetadigan joylardagi o‘t-o‘lanni ermak qilib yotgan Ho‘kiz og‘a Eshakning salomiga erinibgina bosh qimirlatdi.

– Ha, Bilimdon, nima gap?

– Fermadan bizga oqsoqol yuboribdilar, – deb hangradi Eshak. – Hammamiz yaylovga marhamat qilgaymiz. Katta majlis bo‘ladurmish.

Ho‘kiz og‘a peshanasini tirishtirib, sekin o‘rnidan turdi. Yelkasini daraxtga ishqalab qashlarkan, o‘zicha g‘udrandi:

– O‘lay agar bu dunyoning ishlariga tushunsam. Fermasi qayerda-yu, oqsoqoli kim bo‘ldiykin? Ish-qilib, qarigan paytimda meni yana omoch sudrashga majbur qilishmasin-da...

Eshak hangira-hangir qilib yurib, boshqa hayvonlarni ham bir zumda yig‘ib keldi. Ho‘kiz og‘a ularga qo‘shilib, yaylov sari noxush odimlab borarkan, yo‘l-yo‘lakay Eshakdan so‘radi:

– Menga qara, Bilimdon. O‘sha oqsoqoling kim o‘zi?

Eshak har ehtimolga qarshi tevarakka olazirak elovlab olib, pastroq tovushda dedi:

– Ochig‘ini aytgaymizki, o‘zi ko‘rimsizgina bir Uloq. Lekin, qarangki, o‘sha echkivachchaning bo‘ynida kumush qo‘ng‘irog‘i bor!

– Qo‘ng‘iroq rostdanam o‘zinikimikin, hov? – deya tilini osiltirib gap qistirdi Olapar ismli It. – Menimcha, seni laqillatgandir-ov, vov!

Ko‘pdan buyon shubhasini aytishdan o‘zini zo‘rg‘a tiyib turgan qiziqqon Bo‘taloq bu gapdan keyin tiliga erk berib, dangal so‘z boshladi:

– Olapar to‘g‘ri aytyapti. O‘sha echkivachchaning shartta dumini tugib, kelgan joyiga qaytarib quvish kerak. Borib ammasiga oqsoqollik qilsin!

– To‘g‘ri! – dedi Qo‘zichoq, Bo‘taloqning fikrini ma’qullab.

– Menimcha, bunday qilish yaxshimas, – o‘z odatiga ko‘ra, bosiqlik bilan munosabat bildirdi Ho‘kiz

og'a. – Avval u bilan to'g'rilikcha gaplashib ko'rganimiz tuzuk. Qani, maqsadini bilaylik-chi.

Qo'zichoq bu safar ham boshini qimirlatdi:

To'g'ri!

Ho'kiz og'aning gapida jon bor, – Bo'taloqdan ko'ra mulohazaliroq ekanini barchaga bildirib qo'yish uchun ataylab salmoqli tarzda so'zлади Eshak. – Oldin yaxshilikcha fikrlashib ko'rgaymiz. Agar mendek polvonniyam aldashga botingan bo'lса, o'sha echkivachchani shaxsan o'zim...

Eshakning karillashi kekirtagida qoldi. Do'nglik ortidan Uloqcha chiqib kelayotganini ko'rib, darrov o'zini o'ngladi va shaxdam odimlab, uning istiqboliga yurdi:

– Podani yig'ib keldim, hukmdorim!

Uloqcha: „Senga rahmatnoma e'lon qilaman, Bilimdon“, deya Eshakni og'zaki rag'batlantirgan bo'ldi. So'ng, boshqa hayvonlarga yuzlanib, ularga naridan-beri razm solgach, dabdabali ohangda murojaat qildi:

– Salom, hayvonlar!

Hayvonlar birin-ketin ma'rab-mo'vrab alik olishdi. Eng oxirida Olapar cho'ziq vovullab qo'ydi. Oqsoqol aftini burishtirib, unga hafsalasiz tikildi.

– Yaylov bu o'txo'r hayvonlarning joyi, – Olaparni zarracha mensimasdan so'z qotdi u. – Sen bu yerda nima qilib yuribsan, itdan tarqagan?

Bo'ribosar ajdodlarining arvohini bezovtalan-tiruvchi muomaladan jahli chiqqan Olapar burnini

titratib, qulog‘ini dikkaytirdi. Lekin, vakolati hozircha noma'lum bo'lgan oqsoqolga o'chakishish-dan o'zini tiyib, vazifasi Qo'zichoqni yaylovda qo'riqlab yurishdan iborat ekanligini yotig'i bilan tushuntirishga intildi.

– Qo'zichoqqa poyloqchilik qilishingga ruxsat berishim mumkin, – deya Itga biroz yon bosgan bo'ldi Uloqcha. – Biroq, seni yaylovda akillash huquqidan mahrum qilaman!

Biz qorinni to‘ydirib dam olayotganimizda, sen atrofimizda ulib yurishing tartibga xilof narsa.

Nima deyishini bilmay qolgan Olapar Ho'kiz og‘aga zimdan iltijoli qarab qo‘ydi. Olaparga qolsaku, bunaqa betasir xo‘jayinlardan o‘ntasini birpasda piypalab tashlagan bo‘lardi. Ammo, ko‘pchilikning, ko‘pchilik bo‘lgandayam, eski qadrdonlarining rayiga qaramay ish ko‘rish butkul odobsizlik hisoblanardi. Shuni o‘ylab, tishini tishiga qo‘yib turardi.

Ho'kiz og‘a Itning ahvoliga tushunib, sabringa balli, degandek, unga ma'nodor bosh likillatdi. So‘ng Uloqchaga yuzlanib, dedi:

– Bu adolatdan emas, oqsoqol. Olapar ko‘pdan beri biz bilan birga yashaydi. Barimiz aka-ukadek bo‘pketganmiz.

– Judayam noto‘g‘ri mo‘vrayapsiz, – deya Ho'kiz og‘aga e’tiroz bildirdi Uloqcha. – Siz ukam deb atayotgan bu It bir kunmas bir kuni birontamizning suyagimizni „qirt-qirt, qirt-qirt, qirt-qirt“ qilib g‘ajishi mumkin. Xo‘s, shumiadolat?

Ho'kiz og'aning birdan g'ashi kelib, bezanglaganicha yerni tepkilay boshladi. Uloqcha unga taajjublanib boqayotganini ko'rghan Eshak, shoshapisha izoh berdi:

– Iltimos, hukmdorim, Ho'kiz og'aga bundan keyin „xo'sh“ degan gapni ishlatmagaysiz. Bu zot „xo'sh“ degan gapni yomon ko'radurlar.

– Sizdan qaytarib so'rayapman, Ho'kiz og'a, – deya o'zini yana qozilikka soldi Uloqcha. – Suya-gimizni rohatlanib g'ajiydigan maxluq bizga do'st bo'lishi mumkinmi?

O'zining ortiqcha donoligi bilan emas, balki salobati bilan birov larga so'zini o'tkazishga o'r-ganib qolgan keksa Ho'kiz mahmadana Uloqchaning unchalar qaltis bo'limgan savoliga javob topolmay, tili tutilib qoldi. Bundan foydalangan oqsoqol hukmini ko'pchilikka tasdiqlatib olishga urindi:

– Shunday qilib, hammamiz bir qarorga keldik, ya'ni Olapar yaylovda vovillash huquqidan mahrum etildi. Bugundan boshlab, uning bu o'rtada akillaganini eshitmasligimiz kerak.

Yangicha tartibning birinchi qurboni bo'lgan It, tarafimni oladiganlar topilib qolar, degan umidda ko'zini jovdiratib, turganlarga bir-bir qarab chiqdi. Qishloq doshlari undan ko'zlarini olib qochishayotganini ko'rib, birdan ma'yus tortdi.

– Ir-r, xap! – deb alam bilan so'z boshladi Olapar. – Demak, endi men g'ing demasdan yurishim lozim. Shunaqami?

10  
Olaparning qishloqdoshlari unga o‘ng‘aysizlanib qarab qo‘yishib, yana boshlarini egishdi.

– Men bunday yasholmayman, og‘aynilar, – xazin so‘zlashda davom etdi Olapar. – O‘zlarining o‘ylab ko‘ringlar, yaylovdan begonalar o‘tib qolgudek bo‘lsa, qanday qilib ularga akillamasdan tura olaman? Yo bo‘lmasa, bironta lochin Qo‘zichoqning ustida aylanib qoldi deylik. Bunaqada hurimasdan bo‘ladimi? Aytinglar, hov, vov-vov! Meni kechqurunlari zanjirga bog‘lab qo‘yishgani ham yetar. Hech bo‘lmasa, vovullab turmasam bu kunimdan o‘lganim ming marta yaxshi. Endi sizlar bilan yaylovda yurolmayman, og‘aynilar. Men qishloqqa ketaman. Xayr, ir-r!

O‘zining itlik sha’nini barcha narsadan ustun qo‘yib o‘rgangan Olapar noshud do‘stilaridan arazlab, shartta orqaga burildi-da, xafagarchilikdan dumini sudraganicha qishloqqa qaytib ketdi.

Ho‘kiz og‘a tahqirlangan Olaparning ortidan bir necha fursat xomush termilib turgach, Uloqchaga bosiqlik bilan mo‘vradi:

– Baribir yaxshi ish bo‘lmadi, oqsoqol. Bu It umrida hech birimizga dushmanlik qilmaganidi.

– Lekin, do‘sit ham emas! – tag‘in o‘zinikini ma’qulladi Uloqcha. – O‘txo‘r o‘tni o‘ylaydi, suyakxo‘r – suyakni. Ikkala gala aralashgan joyda qon to‘kiladi.

Ho‘kiz og‘a picha mulohazalanib olib, dedi:

– To‘g‘ri, It – suyakxo‘r, ammo yirtqich emas. Shu narsaning farqiga bormading shekilli, oqsoqol...

## JANJAL

Tuyalar kenglik va erkinlikni, hattoki, hayot uchun eng zarur bo'lgan to'qlik va halovatdan ham ustun qo'yishadi. Karvonboshilarning gapi chin bo'lsa, tuyalar saksovulni avliyo o'simlik hisoblashar, uning qarshisida cho'k tushishib, „Bizni tor ko'chalarda yurish-u, sassiq og'ilxonalarda yotishdan asragin“, deya iltijo qilishar ekan. Otabobolarining bu xususiyati Bo'taloqqa ham qon orqali ozmi-ko'p o'tgan bo'lib, har qanday ta'qib va cheklashlarni o'lgudek yomon ko'rardi.

Baxti qora Olapar o'ksinganicha qishloq tomon yo'l olganidan so'ng, oqsoqolning poyqadami yaylovga qutlug' kelmaganini sezgan Bo'taloq tajanganib pixilladi. Ho'kiz og'a: „Shu narsaning farqiga bormading shekilli, oqsoqol“, deya bosh tebratgani-da, yana o'zini tutib turolmadi.

– Bu qanaqasiga oqsoqol bo'lsin, Ho'kiz og'a? – deb jirilladi u. – Bizni bir-birimizga gij-gijlash uchun oramizga kirvolgan g'alamis bu!

– To'g'ri! – dedi Qo'zichoq.

Endigina amalga mindim deganida, ishning chappasiga ketayotganidan tashvishlangan Eshak g'alyonchi Bo'taloqning tilini tiyib qo'yishga oshiqib, ko'zini ola-kula qildi:

– O'pkangni bosvol, Bo'taloq! Oqsoqol to'g'ri qildilar. Biz o't yegaymiz, It yemagay. Bunaqa olif-tachilik bizga hurmatsizlikdur.

Qo‘zichoq bu gal Eshakning yonini oldi:

– To‘g‘ri!

– Mug‘ambir echkivachcha Bilimdonni o‘ziga og‘dirib olganga o‘xshaydi, – atrofdagilarni hush-yorroq bo‘lishga chorladi Bo‘taloq. – Eshak bizga sotqinlik qilyapti, birodarlar.

– To‘g‘ri! – o‘ylanib o‘tirmay qichqirdi Qo‘zichoq.

Eshakning ko‘zлari tuyqus bejo o‘ynab ketdi. Siri ochilib qolishidan cho‘chib, Bo‘taloqqa bor ovozda davara qildi:

– Nimalar deyapsan, bukri? Meni hali hech kim bozorga solmagan. Men biror marta sotilmaganman. Va sotilmagayman!

Bo‘taloq pandavaqi Eshakning gaplariga parvo qilmay, bu jikkak Uloqchaning haqiqiy oqsoqolligiga baribir ishonmasligi, bo‘ynidagi qo‘ng‘iroqni biron joydan o‘margan bo‘lishi mumkinligini aytib, o‘z fikrida turib oldi. Boshqalarda ham ikkilanishga o‘xshagan kayfiyat paydo bo‘ldi.

Uloqcha hali juda yosh esa-da, sal narsaga dovdirab qoladiganlar toifasidan emasdi. U, qay vaziyatda bo‘lmasin, raqibini chalg‘itishga, undan ustun kelishga urinar, taxlikaga tushganini na ko‘zidan, na xatti-harakatidan sezib bo‘lardi. Tabiiyki, bu safar ham bo‘sh kelmadni.

– Vey, beli do‘ngalak! – deya Bo‘taloqqa sapchilandi u. – Ming marta shukur qilginki, „Babachoq“ fermasida emassan. Yo‘qsa, oqsoqolni tan olmaganing uchun allaqachon go‘shtga tortilgan bo‘larding!

– Tupurdim o’sha fermangga! – tap tortmay bo‘kirdi jizzaki Bo‘taloq. – Fermang ham, hayvonlarni go‘shtga tortadigan tarozing ham o‘zingga buyursin.

Mabodo, bu jinqarchaning fermadan yuborilgan oqsoqolligi rost bo‘lsa, uni haqoratlashning oqibati yaxshilikka olib bormasligidan xavfsiragan Ho‘kiz og‘a avjlanayotgan janjalni bosishga, masalani shovqin-suronsiz hal etishga urindi. U tumshug‘ining uchini Bo‘taloqqa to‘g‘rilab, „picha jim bo‘l“ degandek, ko‘zini lo‘q qilib turgach, Uloqchaga yuzlanib, muloyim tarzda gap boshladi:

– Ko‘nglingga olmagin-u, uka, seni yuqoridan xo‘jayin qilib yuborishganiga jamoatning ishongisi kelmayapti. Sen bo‘yningdagi qo‘ng‘iroqni pesh qilyapsan. Kim biladi, balki uni haqiqatanam biror joydan o‘g‘irlagandirsan. Bunaqa narsani ba’zan yo‘ldan topvolish ham mumkin. Oqsoqolligining ni isbotlovchi boshqa durustroq dalil ko‘rsatsang, yaxshi bo‘lardi.

Hanuz qoni qaynab turgan Bo‘taloq po‘pisa aralash gap qistirdi:

– Bilvol! Boshqa daliling bo‘lmasa, ketingga tepib haydaymiz!

Uloqcha qanchalar surbet bo‘lmasin, oldiga qo‘-yilgan yangi talabni eshitib, andak esankirab qoldi. Ahvolini boshqalarga sezdirmaslik uchun o‘zini iloji boricha xotirjam tutishga tirishib, ko‘z suzgанича xiyol iljaydi. Bu turishidan „boshqa dalil ham

bor, lekin uni sizlarga ko‘rsatish shartmikin“, degan ma’noni uqish mumkin edi.

– Boshqa dalil kerak denglar? – deya, turganlarga pisandsiz ko‘z yogurtib chiqdi u. – Obbo, sizlar-ey...

Uloqcha shunday dedi-yu, gapni qanday davom ettirishni bilmay, boshini qashladi. Qashinayotgani-da oldingi tuyoqchasi bexosdan qulog‘idagi mis tamg‘aga tegdi. Shu zahoti Uloqchaning boshida yarq etib bir fikr chaqnadi-yu, chehrasi yorishdi.

– Dalil bor! – deb qichqirdi u. – Mana, boshqa dalil! Qulog‘imdagи misni ko‘ryapsizlarmi? Oqso-qollik tamg‘asi bu. Raqamlariyam bor.

Uloqcha tegrasida turganlarga qulog‘ini bir-bir ko‘rsatib: „Ishonmasanglar, o‘qib ko‘ringlar. Oralaringda savodlilar topiladimi?!“ – deb davrani aylanayotganida, Eshak: „Savod, mana, bizda bor, o‘ngacha sanashni bilgayman“, deya oldinga chiqib, tamg‘aga uzoq tikilib qoldi. Eshakning bezovtalayotganini ko‘rib, hamma hayvonlar singari u ham g‘irt savodsiz ekanini payqagan Uloqcha o‘z yordamchisiga ko‘maklashgisi keldi:

– Nol, nol, to‘qson to‘qqiz deb yozilgan. To‘g‘rimi?

Bu so‘z Eshakning joniga ora kirib: „Qarang-ga, shunaqa deb yozishibdi-ya“, deya hangradi. Uloqcha endi qulog‘ini Ho‘kiz og‘aga tutdi:

– Bu tamg‘ani fermada yopishtirishgan. Yana qanaqa dalil kerak, xo‘s?

Ho‘kiz og‘aning birdan burni titrab: „Yana

„xo’sh“ deydi-ya, yana „xo’sh“ deydi-ya“, deb, joyida depsina boshladi. „Babachoq“ fermasida faqat qo‘y-echkilargina boqilar, Uloqcha boshqa turdag'i hayvonlarni ko‘rmay ulg‘aygan, shu bois, ularning se'l-atvoridan ham bexabar edi.

Endi, ho‘kizlar „xo’sh“ degan so‘zni nega yoqtirmasligiga to‘xtalib o‘taylik. Odamlar bu joni-vorlardan asosan dehqonchilikda foydalanishadi, ya’ni ularga omoch qo‘shib, yer haydashadi. Omochni sudrab borayotgan ho‘kiz mabodo izdan sal chetga chiqadigan bo‘lsa, qo‘shchi: „Xo’sh! Xo’shka!“ – deb uni bir qamchilab qo‘yadi. Ho‘kiz zoti „xo’sh“ degan gapni eshitganda, bir sapchib tushishi shundan.

– Sizga aytuvdim-ku, hukmdorim, – Uloqchani takror ogohlantirgan bo‘ldi Eshak. – Ho‘kiz og‘a „xo’sh“ desalar achchig‘langay.

– Uzr, bilmasdan “xo’sh” devoribman, – deya Ho‘kiz og‘ani tinchlantirdi Uloqcha va qulog‘ini unga yaqinroq tutdi. – Mana, tamg‘ani yaxshilab ko‘rvoling.

Ho‘kiz og‘a o‘zini bosib olib, tamg‘aga bor diqqatini jamlab tikildi. Misni oldin hidladi, keyin sal yalab ko‘rdi, „um-m“ deya picha mulohazalanib turdi.

– Tamg‘a qulooqqa judayam o‘xhatib chaplangan, – dedi u, nihoyat sheriklariga yuzlanib. – Bu naqa nozik ish ancha-muncha hayvonning qo‘lidan kelmaydi. Uloqchaning fermadan yuborilgani, menimcha, to‘g‘ri.

Eshak bu gapdan yanada jonlandi:

– Aytuvdim-ku, bu oqsoqol haqiqiy deb. Nima, kallam oshqovoqmidi?

Bo‘taloqning ko‘ngli battardan xijillashdi. Uning tanasidagi har bir tomchi qon erkka tashna, badanidagi har bir tuk ta’qibga dushman edi. Qandaydir echkicha bo‘ynidagi kumush qo‘ng‘iroq va qulog‘idagi mis tamg‘aga asoslanib, endilikda ularga xohlagan buyrug‘ini berishi mumkinligi Bo‘taloqqa behad alam qilayotgandi.

– Sizlarga tushunmayapman, birodarlar, – belini qayishtirib, gavdasiga qaraganda juda qisqa ko‘rinuvchi dumini tikkaytirdi u. – Haqiqiymi, qalbakimi, o‘zi bizga oqsoqolning nima keragi bor? Oqsoqol degani bizga qo‘sishimcha yem yoki xashak berib tursa, boshqa gap edi. Buyruqni yeb bo‘lmasligini hammamiz bilamiz. Shunday ekan, bunaqa xo‘jayinni bir tepib, fermasiga uchirvor-sak-chi!

Boshqa hayvonlardan biron-bir sado chiqmadi. Shunda, Uloqcha Bo‘taloqqa salmoqlanib yaqinlashdi-da, dag‘dag‘ani kuchaytirdi:

– Ho‘, o‘qimagan! Siyosiy tomondan g‘irt jinni ekansan! O‘z yaylovingdan tashqarida nimalar bo‘layotganini bilasanmi? Hamma joyda ahvol shu – har kim xohlaganday yashashga chek qo‘yilib, jamoa bo‘lib kun ko‘rishga o‘tilyapti, tartib-intizom o‘rnatilyapti. Mabodo, meni haydasanglar, mendan kuchlirog‘ini yuborishadi. Masalan, qulog‘iga oqso-

qollik tamg‘asi yopishtirilgan Yo‘lbars sendaqalarni tezda mulla qipqo‘ygan bo‘lardi.

– Qanaqa tartib-intizomni gapiryapsan? – jirilashdan tiyilmadi Bo‘taloq. – Sen kelmasingdan burun tinchgina tirikchilik qilib yuruvdik. Oramizga qo‘silding-u, yaylovdha to‘palon boshlandi. Shumi tartib o‘rnatish?

Uloqchaning o‘rnida boshqa hayvon bo‘lganida, mantiqqa tayanib aytilgan bu so‘zdan esankirab, jo‘yali javob topolmay qolishi hech gap emasdi. Birorq, bizning qahramonimiz „mantiq“, „asosli fikr“ degan narsalar bilan hisoblashib o‘tiradigan anyilar sirasiga kirmasdi. Shu bois, qittay ikkilanmasdan, dangal javob qildi:

– Tinch joyda tartib o‘rnatib bo‘larkanmi, xumbosh? Tartib o‘rnatish uchun, qoidaga ko‘ra, oldin to‘palon chiqarish kerak bo‘ladi!

– Qarang-ga! – Uloqchaning donoligiga qoyil qoldi Eshak. – Mana gap qayerda ekan!

Bo‘taloq bir surbet Uloqchaga, bir qo‘rqoq va go‘l sheriklariga qarab qo‘yib, jahl bilan chetga tufladi.

## ENG BAXTLI HAYVON

Qo‘zichoq sodda va lallaygan bo‘lishiga qaramay, tili juda erta chiqdi. Buning sababi bor. Uning ota-onasi bor-yo‘g‘i bittagina gapni, ya’ni „to‘g‘ri“ degan so‘znigina bilishar, buni o‘rganib olish uncha qiyin emasdi.

Ha, qo‘ylar o‘zlarini eng baxtli hayvon deb bili-shadi. Chunki, ular ortiqcha gapirishdek kulfatdan nari yashaydilar. Ko‘p gapirish uchun ko‘p o‘ylash kerak. Ko‘p o‘yladingmi, hech qachon semirmaysan. Oriqlik esa – g‘irt sharmandalik. Dunyoga bir kelgan ekansan, lorsilloqligingni hammaga ko‘z-ko‘z qilib, seni to‘yga yetaklab borishmasa, shuyam hayotmi?

Bizning qo‘ng‘ir yungli Qo‘zichog‘imiz ham tug‘ilganidan buyon shu hikmatga amal qilib kun kechirardi. Oqsoqol kelishi munosabati bilan yaylovda boshlangan mashmashalarda u to‘liq ishtirok etib, bir-biriga qarama-qarshi gaplarni diqqat bilan tinglayotganiga qaramay, hamma to‘g‘ri so‘zlayotganiga ishonchi komil edi.

Uloqcha o‘zining fermadan jo‘natilgan oqsoqolligini to‘la-to‘kis isbotlab bo‘lgach, shu kungacha palapartishlik hukm surib kelgan yaylovda barcha to‘liq bo‘ysunishi lozim bo‘lgan tartib-intizomni joriy etish haqida taklif kiritdi. Bu taklifi birinchi bo‘lib o‘zi ma’qullab, yangicha turmush qonun-qoidalari yuzasidan so‘zlashga kirishganida, Qo‘zichoq zo‘r qiziqish bilan uning sholg‘omrang og‘ziga tikildi.

– Eng avvalo, har kim ko‘ngli tusagan joyda o‘tlashiga chek qo‘yamiz, – deya gapni juda nozik masaladan boshladi oqsoqol. – Siz, Ho‘kiz og‘a, bugundan e’tiboran soyning yoqasidagi o‘tlarni xo‘rdalaysiz. Qo‘zichoqqa do‘ngning orqasidagi kurmakzorni ajratamiz. Adirning etaklari – Bo‘taloqqa.

– Tupurdim adirning etagiga! – deb qat’iy norozilik bildirdi Bo’taloq. – U tomonda yantoqdan bo’lak hech vaqo yo‘q.

Qo‘zichoqning Bo’taloqqa rahmi kelib, „to‘g‘ri“ deb o‘ylab qo‘ydi ichida.

Boshliqlikni qo‘lga kiritib, ko‘ngli taskin topib turgan Uloqcha, pinagini buzmasdan, sokin javob qildi:

– Ota-buvang yantoq chaynab kelgan. Ajriq ye-yishni senga kim qo‘yibdi?

Qo‘zichoqning nazdida oqsoqol ham to‘g‘ri gapirgandek tuyuldi.

– Xo‘sish, bu yerda kim o‘tlaydi? – yaylovning markazidagi barra maysalarga suqlanganicha so‘radi Bo’taloq. – Bu yerni gapirmading-ku.

Uloqcha bir tomoq qirib olib, sipolik bilan chimrildi.

– Bu joylarning bir qismi menga, – gap otasidan qolgan meros haqida ketayotgandek, zaracha ikkilanmasdan so‘zлади u. – Ikkinchи qismida yordamchim Eshak... hm... Bilimdon tirikchilik qiladi.

Qandaydir bir kelgindi hammaning ko‘zini baq-raytib turib, bemalol lo‘ttibozlik qilayotganidan Bo’taloqning fig‘oni falakka chiqdi:

– Bu qanday gap, birodarlar? Mana shu yaylov azaldan bizniki. Tayinsiz bir echkivachcha bugun keliboq, eng sero‘t joylarni o‘zlashtirib olsa, jim qarab turaveramizmi?

– To‘g‘ri! – deb ma’radi Qo‘zichoq.

Bo‘taloqning jirrakiligiga ko‘nika boshlagan Uloqcha, bu gal ortiqcha qizishmasdan, baland ruhda po‘pisa qildi:

– Ho‘, beli do‘ngalak! Meni yana „echkivacha“ deydigan bo‘lsang, yaylovda bo‘rash huquqidan mahrum qilaman. Tartib-qoida nimaligini bilsanmi, o‘qimagan? Qoidaga ko‘ra, oqsoqol yayloving markazida turishi kerak. Bu yerdagi o‘tlar bo‘liq bo‘lsa, menda nima ayb?

– Ha, ha, bu gapda jon bor, – deya bosh irg‘adi Eshak. – Boshliqlar markazda turishadi, deganlarini bir eshitganidim. Markaz deyilganda, biz yayloving qoq o‘rtasini tushungaymiz.

– To‘g‘ri! – dedi Qo‘zichoq.

Ba’zida, ko‘p gapistish ham qorinni ochiradi. Oshqozoni jizzillab, ichaklari shildirayotganini his etgan Uloqcha, tezroq tamaddilanish hozirligini ko‘rdi. Yordamchisiga toqatsizlangan kepatada yuzlanib, dabdabali ohangda murojaat qildi:

– Bilimdon!

Eshak qaddini g‘ozladi:

– Qulog‘im sizda, hukmdorim!

– Podani safga tizib, joy-joyiga tarqat.

– Xo‘p bo‘ladi, hukmdorim!

Eshak atrofidagi hayvonlarga qulop dikkaytib turib, tovushining boricha hangradi:

– Olti qator bo‘lib safla-a-n!

– Iye, kallang joyidami? – o‘shqirdi Bo‘taloq. –

O‘zimiz bor-yo‘g‘i uchtamiz, qanaqasiga olti qator bo‘lib saflanamiz?

– Amaldorga aql o‘rgatilmasin! – deya ko‘zini chaqchaytirdi Eshak. – Birin-ketin safla-a-n!

Ho‘kiz og‘a, Bo‘taloq va Qo‘zichoq, istab-istamay, qatorga tizilishdi.

Eshak: „Mening orqamda-a-n hangu-u hang!“ – deb baqirdi-da, joyida bir shattalab olib, oldinga yurdi. Qatordagilar pala-partish qadam tashlashib, nochor unga ergashdilar.

Mansabdar Eshak amali yo‘q hayvonlarni joy-joyiga tarqatib qaytganida, katta boshliq serajriq maydonga yonboshlab olib, qandaydir qo‘shiqni o‘zicha hirgoyilab yotgandi:

*Shamol kelsa, ko ‘k maysalar  
Qiltil-qiltil-qiltillaydi.  
Osmondagи oq bulutlar  
Hilpil-hilpil-hilpillaydi.*

*Oftob chiqsa, sho ‘x to ‘rg‘aylar  
Jilpil-jilpil-jilpillaydi.  
Mening kumush qo ‘ng‘irog ‘im  
Yiltil-yiltil-yiltillaydi...*

„Qorinni allaqachon nog‘ora qilvolibdi, – yonveridagi kemtik ajriqlarga ochko‘zlarcha qarab qo‘yib, ko‘nglidan o‘tkazdi Eshak. – Bu joylarda yordamchim ham ovqatlangay deb o‘ylamaganini qarang-ga“.

U, nafasini rostlab olish uchun Uloqchaning yoniga ag‘anayotib, hech narsa bo‘lmagandek, bama maylixotir gap boshladi:

– Nonushta qilib oldilarmi, hukmdorim? O‘tlog‘imizning maysalari hang-mang qoladigan darajada shirali. Tortinmagaylar.

– Shuyam maysa bo‘ptimi! – deya tuyog‘ini siltadi Uloqcha. – Eshitishimga qaraganda... Yo‘q... o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman! Olatog‘ning etagi-dagi maysalar chinordek-chinordek bo‘lib, tarvaylab yotibdi. Chaynasang, bodring g‘ajigandek yayraysan.

Bu gapni eshitib, Eshakning og‘zidan chak-chak so‘lak tomchiladi:

– Qarang-ga, qarang-ga!

– Sen nima deysan, Bilimdon, – yordamchisiga maslahat soldi oqsoqol. – O‘sha tomonga turizm qilsakmikin?

Eshak qorniga kelib qo‘ngan pashshani dumida ayamay urib, xo‘shshayganicha so‘radi:

– Kechirgaylar... Nima u... to‘rayzim degani?

– Sayohat-da, – izoh berdi Uloqcha. – Ham sayl qilamiz, ham maysaga to‘yamiz. Xo‘sh, nima deysan?

Do‘ng yonida o‘tlab yurib, amaldorlarning suhbatiga jimgina qulq solayotgan pismiq Qo‘zichoq dono oqsoqol g‘oyatda to‘g‘ri taklif kiritayotganini darhol fahmlab yetdi. So‘ng, Eshakning nima deyi-shini kutib, maysa chaynashdan to‘xtaldi.

– Eha-a, eha-a, – deya ko‘zini pildiratib, tog‘ to-

monga xavotirli qarab qo‘ydi Eshak. – Birinchidan, Olatog‘ bu yerdan ancha uzoq. Oltinchidan, uyoqda Ashqal-Dashqal degan egizak bo‘rilar yashagay. Ikkalasiyam g‘irt bezori.

Bo‘rilarning o‘tkir-o‘tkir tishlarini ko‘z oldiga keltirgan Qo‘zichoq, Eshak bo‘lishiga qaramay, Bilimdon to‘g‘ri gapirayotganini his etdi. Ayni chog‘da, bo‘rilar haqidagi vahimali gaplardan keyin ham oqsoqolning avzoyida hech qanday o‘zgarish sezilmagani uni taajjubga soldi.

– Seni qara-yu, – Eshakni mazaxladi Uloqcha. – Egizak suvaraklardan qo‘rqib yuribsanmi hali? Yaqinda men ularni tutvolib shunaqayam po‘stagini qoqdimki, oxiri kaltakka chidamasdan: „Jon aka, bizni qo‘yvoring. Yana sizga pashshalashadigan bo‘lsak, mayli, suyagimizni it g‘ajisin”, deb, rosa oh-voh qilishdi. Qarasam, ko‘zlar mo‘ltillab, ho‘ng-ho‘ng yig‘lab turishibdi. Rahmim kelib, ikkalasiniyam qo‘yordim. O‘sha Ashqal bilan Dash-qaling meni duo qilib, tuyoqlarimni yalashdi.

Bilimdonning ko‘zlar qinidan chiqqudek bo‘lib olaydi:

– Yopiray! Rostini aytsam, bu gapga eshak ham ishonmagay, hukmdorim.

– Ho‘, o‘qimagan! – birdan uni jerkib berdi Uloqcha. – Sen menga yordamchimisan, yo dushmanmisan?

– Yordamchiman! – o‘rnidan sakrab turib, qomatini g‘ozladi Eshak.

Uloqcha ham asta o‘rnidan turdi va Eshakka nigohini nayzadek qadab, ogohlantirdi:

– Yordamchi bo‘lsang, vazifangni halol bajargin! Boshliqning gapini yolg‘on deydigan yordamchi ishdan haydaladi. Tushundingmi?

– Tushunganda qandoq! Nima, kallam oshqovoqmidi?

Uloqcha Eshakka burnini bir jiyirib qo‘yib, yonga o‘grildi va oraliqdagi masofani o‘zicha chamalamoqchidek, ko‘zlarini xiyol qisgan kuyi, Olatog‘ tomonga uzoq tikilib qoldi.

– Gap shu! – dedi u tog‘ tomondan ko‘zini uzmay. – Kelasi hafta sayohatga jo‘naymiz. Bu dunyo o‘tkinchi, o‘lar jonga ko‘proq shataloq otib qolish kerak.

Hech nimani bilmagandek, beparvo kurmak chaynayotgan Qo‘zichoq, oqsoqolning oxirgi gapini eshitib, „to‘g‘ri“ deb qo‘ydi o‘zicha.

## OLATOQQA SAYOHAT

Quyonning biron-bir jonivorga xuruj qilganini hali hech kim ko‘rmagan. Hatto, Olatog‘da o‘rma-lagan jon borki, ularning barcha ikir-chikirlaridan xabardor bo‘lgan durbinko‘z Ukki ham bunday voqeani eslay olmaydi. Biroq, Quyonning payiga tushganlar shunchalik ko‘pki, ularni sanab chiqish uchun qo‘l va oyoqlarimizdagи barmoqlar ozlik qiladi: bo‘ri, tulki, qoplon, burgut, silovsin, lochin,

qashqir... Bular yetmaganidek, bir qarashda og‘ziga kattaroq qo‘ng‘iz sig‘maydigandek ko‘rinuvchi bo‘g‘ma ilonlar ham quyon go‘shti kalamushnikidan totliroq ekanini farqlay bilishadi.

Ota-onasining uyidan ko‘chib ketishga majbur bo‘lib, bor-yo‘g‘i yarim yildan buyon mustaqil hayot kechirishga o‘tgan Dingirvoy boshqa quyonlar kabi har kuni u yoki bu raqibining ta’qibiga uchrar edi. Bunday paytlarda sportning uzoq masofaga yugurish turi bilan murg‘aklikdanoq muntazam shug‘ullanib kelgani asqotib qolardi.

Ertalab nayzatirnoq bo‘rilar changalidan zo‘rg‘a qochib qutulgan kulrang Quyonning yuragidagi titroq bosilib ulgurmasidan, u yashirinib yotgan inning ustida pala-partish qadam tovushlari eshitildi. U „tapira-tupir“ larga cho‘chib-cho‘chib qulqoq solib turgach, tepadan o‘tayotganlar qandaydir notanish hayvonlar ekanini sezib, hayrati oshdi.

Qadam tovushlari uzoqlashganidan so‘ng, Quyon qorong‘i inidan astagina chiqib, quyoshdan yoshlangan ko‘zlarini bir-ikki ishqalab qo‘ydi-da, diqqat bilan tevarakka alanglatdi. Butalar ortida shubha tug‘diradigan hech qanday sharpa sezilmadi. U, yuragi po‘killaganicha, begona hayvonlarning izidan biqinib borarkan, ko‘p o‘tmay, nordon sho‘ralarni kirtillatib chaynayotgan Eshakni uchratdi. Eshakdan nariroqda esa jikkak bir Uloq bo‘ynidagi qo‘ng‘iroqchasi ni jingillatgan asno toshdan-toshga sakrab o‘ynar, chamasi, bu uning eng sevimli mashg‘uloti edi.

„Nazаримда, ҳавонлар ко‘проққа о‘хшаб түулганиди, – деб о‘йлади Қуён. – Қолғанлари қаюоқда бо‘лсайкин?“

Қуён атрофга жаланг-жуланг боқаятганда, То‘қмоқтosh деб аталувчи каттақон қоя ортидаги майдон томонда қандайдыр ҳавонning куялайотгани қулоққа чалинди.

*Chiroylidir sahrolar,  
Sahrolarda o‘rkach bor.  
Chiroylidir daryolar,  
Daryolarda o‘rkach bor.  
Chiroylimish tog‘lar ham,  
O‘rkachlarin ko‘raylik.  
Ammo mening o‘rkachim  
Hammaidan chiroylik.*

*Bo‘-bo‘-bo‘, bo‘-bo‘-bo‘,  
Bo‘-bo‘, bo‘-bo‘, bo‘-bo‘-bo‘...*

Қуён о‘ша юққа қараб ўрди. То‘қмоқтoshни айланаб о‘тib, то‘q қоринга ashula аytib yурган Bo‘taloqqa дуч кeldi. Tuyalar yirtqichlarning toifasiga kirmasligini bilsa-da, har ehtimolga qarshi o‘zini panaga oldi. Bo‘taloq uni ko‘rmasдан, yaqinidan o‘tib ketdi va qoyaning salqinida hordiq chiqarib yotgan Ho‘kiz bilan Qo‘zichoqqa yaqinlashdi.

– Tfу! Shuyam sayohat bo‘ldimi? – sheriklari-ning yoniga cho‘k tushib, g‘udrandi u. – Uyoq-bu-

yoqqa qarasang, hammayoq go'zal! Qadam bosa-man desang, hammayoq tikon!

Qo'zichoq toshlarga qoqinaverib shilinib ketgan tuyoqlariga yig'lamsirab boqarkan, „To'g'ri!“ – deb ming'irladi.

Podadagi eng qari hayvon, hayotda eng ko'p qiyinchilik ko'rgan Ho'kiz og'a o'tkir til boshga balo keltirishini o'zgalardan tuzukroq tushunardi. Shu bois, Bo'taloqning haqligini bila turib, uni sabr-toqatli bo'lishga, murosasozlikka undadi:

– Tilingni kaltaroq qilsang, yaxshi bo'lardi, Bo'taloqjon. Yuqoridan jo'natilgan xo'jayinlarni tanqid qilaverishning xosiyati yo'q.

– To'g'ri! – deya Ho'kiz og'aning gapini ma'-quilladi Qo'zichoq.

Bo'taloq baribir tajanglanishini qo'ymadni:

– O'sha echkivachchani sizga o'xshaganlar had-didan oshiradi, Ho'kiz og'a! O'zimga qolsa-ku, uni betiga bir tupurib...

Bo'taloq so'zini oxiriga yetkizolmadi. Sho'ra kavshayverib, lablari ko'karib ketgan Eshak qoya ortidan chiqib keliboq, unga o'shqirdi:

– Ho', bukri! Bu qanaqa majlisbozlik? Gapirishni senga kim qo'yibdi... biz turganda?

– Kim bo'pketibsan? – og'zidan tuprik sachratib bobilladi Bo'taloq. – Bilvol, yuzta amaling bo'l-gandayam, baribir eshaksan!

– I! I! I! – o'zini Bo'taloqning fahmsizligidan hayron bo'lganga soldi Eshak. – Menga bo'yin cho'zishga qanday hadding sig'di, amali yo'q?

Ortiqcha g‘alvani yoqtirmaydigan, har qanday janjalning oldini olishga urinadigan Ho‘kiz og‘a bugal ham Eshakni chalg‘itishga tirishdi:

— Hoy, Bilimdon! Iltimos qilaman, menga bir narsani tushuntirib qo‘ygin. Bu sayohatdan maqsad nima o‘zi?

Bu gapdan so‘ng Eshakning tuyqus dimog‘i ko‘tarilib, donishmandlardek havolanib suzildi.

— Mayli, Ho‘kiz og‘a, aqlingiz yetadigan qilib, buni sizga soddagina tushuntirib bergaymiz, — dedi u. — Bu dunyo o‘tkinchidur. Sayohatdan maqsad — o‘ladigan jonga bir shataloq otib qolish. Buni to‘rayzim deydilar!

Hanuz panada turgan Quyon, bu gapni eshitib, o‘zini kulgidan tiyolmadi, buta ortidan irg‘ishlab-irg‘ishlab qiqirlaganicha chiqib kelib, Eshakka tanbeh berdi:

— Xi-xi-xi, xi-xi-xi... „To‘rayzim“ emas, „turizm“... Turizm! Xi-xi-xi...

Hamma tengdan Quyon tomonga o‘grildi. Quyon qorin quchib kulishda davom etardi. Xudo dumdan qisgan bir chalamaxluqqa ermak bo‘layotgani Eshakka alam qildi.

— Yo‘qol ko‘zimdan! — deya Quyonga ko‘zini olaytdi u. — Bir tepsam, Amerikaga borib tushgaysan!

Quyon jikillab iljaydi:

— Hay-hay-hay, ikkalamiz janjallashsak uyat bo‘ladi-ya, qarindosh. Qara, sen ham shal pangqulqosan, men ham. Xi-xi-xi...

Atrofdagi hayvonlarning birdan kulib yuborish-guni Eshakni battardan achchigʻlantirdi.

Kim bilan gaplashayotganining bilasanmi, xarip? Yaylov oqsoqolining yordamchisidurman! Qoʻlimda oʻzimga yarasha huquqlarim bor! Esing boʻlsa, boshingga ofat yogʻilmasidan joʼnab qolgaysan. Uqdingmi, gʻilay?

– Birinchidan, meni otim „gʻilay“mas, Dingirvoy, – doʻqlarga parvo qilmay, xotirjam soʻz qotdi Quyon. – Ikkinchidan, meni haydasang, oʻzingga yomon boʼladi. Men sizlarga yaxshilik qilmoqchi boʼlib keldim.

Eshak: „Qarang-ga, qarang-ga, shu jinqarcha bizga yaxshilik qilarmish“, deya kulishni boshlagan edi, Hoʼkiz ogʼa: „Mayli, gapini eshitaylik-chi“, deb, Quyonga savol nazari bilan koʼz qadadi. Quyon shu atrofda egizak boʼrilar izgʻib yurishgani, ertalab ularning panjasidan zoʼrgʼa qochib qutulgani haqidagi gapirib, podadagilarni xavf-xatardan ogohlantrib qoʼymoqchi ekanligini aytdi. Shunda Eshak: „Egizak deganlaring Ashqal-Dashqallar boʼlmasin tagʼin?“ – deb soʼragan edi, Quyon: „Bilarkansan-ku, xuddi oʼshalar!“ – deya tasdiqladi.

– He atta-a-ng, – bosh chayqab, afsuslandi Hoʼkiz ogʼa. – Hozir Olapar yonimizda boʼlganida, boʼrilardan bunaqa qoʼrqib oʼtirmagan boʼlardik.

– Kim u Olapar deganingiz? – nahotki xonaki hayvonlar ichida ham boʼridan zoʼrrogʼi boʼlsa, degandek taajjublanib savol berdi Quyon.

Ho‘kiz og‘a Olaparning Chimtepa deb atalmish qishloqdagi eng aqlli, eng dovyurak it ekanligini, boshqa ovullardagi ko‘ppaklar uning ovozini uzoqdan eshitgandayoq, qo‘rqqanlaridan og‘zidagi suyakni apil-tapil tuproqqa yashira boshlashlarini ta’riflab kelib, yaylovda oqsoqol paydo bo‘lganidan keyin u ta’qibga uchraganini, hammadan arazlab qolganini afsus bilan ma’lum qildi.

Shu mahal qo‘ng‘iroqning „jingir-jingir“i eshitildi. Toshdan-toshga sakrayverib terga botib ketgan Uloqcha qoyaning yonidan dikillab chiqib keldi, podadagilarning nimadandir bezillab turishganini payqab, Eshakka yuzlandi:

- Nima gap, Bilimdon?
- Ashqal-Dashqallar shu atrofda izg‘ib yurishgan mish, hukmdorim.

- Kim aytdi?
- Anavi g‘ilaydan eshitdik.

Uloqcha mensimagan qiyofada Quyonga boshdan-oyoq nazar solib chiqdi.

- Shu ig‘vogarga ishondilaringmi? – deb o‘pkalandi u. – Karam o‘g‘risi-ku bu!

- O‘zing karam o‘g‘risi! – tilini chiqarib, Uloqchani masxaraladi Quyon. – Hovliqma! Agar bo‘rilar kepqolsa, birinchi bo‘lib o‘zing poyga qo‘ysan.

- Men-a? – tuyog‘ini ko‘ksiga tirab g‘o‘daydi Uloqcha. – Bir bog‘ xashakdan garov o‘ynashim mumkinki, Ashqal-Dashqallaring meni ko‘rdi de-

guncha, sichqonning uyini ijaraga olishadi. Yaqinda ularni tutvolib, shunaqayam savalaganmanki...

– Savash ham gapmi, – deya laganbardorlik bilan ilova qildi Eshak, – dabdalasini chiqarganman desangiz-chi, hukmdorim.

– Keyin ko‘zlaridan bir hovuz yosh to‘kishib, sizga boshqa ilashmaymiz deb qasam ichishdi, – loflashda davom etdi Uloqcha.

– Tuyog‘ingizni yalashganini gapirmadingiz-ku, hukmdorim, – deb yaltog‘landi Eshak. – Kamtarilik qilmagaysiz endi.

Uloqcha bu gapni joyida ilib ketdi:

– Ha, tuyoqlarimni „chilip-chilip, chilip-chilip, chilip-chilip“ qilib yalashayotganda, birdan ko‘nglim bo‘shashdi. Rahmim kelib, ularni qo‘yordim.

– Qo‘yvorib chakki qilganakansiz, hukmdorim, – tilyog‘lamalikni avj oldirdi Eshak. – Mana, ular yana bezorilik qilib yurishgan mish.

– Sen haqsan, – dedi Uloqcha. – Endi ushlavolsam, tomoqlaridan atalayam o‘tmaydigan qip tashlayman!

Uloqchaning so‘zlarini eshitib, Quyon qotib-qotib kului.

– Voy maqtanchog‘-ey, voy chiranchog‘-ey! – deya xandon otdi u. – Umrim bino bo‘lib, sendaqa opqochadiganni birinchi ko‘rishim. Xi-xi-xi, xi-xi-xi...

Tag‘in birpas qo‘yib bersa, bu Quyon obro‘yini ikki pul qilishidan cho‘chigan Uloqcha Eshakka o‘girilib, o‘graydi:

– Ho‘, Bilimdon! Menga yordamchimisan, dushmanmisan?

– Yordamchiman, hukmdorim!

– Unda nimaga anqayib turibsan, o‘qimagan? Ko‘rmayapsanmi, qandaydir og‘zi bor narsa boshlig‘ingni ayamay mazax qilyapti.

Eshak: „Xato bizdan o‘tdi va uni tuzatgaymiz“, dedi-yu, odatdagidek ko‘zini g‘ildiratib, Quyonga yaqinroq bordi:

– Yaylov oqsoqoli mayna bo‘ptimi senga! Bilsanmi, hozir seni nimalar qilgayman?

Eshak raqibiga qo‘qqisidan ketini o‘girib, jonjahdi bilan shattalashga tushganida, Quyon tepkilarga zo‘rg‘a chap berib, o‘zini butalarning orasi-ga urdi. Keyin nariroqdagи burganlar ortidan bo‘y ko‘rsatib: „Kallavaramlar! Yaxshilikni bilmasalaring, o‘zlaridan ko‘ringlar!“ – deb qichqirdi-yu, zumda ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

## ASHQAL BILAN DASHQAL

Egizak bo‘rilar ochlikdan sulayganlarida ham, to‘qlikdan g‘o‘dayganlarida ham ko‘hna Toshqo‘rg‘on darvozasi yonida yotishga odatlanishgandi. Ular hozir ham shu yerdagi maymanchaklar soyasiga cho‘zilishib, o‘likday uxbab yotishardi.

Ashqalning tushida zaharli ilonlar uni to‘rt tomondan o‘rab kelaverdi. Qochib qutulishning iloji yo‘q edi. Joni shirinlik qilib: „Aylanib ketay, oshnajonlar, o‘rgilib ketay, oshnajonlar, istas-

alaring, sizlarga ka-a-tta to‘ng‘izni ushlab beray. Meni o‘ldirmanglar“, deb yalinishga tushdi. Ilonlar yo uning tiliga tushunishmadi, yo bo‘lmasa, nasiyadan naqdini ma’qul ko‘rishdi-yu, birin-ketin ustiga sapchishdi...

Ashqal g‘ingshib tipirchilaganicha, seskanib uyg‘ondi.

– Padariga la’nat bunaqa hayotning! – kayfiyat-sizlanib g‘udrandi u. – Na o‘ngingda halovat bor, na tushingda.

Ochlikdan puchmoqlashgan qornini osmonga qilib uxlayotgan Dashqalning „xir-r, xir-r“ nafas olayotgani Ashqalning battardan g‘ashini keltirdi, „E, tur-e!“ deb, ukasining biqiniga tepdi. Dashqal shaytonlagudek bo‘lib ko‘zini ochdi.

– Indamasa, yotaverarkansan-da! – do‘q urdi Ashqal. – Bor, sichqon-pichqon bo‘lsayam ushlab kel!

Akasining haddan ziyod qonsirab turgani ni sezgan Dashqal tezda qaddini ko‘tarib, gapni ko‘paytirmasdan, asta joyidan siljidi. „Ortiqcha jig‘iga tegsang, bunaqa vaqtida ukam deb o‘tirmay, o‘zimniyam yeb qo‘yadi bu maraz“, deb o‘yladi u. So‘ng, yo‘l-yo‘lakay kavak-kandiklarni iskagan kuyi sichqon oviga jo‘nadi.

Kelib-kelib, tug‘ilgan kunida och yotish Ashqalga juda og‘ir botayotgan edi. Eng yomoni shuki, birorta nafsing qurg‘ur uni tabriklagani kepqolsa, nima bo‘ladi? Mehmonning oldiga chumolini qo‘yadimi?

„Hech bo‘lmasa, ertalabki Quyonni tutganim-dayam, xumorbostiga yarab qolardi, – so‘lak yutib o‘yladi u. – Hamma ayb Dashqalda. Shu befarosat aralashgan ish borki, chappasiga ketadi“.

Changalzorda ivirsib yurgan Quyonni ko‘rgan zahotiyoy, uning ini o‘sha atrofda ekanini Ash-qal darhol fahmlab yetgandi. Shuni e’tiborga olib, o‘ljaning To‘qmoqtosh yonidagi yalanglikka chiqishini kutish kerak, degan qarorga keldi. Yalanglikning ikki tomoni baland qoyalardan iborat bo‘lib, Quyonni bu yerda osongina iskanjaga olish mumkin edi. Dashqalning esa kutishga sabri chidamadi, „Gap ayiq-payiqni bo‘g‘izlash haqida ketayotgan bo‘lsa, boshqa masala. Xashaki Quyonni ushslashgayam kallani ishlatib o‘tiramizmi“, dedi-yu, nafsi hakillab, oldinga tashlandi. Natijada, to‘lpoqqina Quyonni qo‘ldan chiqarishdi.

Ashqal uzoqni o‘ylab ish qiladigan tullak bo‘rlardan edi. Dashqal bo‘lsa, burnidan narini ko‘rmasdi, akasining „Ertaga qilinadigan bayram uchun bugungi mayda maishatdan kechish kerak“, degan falsafasini sariq chaqagayam olmasdi. Uning o‘z shiori bor edi: „Ko‘rdingmi – quvla, tutdingmi – g‘aji!“

Ashqalbo‘ri laqma va pandavaqi jonivorlardan qanchasini tuzog‘iga osongina aldab ilintirgani, uning hiyla-nayranglari ko‘pgina bo‘rilar uchun darslik bo‘lib qolgani haqida o‘ylab, o‘zining ustamoni ligidan faxrlanib yotarkan, Shirmonqirda yuz bergen bir voqeа tuyqus yodiga tushdi.

Navro‘z kirib, maysalar endigina shira yig‘a boshlagan chog‘lar edi. Egizak bo‘rilar Shirmon-qir yaylovida o‘tblab yurgan podadan is olib, o‘sha intorfda kechgacha izg‘ishdi. Qo‘y-echkilarning tevuragida bo‘ribosar itlar akillab yurgani bois, podaga yaqinroq borishga yuraklari dov bermadi.

Oxiri, bu yerdan biron naf chiqishiga ko‘zi yetmagan egizaklar loaqal yumron yoki bo‘rsiqni „tuxumyutdi“ qilib olish maqsadida jarning yoqasiga kelishdi-yu, pastdagи buloqda ketvorgan bir Uloqchaning suv ichib turganini ko‘rib, quvonchdan tilлari osildi.

– Manavini omad desa bo‘ladi, – deya ketini likillatdi Dashqal. – Qani, bosdik echkibolani!

Ashqalning ko‘pdan beri miyasida pishitib yurgan bir rejasи bor edi. Bu rejasи amalga oshgan taqdirda, u hali biron-bir bo‘ri galasiga nasib etmagan katta go‘shtxo‘rlik bazmini uyushtirgan, ayni paytda, aql-u farosati beqiyosligini barchaga ko‘z-ko‘zlab, manaman degan yirtqichlarniyam angraytirib qo‘ygan bo‘lardi. Itlarning ko‘zini shamg‘alat qilib, podadan ajralib chiqishga jur’at topgan o‘zboshimcha Uloqning o‘ta qaysar va takabburligi bir qarashdayoq ko‘zga yaqqol tashlanib turar, Ashqal o‘ylab qo‘ygan razil ishni aynan shunga o‘xshagan tarbiyasiz maxluqlargina amalga oshira olardi.

Akasi yana qandaydir chalkash ish boshlamoqchi ekanini eshitib, Dashqalning yuragi siqildi.

— Bu ishni boshqa safar qilarmiz, — Uloqdan ko‘z uzmay yalanar ekan, panjasini siltadi u. — Hozir bu-naqa narsani gapirmay turgin, judayam ochman.

U, haddan ziyod ochligini isbotlamoqchidek oldiga kelib qo‘ngan chigirtkani bir urishda chalajon holatga keltirdi-da, yamlamasdan yutdi.

Ammo, Ashqal o‘z so‘zida qattiq turib oldi Oxiri ukasini yon berishga majbur qilgach, ikkalaasi maslahatni bir joyga qo‘yib, sekingina pastga tushib bordilar.

Bo‘rilarni ko‘rib, avvaliga Uloqchaning yuzi bo‘zarib ketdi. Egizaklar muloyim jilmayib turib, quyuq salom berishganidan keyin ham uning oyog‘idagi qaltirog‘i bosilmadi. Bo‘rilar yuksak madaniyat bilan bo‘yin cho‘zishib, o‘zlarini tanish-tirishdi.

— Kaminani janob Ashqal deydilar.

— Janob Dashqalni ko‘rib turibsiz. Xex-xex-xe...

Uloqcha qaltirayotgan tuyog‘ini ularning panjasiga bir-bir bosib: „Me... men... Uloqman“, dedi.

— O‘-o‘, Uloqvoy deganlari sizmisiz? — hayratmuz tikildi Ashqal. — Ta’rifingizni biz ko‘-o‘-peshitganmiz.

— Mana, nihoyat o‘zingizniyam ko‘rdik, — deb so‘z qistirdi Dashqal.

Bu maqtovlardan so‘ng Uloqchaning ko‘zidagi sarosima birdan g‘oyib bo‘lib, burni o‘z-o‘zidan yuqoriga ko‘tarildi.

— Qarab turi-i-b, sizga nihoyatda havasim kel-

yapti, Uloqvoy, – deya xushomadni ko‘pirtirdi Ashqal. – Ko‘zingizdan aql yog‘ilyapti-ya, aql!

– Qomatiga qarab, ko‘zim kuyib ketyapti, – dedi Dashqal. – Pahlavonlikni qarang, pahlavonlikni!

Uloqcha o‘zini iymangandek ko‘rsatishga urindi:

– Yo‘g‘-e... Jindaygina oshirib maqtayapsizlar...

– Kamtarinlik qilmasinlar, – nihoyat ishqov bershga tutindi Ashqal. – Kamtarinlik boshga bitgan halo. O‘rningizda boshqa uloq bo‘lganida, shuncha kuch, shuncha es bilan podaning changiga belanib yurmagan bo‘lardi.

Dashqal afsuslangan bo‘ldi:

– Sizdek donolar changga belanib yuribdi-yu, qandaydir kallavaram Serka podaga oqsoqollik qilyapti. Chunki, uning bo‘ynida kumush qo‘ng‘irog‘i bor.

– U muttahamdan qo‘ng‘iroqni olish kerak, Uloqvoy, – shartta asosiy masalaga o‘tdi Ashqal.

Amalparast Uloqcha vahshiylarning orasida turganini tugal unutib, „Berib bo‘pti!“ deya alamzadlik bilan labini burishtirdi.

– Siz haqsiz, Echkibola, – dedi Dashqal. – Yaxshilikcha bermaydi u.

Ashqal darhol yo‘riq ko‘rsatdi:

– Yaxshilikcha bermadimi, qo‘ng‘iroqni shippa o‘g‘irlash lozim, Uloqvoy.

Uloqcha qo‘ng‘iroqni o‘g‘irlashdan foyda yo‘qligi, „Babachoq“ fermasidagi savodsiz va laqma hayvonlar uning zo‘rligini baribir tan olmay turvophilishlarini, oqibatda Nayzashoxning qahriga uch-

rab, ma'rash huquqidan bir umrga mahrum bo'lishi mumkinligini aytgan edi, Ashqal unga yo'l ko'rsatishga tushdi:

– Qo'ng'iroqni o'g'irlabooq, fermadan qochasiz, to'g'ri kunchiqarga qarab yurasiz. Yo'lda Chimtepa degan qishloqning yaylovi uchraydi. Qo'ng'i-roqni pesh qilib, yaylovdagi hayvonlarga oqsoqol bo'lvolasiz.

– Keyin madaniyatli boshliq ekanligingizni ko'rsatib qo'yish uchun Olatoqqa turistik sayohat yushtirasiz. Buni turizm deydilar.

– Zarur bo'pqolsa, polvonligingiz haqida mish-mish tarqatib, „men borakanman, Ashqal-Dashqal degan bo'rilardan xavotir olmanglar“, deb ko'ngil-larini tinchiting. Ularni moldek savalaganman de-sangiz ham mayli, Uloqvoy.

Nodon Uloqcha haqiqatan ham shu ishni qilgan-dek havolanib turib: „Aytganim bilan, qishloqilar bu gapimga ishonisharmikin“, deya hadiksiragan edi, Ashqal: „Unaqa bo'lsa, zo'rлиgingizni amalda ko'rsatib qo'yaqolasiz-da“, deb dalda berdi.

– Mana, bir-birimizga yoqib qolib, do'st bo'lvoidik, – dedi u. – Endi sizning hamma cho'chib turadigan oqsoqol bo'lishingizga yordam bermasak uyat-da.

– Toqqa borganlaringda, biz tasodifan duch kel-gandek bo'lamiz, do'q uramiz, yemoqchi bo'lamiz, – deya irshaydi Dashqal. – Shunda siz bizni to'satdan do'pposlashni boshlaysiz. Qarabsizki, olam sizga qoyil bo'pturibdi-da! Xex-xex-xe...

Shundan so‘ng Ashqal Chimtepa etagidagi so‘q-moq to‘g‘ri Olatoqqa olib borishligi, tog‘ning bosh-lanishidagi To‘qmoqtoshdan tushlikka qarab yurilsa, Toshqo‘rg‘on degan eski qal‘a uchrashligi, bo‘rilar yolg‘ondakamdan kaltak yekish uchun ularni o‘scha yerda kutib olishligini uqtirishga kirishdi...

Ashqal hozir shular haqda xayol surib yotarkan, agar rejasি amalga oshmay qolsa, maynavoz Dash-qalga bir umr masxara bo‘lib yurishini o‘ylab, ichida ijirg‘anib qo‘ydi. Buni boshqalar ham eshitgudek bo‘lsa, battardan izza bo‘ladi.

Shu mahal so‘qmoq tarafdan toshchalarning shildiragani quloqqa chalindi. Ashqal zog‘lanib boshini ko‘tardi va nimadandir yashirinayotgan-dek, ortiga o‘grila-o‘grila, Toshqo‘rg‘onga yaqinlashayotgan Dashqalni ko‘rdi. U biqinganicha akasining yoniga kelib, uni xushchaqchaq kayfiyatda turtkiladi:

– Farosatingga ofarin, Ashqal! Aqlingga besh ketdim!

– Hovliqmasdan gapir-e! – ukasiga ko‘z chaqnatdi, ochlikdan zardasi qaynab turgan Ashqal. – Bir-ikkita qo‘ng‘iz yedingmi deyman?

– Echkibolani ko‘rdim, – Dashqal suyuqlanib, akasining bo‘ynidan quchdi. – Xuddi aytganingdek bo‘ldi-ya! Olim bo‘pket-e!

Ashqal bu safar ukasini turtkilamay, ko‘ziga umidvor tikildi:

– Aldamayapsanmi? Naq dumingni yulvolaman-a!

– Aldayotgan bo‘lsam, burnimga puchak chiqsin! – qasam ichdi Dashqal. – O‘sha o‘zimizning laqma Echkibola kelyapti. Ketida sheriklariyam bor.

– Sheriklariyam bor? – og‘zi qulog‘iga yetgudek suyunib so‘radi Ashqal. – Qani, birvoshdan sanavor-chi.

Dashqal tamshana-tamshana, xuddi she’r o‘qiyotgandek ohangdor qilib sanashga tushdi:

– Eng oldinda kelyapti Echkibola likonglab.  
– Oh, oh, oh! – tumshug‘ini yuqori ko‘tarib, mayingina uvladi Ashqal.

– Echkimizning ketida – go‘laygan bir Eshakvoy.  
– Tfu! – hafsalasi pir bo‘lib, chetga tufladi Ashqal. – Qayoqdan qo‘shilibdi u sassiq?

Dashqal bunga parvo qilmay, sanashda davom etdi: „Eshakvoyning ketida – lorsillagan Ho‘kizjon“. Ashqalning qaytadan bahri ochildi:

– Vay, vay, vay!  
– Ho‘kizjonning ketida – to‘lpoqqina Bo‘taloq.  
– Hay, hay, hay!  
– Bo‘taloqning ketida – barragina Qo‘zichoq.  
– Voy joningdan-ey! – deb gijingladi Ashqal. – G‘ajib-g‘ajib qo‘ysang!

„Xayriyat, qovoqbosh Dashqalning oldida yuzim shuvit bo‘lmadi, – deya sevinib o‘yladi Ashqal. – Mana endi dovrug‘im butun bir Olatoqqa yoyiladigan bo‘ldi. Bunday ishbilgichlikni eshitganda, hatto ayyor tulkilarning ham og‘zi lang ochilib qolishi turgan gap”.

Dashqal ilondek sudralib borib, qiyalikdagi xarning ortida biqinib turganicha, dara tarafga mo‘raladi.

Ular to‘g‘ri qo‘rg‘onimizga kelishyapti, – aka-siga o‘girilib, mammun tirjaydi u. – Echkibola bizni rostdanam do‘pposlamoqchi shekilli? Xex-xex-xe...

Ashqal ham askiyaga qo‘schildi:

- Biqinni ehtiyyot qil, biqinni! Vax-xax-xa...

Egizaklar ko‘hna Toshqo‘rg‘onning darvozasini kattaroq ochib qo‘yishib, o‘zлari maymanchakning ortiga berkinishdi. Picha vaqt o‘tgach, so‘qmoq tomonda yana toshchalarining shildiragani eshitildi.

## TUZOQ

Dashqal ilgarilari akasi haqida yaxshi fikrda emas edi. Uni o‘zicha „Xudo qarg‘agan xayolparast“ deb atardi. Bugungi voqeadan keyin esa akasining o‘nta bo‘ri to‘dasiga ham boshchilik qilsa arziydigan donishmandligini anglab yetdi. Ammo, shu damgacha uni har qadamda ermak qilib kelganidan xijolat ham tortmadi, kechirim ham so‘ramadi.

So‘qmoqdagi toshchalarining „shildir-shildir“i kuchayib, qiyalikdagi harsang yonida Uloqcha boshchiligidagi poda paydo bo‘ldi. Oqsoqolning ortidagi Eshak boshqa hayvonlarni ergashtirgan asno quvnoq bir ashulani maroq bilan kuylab kela-yotgandi.

*Qari Eshshak toqqa ketdi,  
Quyosh chiqqan yoqqa ketdi,  
Hang, hang!  
Hang, hang!*

*Mag ‘rur tutib borar boshni,  
Ushlab kelay deb quyoshni,  
Hang, hang!  
Hang, hang!*

*Borgan chog ‘i Olaytoqqa,  
Quyosh qochdi bo ‘lak yoqqa,  
Hang, hang!  
Hang, hang!  
Eshshak sho ‘rlik quruq qaytdi...  
Tanishlarga salom aytdi:  
„Hang!“*

Eshak Toshqo‘rg‘on darvozasi yaqinida qo‘shiqni tugatib, oqsoqolga qo‘shilib taqqa to‘xtdi. Podadagilar eski qal’ani qiziqib tomosha qila boshladilar.

– Siz ko‘rib turgan bu qo‘rg‘on bundan yuzlab yil ilgari qurilgan, – deya sheriklariga tushuntirishga kirishdi Uloqcha. – U zamonlarda hozirgidek shinam molxonalar bo‘lmagan. Sizlarga o‘xshagan oddiy hayvonlarni shunaqa tomi yo‘q binolarga qamab, qordayam, yomg‘irdayam g‘ing demay yashashga majbur qilishardi.

– Qoloqlikni qarang-ga! – deb hangradi Eshak.

Ota-bobolarimiz qanday og‘ir kun kechirganim ichkariga kirganda yanayam aniq tasavvur qilamiz, – deb ma’ruzasini tugatdi Uloqcha.

Ko‘ngli nimadandir bezillay boshlagan Ho‘kiz og‘a oyog‘ini yerga mahkam tirab turib, oqsoqolga murojaat qildi:

Menga qaragin, uka, bunaqa joyni tashqaridun tomosha qilib qo‘yaverganimiz yaxshimi deymunda. Balki, Ashqal-Dashqallar ichkarida poylib yotishgandir.

To‘g‘ri! – dedi Qo‘zichoq.

Bu qo‘rg‘on mengayam bo‘rilarning tuzog‘iga o‘xshab ko‘rinyapti, – deb tixirlandi Bo‘taloq.

Uloqcha yana chiranishni boshladi:

Qo‘rqmanglar degandim-ku sizlarga. O‘sha Inqirt egizaklar meni ko‘rdi deguncha, toshbaqani kira qilib qochishadi.

To‘g‘ri! – bu gapni ham ma’qulladi Qo‘zichoq.

Uloqcha g‘olibona qiyofada Eshakka yuzlandi:

– Bilimdon! Podani qo‘rg‘onga boshla!

– Xo‘p bo‘ladi, hukmdorim, – qaddini rostladi Eshak. So‘ng, podaga qarab, tantanavor hangradi. – Safla-a-n! Mening orqamda-a-n hangu-u hang!

Poda o‘z qal’asiga qaytayotgan lashkardek qatorlashib, ichkariga kirib ketdi. Kirib, qo‘rg‘on o‘rtasida to‘xtalishdi va ustki qismining uyer-buyeri nuraqan tosh devorlarni, qor-yomg‘irlardan chirib ketgan yog‘ochlar qoldig‘ini ko‘zdan kechirgan bo‘lishdi. Egizak bo‘rilar darvoza yonida ularni tirjaygan hol-

da picha kuzatib turishgach, Ashqal birdan qahqah urib kulishga tushdi:

– Sayohatga chiqibsizlar-da, a, kallavaramlar?

Vax-xax-xa...

– Endi biryo‘la narigi dunyoga sayil qilasizlar.

Xex-xex-xe...

Ashqalning qahqahasini eshitiboq, baravariga shattalab ortga o‘grilgan hayvonlar, dong qotgan holda joylarida turib qolishdi. Uloqcha ham avvaliga beixtiyor qo‘rqib ketdi-yu, keyin bu bo‘rilarning Shirmonqirda bergen va’dalari yodiga tushib, tezda o‘zini o‘ngladi.

– Meni tanimayapsizlar shekilli? – deya gerdayib dag‘dag‘a qildi u. – Po‘staklaringni qoqqanim darrov eslaringdan chiqibdi-da?

Dashqal ahmoqlarni kalaka qilish-u, o‘zidan ojizlarni mazaxlashni juda yoqtirardi. Qulay fursat kelganida, yana xumorini yozib olishga tirishib, yolg‘ondakamdan shumshaydi:

– Iye, bu pahlavon Echkibola-ku! Tanimaganimizni qarang!

– Ha, kallam qursin, – peshanasiga shapillatib urib, go‘yo qo‘rqayotgandek, orqaga tisarildi Ashqal. – Men ham tanimabman. Biz omilarni kechirasiz-da endi, Uloqvoy.

„Xayriyat, gapida turadigan bo‘rilar ekan, – deb o‘yladi Uloqcha. – Mana endi xomaki musht-mushti ni boshlaymiz“.

U o‘zini dadil tutib, Dashqalga o‘qraydi:

– Qo‘yvoring, akajon, deb elanganing esingdami?

– Esimda, Echkibola, esimda.

– Sen tuyog‘imni yalaganiding shekilli? – bu gal Ashqalga davara qildi Uloqcha.

– To‘g‘ri, Uloqvoy, rosayam yalaganman.

– Unda, nimaychun yana jig‘imga tegyapsanlar?

Hozir ikkalangniyam biqiningdan darcha ochaman!

Uloqcha „tashvishlanmanglar, qattiq suzmayman“, degan ma’noda bo‘rilarga yashirinchako‘z qisdi. So‘ng kalla qo‘ymoqchi bo‘lib oldingga sapchigan edi, Dashqal chaqqonlik bilan uning yelkasidan tishlab oldi-da, boshi ustida bir-ikki aylantirib turib, zarb bilan chetga uloqtirdi. Maqtanchoq oqsoqol havoda koptokdek uchib borib, gursillaganicha Ho‘kiz og‘aning oyoqlari ostiga tushdi.

– Tuyoq yalashni ko‘rsatib qo‘yamiz senga! – vahshiyona irilladi Dashqal. – He, itkana!

Ashqalning ham avzoyi yovuzlashdi:

– Anavi laqmalarни tuzog‘imizga yetaklab kelguningcha o‘z holingga qo‘yib berdik. Bizni istaganingcha haqorat qilding. Bundan keyin ortiqcha aljiramasliging uchun, seni boshqalardan oldinroq gumdon qilamiz.

Egizaklarning hazillashmayotganini sezgan Uloqcha katta xato qilib qo‘yganini angladi. Bo‘rilarga nafratli tikilib turgach, Ho‘kiz og‘aning pinjiga suqilib turib qichqirdi:

– Qonxo‘rlar! Yolg‘onchilar!

– Kim yolg‘onchi? – kinoyali tirjaydi Ashqal. – Biz bitta seni aldagan bo‘lsak, sen birvarakayiga to‘rttasini laqillatding-ku. Eng katta yolg‘onchi o‘zingsan.

Uloqcha o‘zining ham, boshqalarning ham o‘limi yaqin ekanligi va bu fojiaga uning esi pastligi, o‘zbilarmonligi sababchi bo‘layotganini payqab, yuragini vahima qopladi. Ho‘kiz og‘aga gunohkorona kepatada boqib, mungli ma’radi:

– Og‘ajonim! Bu o‘qimaganlar qadrdon do‘s<sup>t</sup> bo‘lamiz, deb boshimni aylantirishdi. O‘shanda meni yemasdan qo‘yib yuborishgani uchun, gaplari-ga ishongan edim.

Ho‘kiz og‘aning ichi to‘liqib, pishillab qo‘ydi.

– Eh, sodda Uloqcha! – kuyinib pishqirdi u. – Yirtqichlar xonakilarga do‘s<sup>t</sup> bo‘lishi mumkinmas. Axir, ular bizni tinch qo‘yishsa, o‘zлari ochlikdan o‘lib ketishmaydimi? Shuni vaqtida tushunganing-da, yaxshi bo‘lardi.

– Sen bu farosating bilan ko‘p ulug‘vor ishlar qilishing mumkin edi, – endi Ho‘kiz og‘ani mazaxlashga o‘tdi Dashqal. – Lekin, aqling bilan kuching-dan o‘rinli foydalana olmading. Chunki, qo‘rroq-san. Bo‘ysunuvchanliging seni shu tirmizak ech-kibolaga tobe qilib qo‘ydi. Natijada, anavi nimjon Qo‘zichoqdan hech qanaqa farqing qolmadi. Endi hammang bitta qozonda qaynaysan.

– Yo‘q, – dedi Ashqal. – Ho‘kizni ko‘pchilik bo‘-lib „qarg‘acho‘qish“ qilamiz. Zo‘r tomosha bo‘ladi.

Dashqal nechog‘li befahm bo‘lmasin, taqsim-lush vaqtida qancha kam tumshuq ishtirok etsa, o‘ljadan tegadigan ulush shuncha ko‘p bo‘lishini yaxshi bilardi. Akasining gapidan uning dili g‘ashlandi.

– Qanaqa ko‘pchilik? – dedi u achchig‘lanib. – Yangi g‘alvani boshlamay turgin.

Ilgari aytib o‘tganimizdek, Ashqal o‘zining dono va ustamonligini butun Olatoqqa ovoza qilishni istardi. Qolaversa, to‘daboshilikka bo‘ladigan say-lovlarda bu narsa asqotib qolishi hech gap emasdi. Bo‘rilar esa, shunaqa ovsar toifaki, o‘zlari yeb ko‘rmagan narsalar haqidagi quruq mishmishlarga sira ishonishmaydi.

– Nima, bugun tug‘ilgan kunimiz ekanligi esing-dan chiqdimi? – ochko‘z ukasini yo‘lga solish uchun qulay bahona izlab topdi Ashqal. – Oshnoga‘ynilarni to‘plab, kattakon bazm qilmaymizmi?

– Hm... shunaqa degin? – o‘ylanib bosh qashladi Dashqal. – Ha, mayli, bazm bo‘lsa, bazm-da...

Ular mo‘ltirab turgan xonaki hayvonlarga mas-xaraomuz tirjayishdi. So‘ng qo‘rg‘ondan chiqishib, yog‘och darvozani jipslab berkitishdi-da, orqasiga katta-katta toshlarni tirab qo‘yishdi.

– Sen borib, obro‘li-obro‘li bo‘rilarni ziyofatga aytib kel, – deya ukasiga tayinladi Ashqal. – Men bularga ko‘z-qulqoq bo‘pturaman. Eng oldin to‘da boshlig‘iga uchrash. Kechqurun Toshqo‘rg‘onda go‘shtxo‘rlik bo‘ladi degin.

– Bazm-ku yaxshi narsa-ya, – ichga tortib ketgan qornini silab, paysallandi Dashqal. – Harqalay, avval o‘zimiz chalaziyofat qilvolsak, savob bo‘lardi.

Ukasiga qo‘yib bersa, uning chalaziyofati uch kunga cho‘zilishi mumkinligini Ashqal yaxshi bilardi. Shu bois avaylabgina ra’yini qaytardi:

– Oldin aytganlarimni bajarib kel. Qaytganidan keyin, yolg‘onchi Uloqvoyni ikkovimiz „arra“ qilarmiz.

Akasi loaqal bitta o‘ljani ikkiga taqsimlashga rozi ekanidan quvonib ketgan Dashqal, oyog‘i olti bo‘lib chopqillaganicha, dara tomonga yo‘l oldi. Tungi ovga kuch to‘plab, o‘z g‘orlarida shirin tushlar ko‘rib yotgan bo‘rilarni Toshqo‘rg‘ondagi bazmdan ogoh etishga oshiqarkan, yumshoqbadan Uloqchani ko‘z oldiga keltirgan kuyi yo‘l-yo‘lakay shodon ashula aytib borardi.

*Uloqchaning ulog ‘idan,  
Cho ‘zish kerak qulog ‘idan.  
Ba ’zi birov qo ‘rqrar emish  
Uning baland dimog ‘idan.  
Uloqchaning ulog ‘idan,  
Cho ‘zish kerak qulog ‘idan.  
Uloqchani yegan tuzuk,  
Osib qo ‘yib tuyog ‘idan...*

## QAQSHATQICH JANG

Boshqalardan ko‘ra olg‘ir va surbet bo‘lgani uchun o‘zini hammadan aqli deb bilgan 0099 raqamli Uloqcha qoni boshqa yovvoyilarning makriga uchib yanglishganidan qattiq azob chekib, boshini quyi solganicha chetda yolg‘izlanib turar, sheriklarining ko‘ziga qarashga botina olmayotgan edi.

„O‘zim-ku, fermani o‘lgudek yomon ko‘rardim-a, – pushaymonlanib o‘ylayotgandi u. – Yaylovga kelib, nega yana o‘sha la’nati tartiblarga yopishib oldim? Erkin podaga qo‘shilvolib, tinchgina tirikchilik qilib yuraversam bo‘lmasmidi?”

Uloqcha hali juda yosh edi. Takabburlik, faqat o‘z nafsi-yu, o‘z quvonchini o‘ylash, oddiy hayvonlarning nafsoniyatini toptash o‘ziga nisbatan ashaddiy dushmanlik ekanini to‘liq idroklab ulgurmagandi. Buni endigina oz-moz anglay boshladi. Afsuski, ancha kech bo‘lgandi.

– Nega so‘ljayib qolding, echkivachcha? – Uloqchaga yaqinlashib, alamini sochdi Bo‘taloq. – Bo‘rilarning po‘stagini qoqmading-ku. Qiziq! Ular tuyog‘ingniyam yalahsmadi.

Kutilmaganda Eshak ham jahllanib, sobiq boshlig‘iga davara qila ketdi:

– Kimsan o‘zing? Sendaqa xo‘jayinlardan ko‘pini ko‘rganman! He yolg‘onchi!  
– To‘g‘ri! – deb ho‘mraydi Qo‘zichoq.

– Kelib-kelib, bitta buloqdan suv ichib yurgan birodarlarini aldadi-ya, – qoni qaynab depsindi Bo‘taloq. – O‘z qondoshlarini begonalarga yem qilayotgan senday sotqinga tupurdim!

Ho‘kiz og‘a odatdagidek roish va mulohaza bilan gapga qo‘sildi:

– Hozirgi qaltis vaziyatda bunaqa janjaldan foya yo‘q. Undan ko‘ra, ahil fikrlashib, qanday qutulishni o‘ylaylik. Uloqchaga kelsak, ana, qilgan ishidan o‘ziyam mulzam bo‘pturibdi.

– To‘g‘ri! – Uloqchaga birdan rahmi kelib, Ho‘kizga yon bosdi Qo‘zichoq.

Bo‘taloq Ho‘kiz og‘aning o‘gitiga qulog solgisi kelmay, battardan qizishdi:

– Tupurdim uning uyalishiga!

– Qarang-ga, sotqinlik qildi-ya, – deb shovqin soldi Eshak. – Bundaylarni tepib o‘ldirmoq kerakdur!

– To‘g‘ri – dedi kallani ishlatib o‘tirmay Qo‘zichoq.

Alamzada bandilar Uloqchani yana ko‘p gapbo‘ron qilishlari mumkin edi-yu, qo‘rg‘on darvozasi ochilib, ichkariga egizak bo‘rilar kirib kelishgach, so‘zлari bo‘g‘zida qoldi. Dashqal podadagilarga tiryaganicha birma-bir ko‘z tashladi:

– Shapaloqbazm boshlanishining ustidan chiqdik shekilli? Mehmonlarimiz ziyofatga yetib kelguncha, bir-birlaringni yeb qo‘ymanglar tag‘in, og‘ayni chalishlar. Xex-xex-xe...

– Agar janjal kim birinchi bo‘lib ustixonga aylanishning ustida ketayotgan bo‘lsa, bunga hojat

yo‘q, – to‘kilajak qon haqida vahshiylarcha xotir-jamlik bilan gapirdi Ashqal. – Biz eng oldin baxti-yor Uloqvoyning tuzini totishga qaror qildik.

Qo‘rqib ketgan Uloqcha chopib borib, qaytadan Ho‘kiz og‘aning pinjiga kirdi. Tuyoqlari qaltirab, o‘z-o‘zidan cho‘kkalab qoldi.

Dashqal: „Muncha tarang qilasan, uka? Qani, bu-yoqqa yugurvori-chi!“ – deya Uloqchani o‘ziga imla-di. Ashqal esa: „Nima, biz seni qassobga berarmidik? Shunaqayam avaylab yeymizki, o‘zing ham bilmay qolasan“, deb uning ko‘nglini ko‘targan bo‘ldi.

– Xomtama bo‘lma! – qahr bilan Ashqalga pishqirdi Ho‘kiz og‘a. – Toki men tirik ekanman, Uloqchaga yaqinlashish xayolinggayam kelmasin!

– Nima balo, bu gaping bilan, meni hamma-dan oldin yenglar demoqchimisan? – Ashqal qonga to‘lgan ko‘zlarini Ho‘kiz og‘aga qadadi.

Nayrangvoz Dashqal esa, masalani boshqa yoq-qa burib, o‘zga hayvonlarni Ho‘kiz og‘aga qarshi qayramoqchi bo‘ldi:

– Do‘stlaringni hurmat qilsang-chi, uyatsiz! Nega zo‘ravonlik bilan o‘zingdan kichiklarning navbatini olyapsan? Qo‘yvor bechora Echkibolani!

– Lo‘ttivozlikni yig‘ishtir! – g‘azabnok mo‘vradi Ho‘kiz og‘a. – Uloqdan umidingni uz!

Egizaklar biri: „Shunaqami hali?“ – deb, ikkin-chisi „Unda, o‘zingdan ko‘r!“ – deya po‘pisalab, qonsiragan vajohatda Ho‘kiz og‘ani ikki yoqdan iskanjaga ola boshladilar. Ho‘kiz og‘a bor kuchini

bo‘yin va tuyoqlariga jamlab, hayot-mamot jangiga hozirlandi.

Dashqal raqibining kekirtagini mo‘ljallab turib, bor basti bilan oldinga otildi. Ammo, Ho‘kiz og‘a qo‘pol gavdasiga xos bo‘lman chaqqonlik ila uni shoxlari orasiga qo‘ndirib oldi-yu, chirpiraklatib chetga uloqtirdi. Dushmanining bir lahza himoyasiz qolganidan foydalangan Ashqal bir tumshuq urib, Ho‘kiz og‘aning chap biqinidan parcha go‘sht uzib olishga ulgurdi. Garchi, Bo‘taloq bilan Eshak ham beixtiyor bu olishuvga kelib qo‘shilishgan bo‘lsada, jangdagi asosiy og‘irlik hanuz Ho‘kiz og‘aning zimmasida turar, bo‘rilar bиринчи galda uni safdan chiqarishga harakat qilishayotgandi.

Jang qizib boraverdi. Bo‘taloqning junlari to‘zib, Eshakning lunjidan oq ko‘pik sachray boshladı. Qo‘zichoq orqa tuyoqlarida yerni timdalab, yirtqich-larga mayda toshchalarni yog‘dirar, Uloqcha bo‘lsa, qo‘rg‘onning ichki devorchalari ustida dik-dik sakrab, egizaklarning boshiga g‘ishtlarni nuratish bilan ovora edi.

Bo‘rilarning asosiy hujumini qaytarayotgan Ho‘-kiz og‘a, tanasidagi jarohatlar ko‘paygani sayin, tobora holsizlanayotgan edi. Ko‘p qon yo‘qotgani bois, ko‘zları tinib, boshi aylana boshladı.

„Tamom! – deb o‘yladi u, gandiraklaganicha olishuvni davom ettirayotib. – Endi hammasi tamom bo‘ldi!“

Uning ko‘z o‘ngida tuyalardek o‘rkachdor adir-

lur, adirlar etagiga borib tutashuvchi ko‘m-ko‘k yaylov, dengizsimon o‘tloqdagι turfarang chechaklar, chechakdan-chechakka giz-gizlab yurguchi bolari-yu kapalaklar suratdek jonlandi. Keyin ola sigirning biqiniga ishqalanib erkalanayotgan novvoschani esladi. Bu uning yoshlik chog‘lari edi. Birdan nigohi qarshisida nimadir yarq etib chaqnadi. Omoch shekilli bu. Nahotki, uni yana qo‘shga qo‘shishmoqchi?

Tanasi „Jiz!“ etdi-yu, Ho‘kiz og‘a hushini yig‘di. Bo‘rilardan biri uning ko‘ksidan yana bir parcha ctni uzib olgandi.

„O‘ladigan bo‘lsam, loaqal bitta yirtqichni tilkallab o‘lishim kerak! – deya xayolidan o‘tkazdi u. – Shuncha qo‘rqib yashaganim yetar!“

Ho‘kiz og‘a oxirgi kuchini to‘plab, Ashqalga tashlandi, uni burama shoxlariga ilib olib, shartta devorga qisdi. Bunday sharoitda o‘zini ikkinchi bo‘ridan himoya qila olmasligi, Dashqal birinchi hamladayoq uning qornini yorib tashlashligini sezib tursa-da, dushmanini bor basti bilan devorga niqtashda davom etdi.

Dashqal changak tishlarini bir-biriga qayrab, Ho‘kiz og‘aning yon tomoniga o‘tdi. Biroq, raqibi ni chavaqlab tashlashga ulgurmadi, tuyqus paydo bo‘lgan Eshakning tepkisidan miyasi qattiq lat yeb, yumalaganicha devorga borib urildi. Boshini silkib-silkib, gandiraklagan holda o‘rnidan turarkan, qari Ho‘kizning baquvvat shoxlari orasida uvillab jon berayotgan akasiga endi yordamning

hojati yo‘qligini angladi. Qochishdan oldin, bora solib, Uloqchaga yopishdi, bo‘ynining tepasidan tishlab, yelkaga o‘ngardi-yu, jon halpida darvoza tomonga yugurdi.

– Ho‘kiz og‘a! Ho‘kiz og‘a! – Dashqalning yelkasida tipirchilab borayotib, bor ovozda zorlandi Uloqcha. – Yordam beringlar!

– Uloqni opqochdi-yov! – hayajonlanib baqirdi Eshak. – Ushlagaymiz o‘g‘rini!

Qo‘zichoq qo‘rqqanidan qattiq ma’rab yubordi. Bo‘taloq jahl bilan yerga tupurib, Eshakning ortidan tashqariga qarab chopdi. Ho‘kiz og‘a allaqachon tinchib qolgan Ashqalni chetga uloqtirib, Eshak va Bo‘taloqning ketidan yugurmoqchi bo‘lganida, uch-to‘rt qadam bosib-bosmay, birdan tentiraklab yiqildi. Qo‘zichoq uning ustiga kelib, ma’rab-ma’rab yig‘lashga tushdi.

0099 raqamlı Uloqchani yelkalagan kuyi tashqariga otilib chiqqan Dashqal so‘qmoqni changitgancha dara tarafga chopdi. „Akamning o‘lgani ajab bo‘ldi, endi Uloqni bitta o‘zim xap-xap qilaman“, deya yo‘l-yo‘lakay o‘ylab borayotganida, qarshisidan o‘qdek uchib kelayotgan Olaparni ko‘rib, ko‘zları olaydi. O‘ljasini chetga otib, tomog‘i yirtilgudek irillagan asno itga tashlandi.

Olapar bir necha chaqirim joydan chopib kelib, hansirab qolgan bo‘lishiga qaramay, bo‘rini dastlabki hamladayoq tagiga bosib oldi, hali u, hali bu yeridan tishlab, mushukka o‘xshatib piypalashga

tushdi. Dashqal o'tkir tirnoqlarini do'layib, uning ko'ziga chang solmoqchi bo'lganida, Olapar raqibining oldingi oyoqlarini ayamay g'ajib tashladi. Toshqo'rg'ondag'i hayvonlar oqsab-to'qsab tashqariga chiqib kelishgan mahalda, a'zoyi badani qonga belangan yirtqich Dashqal chalajon sulayib yotardi.

– E, qoyilman! – Olaparga yaqinlashayotib, quvonch bilan qichqirdi Bo'taloq. – Birpasda surobini to'g'rilib qo'yibsan-ku.

– Bormisan, akasi bo'yidan? – iljaydi Eshak. – G'alaba muborak bo'lgay!

Qo'zichoqni yetaklab olgan Ho'kiz og'a zo'rg'a odimlab kelib, bir sulayib yotgan Dashqalga, bir g'olibona ko'krak kerib turgan Olaparga ko'z tashlagach, dedi:

– Vaqtida yetib kelganing yaxshi bo'ldi, Olapar. Rahmat senga.

Qo'zichoq diriklab kelib Itga suykandi-yu, yana yig'lab yubordi.

– Sizlar menga emas, Quyonga rahmat aytinlar, – kamtarinlandi Olapar. – Agar u menga xabar qilmaganida...

Birdan uning gapi bo'linib, tevarakka alangladi va: „Hov! Vov! Qayoqdasan, Quyonjon?“ – deb akilladi.

– Kak-ku! – Quyon oldin ovoz qildi, so'ng qiyalikdagi harsang yonidan mo'ralab, turganlarga g'ilaylanib jilmaydi. – Mana men!

– Qarang-ga, qarang-ga! – to‘lqinlanib ketdi Eshak. – Bu o‘zimizning azamat ukamiz-ku! Salomat bo‘lgaysan, Dingirvoy!

– Ko‘nglimga havotir tushib, orqalaringdan poylab kelganidim, – dedi Quyon. – Bo‘rilarning qopqoniga tushganlaringni ko‘rdim-u, Olapar to‘g‘risida gi gaplaringni eslab, Chimtepa qishlog‘iga qara chopdim.

– Umringdan baraka top, Dingirvoy, – uni du qildi Ho‘kiz og‘a. – Bag‘oyat aqli Quyon ekansan

– To‘g‘ri! – deb bosh irg‘adi Qo‘zichoq.

Ozodlik tekin ovqatdan ham zo‘r narsa. Yirtqich larning xo‘rlovlardan xalos bo‘lishgach, sobiq bandilarning zardobga to‘lgan dillari tuyqus yashnab, tund chehralari birpasda yorishib ketdi. Faqa 0099 raqamli sho‘rpeshana Uloqchagina nariroqdagi chag‘ir tosh ustida ko‘zlarini yerga qadab, jimgina mung‘ayib turardi. Quvonchli damda eng kekchi jonivor ham eski gina-kuduratni butunlay unutib yuboradi deyishardi. Bo‘taloqda yuz berigan o‘zgarish bu so‘zning to‘g‘riligini yana bir bor tasdiqladi. U yon-veridagilarni jilmayganicha turtkilab, Uloqcha tarafga imo qildi. Hayvonlar bir-birlariga qarab, ma’nodor kulib qo‘yishdi. Ho‘kiz og‘a oqsab Uloqchaning yoniga bordi va xotirjam qiyofada so‘z qotdi:

– Nimaga bir chekkada shumshayi-i-b turibsan? Bunaqa qilishing yaxshimas.

– Nimadan xursand bo‘lay, Ho‘kiz og‘a? –

yig'lamsirab javob qildi Uloqcha. – Oqsoqollik qo'ldan ketgani mayli-ya, endi men bilan hech kim o'rtoq ham bo'lmaydi.

Qo'ysang-chi, – deya e'tiroz bildirdi Ho'kiz og'a. – Men bu podadagilarni juda yaxshi bilaman. Buri ochiqko'ngil. Agar, chinakam baxt boshqalar ning baxti uchun yashashda ekanligini tushunib yetgan bo'lsang, menimcha, ular seni kechirishadi. Xohlasang, hoziroq hammasi bilan yarashtirib qo'yaman.

Uloqcha picha o'ylanib turgach, bir sakrab, toshdan tushdi.

– Yo'q, Ho'kiz og'a, – dedi u birdan dadillashib. – Ular bilan yarashishga o'zim urinib ko'raman.

Ho'kiz og'a bu gapdan quvonib ketib: „Balli! Juda yaxshi o'ylabsan“, deya uning yelkasiga tumshuq bosdi.

Uloqcha o'ng'aysizlangan qiyofada hayvonlar davrasiga yaqinlashdi. Turganlarga bir-bir qarab olib, duduqlanganicha gap boshladи:

– Osh... oshnajonlar! Bir bog' xashakdan garov o'ynashim mumkinki, men endi... endi men...

– Qiynalmay qo'yaqol, – uning gapini bo'ldi Quyon. – Nima demoqchi bo'layotganiningni ham-mamiz bilib turibmiz.

– Akkash ham tushunib turibdi, – gerdайди Eshak. – Nima, kallam oshqovoqmidi?

Kayfiyati ochilib turgan Bo'taloqning yanada zavqi jo'shdi:

- Tupurdim bunaqa hafagarchilikka! Biz bilan birga quvonsang-chi, birodar!
- To‘g‘ri! – iljayib qichqirdi Qo‘zichoq.

Olapar Uloqchaning yoniga kelib, uni o‘z o‘rtoqlari safiga qabul qilganini bildirib qo‘yish uchun uning tumshug‘i va tamg‘ali qulog‘ini mehribonlar cha hidladi. So‘ng yangi do‘sining bo‘yni ustidagi qonlarni avaylab yalashga tushdi. Itning so‘lagi haq qanday yaraga o‘tkir malham bo‘lishligini yaxshi bilgan Uloqcha unga minnatdorchilik bilan ko‘z tashlab qo‘ydi.

– Hechqisi yo‘q, og‘ayni, – sobiq oqsoqolga taskin berdi Olapar. – Begonalarning badanimizda qoldirgan yaralari ertami-kech bitib ketaveradi. Ishqilib, bir-birimizning yuragimizni jarohatlamasak bo‘lgani. Bunisi yomonroq, hov, vov!

Uloqcha kumush qo‘ng‘irog‘ini bo‘ynidan yulqib olib, uni jon talvasasida xirillab yotgan yirtqich Dashqalning tumshug‘i ostiga itqitdi. Ko‘ngli birdan yengil tortdi. Bu paytda boshqalar ham o‘zlarini qayta tug‘ilgandek his etishib, to‘yib-to‘yib nafas olishayotgandi.

1979-yil.

# ATROFIMIZDAGI QIZIQCHILAR

*Hikoyalar*



## KUCHUKNING HIKOYASI

O‘rtog‘ing yaramasroq bo‘lsa, orani ochiq qilib qo‘yish oson – payt poylab turib, unga itqitilgan suyakni olib qochsang bas, sen bilan bir umrga salom-alikni yig‘ishtirib qo‘yaqoladi. Lekin, o‘z tu-g‘ishgan opang bo‘limg‘ur chiqsa, vov-vov, bundan qutulishning iloji yo‘q ekan.

Dardi bedavo-da shu opam. Menga sira kun bermaydi. Sal-pal esimda bor, jishlik chog‘imizda ham ayamni avval u emardi. Aslida, yon-ma-yon emsak tuzuk ish bo‘lardi-yu, ammo bunga ko‘nmasdi u yaramas. Ko‘pincha ochligimcha uxlab qolardim.

Mana, zanjirga bog‘lansak bog‘langudek bo‘p-qoldik. Biz tengilar allaqachon alohida ityaloq qili-shib, odamlarning uyini poylashyapti. Ularga qarab, havasing keladi. Opamning bo‘lsa, hali-veri esi kiradiganga o‘xshamaydi. Voy uning ochko‘zligi! Voy uning jirttakiligi!

Gapini qarang, „qiz bolaman, shuning uchun idishni men tozalashim kerak“, deydi. O‘zingiz ham tushunib turgandirsiz, idishni tozalash, bu – ityaloq-dagi yuvindini pok-pokiza yalab qo‘yish degani.

Dasturxon qoqlishi bilanoq, qolgan-qutgan non-largayam birinchi bo‘lib u xonim chang soladilar. „Hey, uyatsiz, endi buyog‘ini menga qo‘yib berda“, desam, „o‘g‘il bolasan-ku, sen suyakniyam

g'ajiyverasan“, deb surbetlarcha kavshanishga tu-shadi. Hech bo‘lmasa, ulgurjiroq suyak tegib tursa ham mayliydi. Qayoqda deysiz, hozirgi qassoblar nihoyatda noinsof bo‘lib ketishgan, bir kilo go‘shtga bor-yo‘g‘i yarim kilo suyak qo‘shishadi.

Uf-f, juda hayron bo‘pqoldim. Yo uydan shartta bosh olib ketvorsammikin? Bunaqa opa bilan, masalan, siz bir kun ham yasholmagan bo‘lardingiz...

Mana, azbaroyi qornim ochganidan, barmog‘imni so‘ri-i-b o‘tiribman. Opam bo‘lsa, „chilip-chilip, chilip-chilip“ latib idish tozalayapti. Bir narsa deyay desam, yana qiz bolaligini pesh qiladi. He, beting charmdan bo‘lmay ketgur!

...Ishqilib, sen ukangni xafa qilmayapsan-mi, qizaloq? Yo odamlarning bolalari ham bizga o‘xshaganroqmi?

## QARG‘ANING HIKOYASI

Qag‘-g‘! Ishlar chatag‘-g‘! Qag‘-g‘! Qag‘-g‘-g‘!!!

Hoy, ahvolimni so‘rab nima qilasan? O‘rgildim sendaqangi mehribondan. Nima, aytganim bilan yarim dardimni tortishib berarmiding?

Qag‘, qag‘-g‘! Voy, ablag‘-g‘! Biqinimni yedi-ku bu ablah Qoramosh!

Mabodo, seniki emasmi o‘sha yumdalogs‘ich iblis? Haligi qora Mushukni aytaman-da. Bu befasatni avvallariyam yomon ko‘rardim. Boya o‘rik-

ning shoxida qirov yalab o‘tirsam, baraka topkur Laychavoy uni zing‘illatganicha quvib o‘tib qoldi.

Ana endi Qoramoshning holini tomosha qil – qo‘rquvdan junlari tikkayib, ko‘zлari ola-kula bo‘p- ketibdi. Oyog‘i yerga tegmaydi. Shu qochishda qo- chib borib, o‘zini bostirmaning ostiga urdi. Bostir- maning chetiga bir uyum xazon to‘plab qo‘yilgan, ivitib qo‘yga berib turishadi-da. Qoramosh bora solib, xuddi o‘sha xazonning ichiga kirib ketdi. Da- raxtning ustidan ko‘rib turmasam ekan!

Qarasam, Laychavoy garangsigan taxlitda ivir- sib qoldi. Bu ishga shaxsan o‘zim aralashma- sam bo‘lmaydigandek tuyuldi. Borib, yaqinroqqa qo‘ndim-u, go‘yo hech nimadan xabarsizdek, be- parvo so‘radim:

– Xo‘-o‘-sh... Bu yerda nimalar bo‘lyapti o‘zi, Laychavoy? – dedim.

– Mushukni quvib yurib, shu joyda yo‘qotib qo‘ydim, – deb akilladi Laychavoy. – O‘sha xum- parni tutib dumini yulmasam, it emasman deb qa- sam ichganidim.

– Donolarning gapiga qaraganda, birov bilan o‘chakishish umuman yaxshi emas, – deya gerdai- dim men. – Ming afsuski, og‘zingga qaltisroq so‘z olib qo‘yibsan. Endi „it“ degan tabarruk nomni as- toydil himoya qilmog‘ingga to‘g‘ri keladi. Bino- barin, shunday ekan, sen pahlavonzoda...

Gapni ortiqcha cho‘zganim Laychavoya yoqmadi shekilli, so‘zimni shartta bo‘lib, „Olimliging-ni yig‘ishtir! Qoramosh qayerga berkinganini ko‘rdingmi, yo‘qmi?“ – deb irilladi.

– Ko‘rishga-ku ko‘rmadim-a, – dedim, hanuz satanglanishni qo‘ymay. – Lekin, farosatni ishga soladigan bo‘lsak, kalavaning uchini topmoq mumkindir. Ya’ni, Qoramosh kalamush emaski, kavakka kirib ketsa. Agarda aqlim pand bermasa, u xazonning ichiga berkingan bo‘lmog‘i ehtimoldan xoli emas.

Hali gapimni tugatganim yo‘q ediki, Qoramosh xazonning orasidan o‘qdek sapchib chiqib, ustimga otildi. Laychavoy ham, men ham o‘zimizni o‘nglashga ulgurmay qoldik. Battol mushuk: „Mana senga, chaqimchi!“ – dedi-yu, biqinimga bir tirmoq urib o‘tib ketdi. Yulingan patlarimni to‘zitib, zo‘r-bazo‘r havoga ko‘tarildim. Laychavoy uni yana quvishga tushdi.

Voy, biqinginam-ey! O‘rikning shoxida jimgina o‘tiraversam bo‘lmasmidi? Nima qilardim birovlarning ishiga aralashib? Boshqalarga o‘zimni aqli qilib ko‘rsatgim keldimi deyman-da. Eh, pishmagan kalla!

...Chaqimchilik yomon narsa deysanmi? Aql o‘rgatmoqchimisan, uka? Bor, yo‘lingdan qolma. Farosat bilan aytganda, shaxsan menga dars bermoqqa hali yoshlik qilasan.

Qag‘-g‘!!!

## CHO‘CHQACHANING HIKOYASI

Xur... xur... xursandchilik yaxshi narsa-da. Kecha balchiqqa yumalab, rosa o‘ynabman deng. Keyin maza qilib axlat titkiladim. Dadam ahvolimni ko‘rib, „sendan haqiqiy Cho‘chqa chiqadi“, deya yelkamga bir urib qo‘ydi.

Siz qanday o‘ylashingizni bilmayman-u, men kallamni ishlati-i-b turib, „Agar dunyoda balchiq degan narsa bo‘lmasa, yashashning bittayam qizig‘i qolmasa kerak“, deb yuraman. Afsuski, ba’zilar shuni tushunmaydi. Masalan, qo‘sнимиз qora Sovliq esli-hushli hayvon bo‘laturib balchiqni hurmat qilmaydi-ya.

O‘tgan kuni uning o‘g‘li bilan birgalashib o‘yna-gani chiqdik. Qarasam, Qo‘zichoq tushmagur to‘g‘-ri maysazorga qarab ketyapti. Bilaman, uyoqda ajriqdan boshqa hech vaqo yo‘q.

– Ho‘, lattabosh, buyoqqa yur! – deb qichqirdim unga. – Juda ajoyib joy bor, yumalanib-yumalanib o‘ynaymiz. Qani, orqamdan o‘rmala-chi.

Uni o‘sha huzirijon Sassiqko‘lga boshlab bordim. Boriboq, o‘zimni balchiqqa otdim. „Ke, men ga o‘xshab bir yayra“, dedim Qo‘zichoqqa. U oz-moz ikkilanib turib, sekin balchiqqa tushdi.

– Qo‘rqma, – deb dalda berdim unga. Keyin tumshug‘imni balchiqqa tiqib, uning havasini kel-tirdim. – Qani-qani, sen ham shunaqa qil-chi.

Qo‘zichoq tumshug‘ini balchiqqa tiqdi-yu, dar-

rov boshini ko'tarib, aftini burishtirganicha loy tuflashga tutindi.

– E-e, yutvormaysanmi! – dedim, g'ashim kelib.

Qo'zichoq menga yomon ko'z bilan o'grayib qo'yib, indamasdan uyiga jo'nab qoldi. Shu-shu, mendan andak xafa. Eshitishimga qaraganda, uyiga borganidan so'ng, po'stinchangni rasvo qilibsan, deb onasi rosa ta'zirini beribdi. Buni eshitib, Qo'zichoqqa juda rahmim keldi.

Boshqa tomondan, sal jahlim ham chiqdi. Qo'-zichoq-ku hali yosh, lekin kap-katta qora Sovliq balchiqning qadriga yetmagani qiziq. Xur... xur... xurofot bu.

E, menga nima? Kimki yashashni bilmabdi, o'ziga qiyin. Men bo'lsam, bugun ham, ertaga ham balchiqqa yumalayveraman. Ishqilib, toza yurmasam bo'lgani. Shundagina haqiqiy Cho'chqa bo'lib yetishaman.

... Ha, yo'l bo'lsin? Oqsoyga deysanmi? Iye, g'o'r bola ekansan-ku! Soyda cho'milib nima huzur topasan? Yur, Sassiqko'lga boramiz. Sen ham menga qo'shilib bir yalala-yalay qilsang-chi.

## BUZOQNING HIKOYASI

Chindan ham sinchkov bo'lsangiz, menga dunyodagi eng farosatsiz hayvonning nomini aytib bering-chi. Yo'q, Eshak emas. Topolmadingiz. Eng befarosat maxluq, bu – Tuya. Ha-da!

Masalan, qo'shnimiz Nortuyani olaylik. Ismim Targ'il ekanligini unga kuniga o'n martalab uqtiramam. U bo'lsa, baribir Qashqa deb chaqiraveradi. Hozir ham yonidan o'tib borayotsam, „Yo'l bo'lsin, Qashqavoy?“ – deb yana jig'imga tegdi.

Alam qiladigan joyi shundaki, shu topda o'zim o'sha so'tak Qashqani axtarib yuribman. Qo'limga tushsa, uni yanayam qashqaroq qilib qo'yishim turgan gap. Negaki, doim rizqimni qiygani-qiygan.

Aslida, Nortuyaning adashtirganicha bor. Qashqa ikkalamiz bir-birimizga juda o'xshab ketamiz. Qorong'i tushgan paytda hatto onalarimiz ham bizi farqlolmay qolishadi. Yaramas Qashqa xuddi mana shundan foydalanib, uqlab yotgan chog'imda onamni emib qochadi.

Avvaliga uni bir-ikki marta yaxshilikcha ogohlantirdim. Keyin biqiniga bir kallalab qo'ydim. Bezzbet o'shandayam pinagini buzmaydi deng. Jirillamasdan, sen ham mening onamni emaversang-chi, deydi-ya. Zap ahmoqni topibsanda, dedim unga. Ochig'ini aytsam, uning qiltiriqday bir onasi bor, ertalabdan kechgacha emganingdayam, so'rgan suting chap ichakka yuq bo'lmaydi. Mening onam bo'lsa, gumbazdek to'lishgan, yelinlari lorsillab yotibdi.

Xullas, bugun ham uzoqroq uqlab qolgan ekanman, uyg'onib qarasam, Qashqa onamni yana emib qochibdi. Xunobim oshib ketdi. Har qanday sabr-toqatniyam chegarasi bo'ladi, yetar endi. Uni qayer-

dan bo'lmasin topib, u biqiniga, bu biqiniga, tag'in u biqiniga, tag'in bu biqiniga kallalab tashlamasam, novvosman deb yurgan ekanman-da.

...Buzoqning yugurgani somonxonagacha, deysanmi? Gapingda jon bor, oshnavoy. Qani, bir somonxonaga borib ko'ray-chi.

## TULKICHANING HIKOYASI

Biz Tulkilar haqida gap ketgudek bo'lsa, odamlar ismimizning oldiga albatta „ayyor“ so'zini qo'shib aytishadi. Bu insofdan emas. Ayyorlik bilan uddaburonlikning farqiga borish kerak. Ishbilgich bo'lmasang, bu olamda kun ko'rish qiyin.

Ke, boshingni aylantirib o'tirmay, yaqinda yuz bergen bir voqeani dastaklab o'ta qolay. Shunga qarab, kimligimizni o'zing tushunib olarsan.

Bundan o'n kuncha oldin ayam ikkalamiz tovuqxonada qo'lga tushdik. Ichkariga kirganimiz zahoti shartta eshikni yopishdi. Endi bizni o'ldirishadi deb o'ylab, juda qo'rqib ketdim. Ayam bechora ham dag'-dag' qaltiray boshladи. Go'yo: „Bolamda ayb yo'q, nima qilsanglar meni qilinglar“, demoqchidek, meni tagiga bosib, boshimni jag'ining ostiga yashirib oldi.

Qorovul chol bilan o'g'li allaqanday matoni yoyishganini ko'rdim-u, ularning niyati nimaligini anglab yetgunimcha, ko'z oldimni birdan zulmat qopladi. „Odamlar bizni sholchaga o'rab olishdi“,

deya chinqirdi ayam, so‘ng jon-jahdi bilan potirlay ketdi. Men ham jim turmadim. Ammo, odamlar allaqachon ustimizga minib olishgandi. Kuchli panja sholcha aralash bo‘ynimdan qisdi. Nafasim bo‘g‘ilib, xirillab qoldim. Keyin nima bo‘lganini bilmayman...

Bir mahal ko‘zimni ochsam, ayam ikkovimiz ariqcha yoqasidagi tolning salqinida yotibmiz. Bo‘ynimizda itlarnikiga o‘xshagan pishiq zanjir. Qiziq! Bizni nima qilishmoqchi o‘zi?

Zanjirni goh siltab ko‘rdik, goh g‘ajib ko‘rdik, foydasi yo‘qligini sezib, hafsalamiz pir bo‘lib turganida, qorovul chol cheti siniq kosada achigan bo‘tqa keltirib, oldimizga qo‘yib ketdi. Chol uzoqlashishi bilanoq, taomni shoshilib iskay boshlagan edimki, ayam tumshug‘imga bitta tarsakilab qoldi.

— Yema! — dedi u. — Nafsingni tiy, tentak!  
— Nega yemas ekanman? — deya zardalandim men. — Qornim allaqachon hushtak chalyapti.

— Hozir bizga tekin ovqat kerakmas, — deb o‘dag‘ayladi ayam. — Ozodlik kerak bizga, ozodlik!

Keyin, ahvolimga achinib, meni bag‘riga boshi. Boshimni silab turib, o‘ylab qo‘ygan rejasini gapirib berdi, nimalar qilishimiz lozimligini yotig‘i bilan uqtira ketdi. Shunda men, bir yalanib olib, yana ming‘irladim:

— Hech bo‘lmasa, suv ichsam maylimi? Tilim tanglayimga yopishib qolyapti.

– Suvdan ichsak bo'ladi, chunki kamaygani bilinmaydi, – dedi ayam va ariqcha tomonga yutoqib qarab qo'ydi. – Faqat kechqurun, hamma uxlaganda ichamiz. Sabr qil, eslikkinam, sabr qil.

Nihoyat, men orziqib kutgan vaqt keldi, tunda qonib-qonib suv ichdim. Buning ustiga, payt poylab turib, ariqchada qurillab yurgan baqalardan uch-to'rttasini ushlab, isini chiqarmay urvoldik.

Kunlar shunday o'taverdi. Kunduzlari tuz totmasdan sulayib yotamiz, tunlari oz-moz tirikchilik qilib olamiz. Hech narsa yemayotganimiz oxiri tovuqboqar kampirning e'tiborini tortdi.

– Bularni sholchaga o'rab bosganlaringda qovurg'alari singanga o'xshaydi, – dedi u qorovul cholga. – To'rt kundan beri tuz totmasdan yotishibdi-ya. Ikkalasiyam chalajon.

– O'lishmaydi, – deb to'ng'illadi chol. – Bolasiniyam katta qilvolsam, o'g'ling ikkalamizga bittadan telpak chiqadi, kampir.

Beshinchı kuni erta saharda ayam menga tayinladi:

– Bugun, iloji boricha, nafas olayotganiningni sezdirmay yot. Tepishsayam, g'ing dema. Chida!

Shu tariqa, miq etmay yotaverdik. Bir mahal, qadam tovushi eshitildi. Ko'zimni qiya ochib qarasam, kampir yana ovqat olib kelyapti. U, temamizda to'xtalib, bizga diqqat bilan tikilib turdi, keyin egilib, meni bir-ikki qimirlatib ko'rdi. Qitig'im kelsayam, o'liklikka chidadim.

– Uf-f! – ovqatni yerga qo‘yib, chuqur homuza tortdi kampir. – O‘lishadi desam, ishonmadi bu chol. Mana, sho‘rliklarning uvoliga qoldik.

U g‘udranganicha bo‘ynimizdagi zanjirni yechib tashlab, indamasdan nari ketdi.

– Endi qochamizmi? – toqatsizlanib, yonimda yotgan ayamni turtkiladim men. – Vaqtida g‘oyib bo‘lmasak, qaytib kelib, boshqatdan zanjirga solishmasin!

– Jim! – ko‘zini xiyol ochib shivirladi ayam. – Chol darvoza tarafda yuribdi. Yana ozgina toqat qil, eslikkinam.

Chol ochiq turgan darvozaning oldida ancha ivrisib yurdi. Keyin uychasining yoniga borib, obdas-tani oldi-da, kalishini sudraganicha hovuz tomonga keta boshladi.

– Tur! – qat‘iy ohangda buyurdi ayam. – Qoch-dik, bolam!

Men o‘rnimdan qo‘zg‘alayotib, cheti siniq kosadagi ovqatdan boplab bitta yalab oldim. Ayam esa, tevaragimizda bemalol sayr qilib yurgan tovuqlar-dan eng semizini allaqachon tumshug‘iga qistirib ulgurgan edi.

Qiyinchiliklarga bardosh berganimiz yaxshi bo‘ldi. Mana, zanjirdan qutulib, omon-omonda o‘ynab yuribmiz. Naq ajalning panjasidan sog‘ chiqdik-da o‘ziyam!

...Qani, birodar, aytgan gaplarimni aqlingning

tarozisiga bir solib ko'rgin-chi. Seningcha, bu ay-yorlikmi, yo ishbilarmonlikmi? Balki, tamoman bo'lak narsadir?

## QUYONCHANING HIKOYASI

Buncha xomushsan, deysanmi? Nahot, xafaga o'xshab ko'rinyotgan bo'lsam? Bu shunchaki qornimning ochligidan... yoki To'ng'iz bilan „ahmoq-ahmoq“ o'ynayverib, charchaganimdan bo'lsa kerak.

Qanaqa o'yin bu, deganing nimasi? Rostdanam hech o'ynab ko'rmaganmisan? Hayotdan to'rt qarich orqada qolibsan-ku, xi-xi-xi.

To'g'risini aytsam, bu o'yinni o'zim ham bugun o'rgandim. Agar karamlarim bo'limganida, kim biladi deysan, haliyam o'rganolmay yurarmidim...

Xullas, inda yotaverib, juda zerikib ketdim. Buning ustiga, mundoq timirskilab ko'rsam, omborchamda tishga ilinadigan narsa qolmabdi. Picha tamaddi qilvolish, bahonada oyoqning chigalini ham yozvolish maqsadida chakalakka chiqdim.

Bir vaqt qarasam, ho' anavi yo'ldan eshakarava ketib boryapti. Chetan<sup>1</sup>ning ichi liq to'la karam. Og'zim suvlashib, jig'ildonim likillay boshladi. Odamlarda „Omading yurishsa – ko'miringdan tillo, eshagingdan mullo chiqadi“, degan maqol bor-

---

<sup>1</sup> *Chetan* – xivichdan to'qilgan kajava, arava chetiga doira shaklida tiklab qo'yiladigan moslama.

ligini buvimdan eshitganidim. Meniyam bir omdim keldi-yu, g'ildiragi chuqurchaga tushgan arava qattiq silkingan chog'da, katta-katta ikkita karam chetandan tashqariga uchib ketdi. Mudrab borayot-gan aravakash buni sezmay qoldi.

Karamlarni ko'zdan panaroq joyga birin-ketini dumalatib kelib, yeishni qaysinisidan boshlasam ekan, deb taraddudlandim. Shunda, „Ishkamba“ laqabli qorindor To'ng'iz inqillagan kuyi qarshim-dan chiqib keldi.

– Ingq, ingq, karam muborak bo'lsin, Quyon-polvon! – dedi u oldimga yaqinlashib. – Qayoqdan eplashtirding bularni?

Ishkambaning menga bunaqa do'stona muomala qilganini sira ko'rmagandim. Birdan erib ketib: „Topdik-da endi“, deb suzilganimcha iljaydim.

– Judayam ajoyibsan-da, uka, – karamlarga so'lagi oqib tikilarkan, meni maqtashga tushdi Ishkamba. – Bilaman sen shovvozni, men bilan „ahmoq-ahmoq“ o'ynashni mo'ljallab turibsan, ingq. Ishkamba akangni ermak qilib, bir yayramoq-chisan-da, a?

Buning qanaqa o'yinligini surishtirgan edim, keksa To'ng'iz „bilaturib, meni kalaka qilyapsan“, deya avvaliga sal ranjigan bo'ldi, keyin shoshmasdan tushuntira boshladи. Uning aytishicha, bu o'yinda ikkita hayvon qatnasharkan. Ulardan biri ovqatlana-yotganida ikkinchisi „ahmoq kavshandi-yo, ahmoq

kavshandi-yo“, deb atrofida irg‘ishlab aylangani-cha mazaxlab turarkan. Juda qiziq o‘yin, to‘g‘rimi? Men ko‘p o‘ylanib o‘tirmay, o‘yinga qo‘shilishga rozi bo‘ldim. Ishkamba karamlarni „g‘irs-g‘irs“ qilib yeishga tushdi. Men uning tevaragida sakrab, „ahmoq kavshandi-yo, ahmoq kavshandi-yo“, deb chapak ura ketdim. Shu desang, masxara qilaverib – tomog‘im, irg‘ishlayverib oyog‘im og‘riy boshladı.

Ishkamba ikkala karamni chiqindi qoldirmay tushirib bo‘lgach, „Ho‘, g‘ilay, o‘zingdan o‘zing namuncha shataloq otasan?“ – deya ko‘zimga o‘q-raydi. Men yana picha „ahmoq-ahmoq“ o‘ynaylik, deb iltimos qilgan edim, u „ingq-ingq, o‘zing ahmoqsan“, deganicha kelgan tomoniga qaytib ketdi. Ortiqcha ahmoq qilganimdan xafa bo‘ldi shekilli.

...Menga bunaqa masxaraomuz iljaymagin-da, oshna. Nima, To‘ng‘izni boplaganimga ishonma-yapsanmi?

## XACHIRNING HIKOYASI

Ot – dadam, Eshak – ayam... Yo‘q, yo‘q, adashib ketdim. Eshak – dadam, Ot – ayam...

Ha, dadam – Eshak! Shuning uchun men Xachirman!

Agar dadam ham Ot bo‘lganida, men toychoq bo‘lib tug‘illardim. Yo aksincha, ayam ham Eshak bo‘lganida edi, hozir qarshingizda men emas, ketvorgan bir xo‘tik turardi.

Imkon boricha yo toychoq, yo xo‘tik bo‘lib tug‘ilgan yaxshi ekan. Xachirlik nimaligini xachir bo‘lgan biladi. Menga juda qiyin. Yaylovga chiqsam, bir tomonda ayam kishnay boshlaydi, bir tomonda dadam hangrab qoladi. Ayamning ketidan chopay desam, unga yetib yurolmayman. Dadamga ergashay desam, maydaqadamligi jonimga tegib ketadi. Bor-e, deyman-u, o‘zim boshqa yoqqa qarab baholi qudrat chopib ketaman. To‘rg‘aylar hushtak chalganlaricha orqamdan ermaklab qolishadi.

Oyoqlarimga boqib, pakana bo‘lsam ham, hartugur ayamga tortgan ekanman, deb yurardim. Tunov kun buloqda o‘z aksimni ko‘rib, bu fikrimdan qaytdim. Tumshug‘im bilan quloqlarim xuddi eshakni-kiga... e, uzr... dadamnikiga o‘xshar ekan. Turxatim ham ikkiyoqlama ekanligini payqab, ichikkandan ichikib ketdim. Qisqasi, na toychoqman, na xo‘tik. Katta bo‘lganimdan keyin ham odamlar meni otdek choptirishib, eshakday ishlatishsa kerak.

Bularni qo‘yib turaylik, muhimroq boshqa bir masala bor. Ko‘pdan buyon boshim qotib yuribdi – kishnasammikin, hangrasammikin? Kishnaganim bilan baribir meni hech kim tulpor demaydi. Bor-di-yu, hangrasam, unda chala eshak bo‘pqolaman. Menimcha, kishnagan-u hangraganga o‘xshaganroq ovoz topganim ma’qul.

...Ho‘, akasi bo‘yidan! Sen shu masalada menga durustroq maslahat berolmaysanmi?

## HAKKANING HIKOYASI

Odamlar meni o‘g‘ri deyishadi. Shuyam gap bo‘ldi-yu! Nima, boshqa qushlardan boyib ketgan joyim bormi? Ko‘pchilik qatori tirikchilik qilib yuribman-da. O‘zimga keragidan ortiqroq narsani o‘margan bo‘lsam, teshib chiqsin.

Farazlab ko‘raylikki, yog‘liqqina suzma qatinqni qurut qilishib, oftobga terib qo‘yishgan bo‘lsin. Tavarakda hech kim yo‘q. Masalan, siz o‘sha qurutlardan bir-ikkitasini totib ko‘rmasmidingiz? Faqat, oliftagarchilik qilmay, to‘g‘risini gapiring.

Yoki tomga yoyib qo‘yilgan yong‘oqqa duch kelib qoldingiz deylik. Nega endi undan uch-to‘rttagina chaqib ko‘rmaslik kerak ekan? Bilaman, shaxsan siz qorinniyam to‘ydirasiz, cho‘ntakkayam urasiz. Men bechorada esa, cho‘ntak degan narsaning o‘zi yo‘q.

Endi, tuxum masalasiga to‘xtalaylik. Qushlarning tuxumini qasddan o‘g‘irlaydi deb o‘ylasangiz, meni to‘g‘ri tushunmas ekansiz. Birovlar haqida, o‘ylamay-netmay, bo‘limg‘ur gaplar aytish odobdan emas. Sizdaqangilarni g‘iybatchi deyishadi.

O‘zingiz bilasiz, men ashulachiman. Ashulachi bo‘lgandayam, mayna-saynalarga o‘xshagan xashaki yallachilardan emasman. Terakning uchi-ga qo‘nvolib, bir shaqillashni boshlasam, ovozim yetti mahallaga taraladi. Shunaqa ajoyib ovozingiz

bo'lsa, siz ham kuniga xom tuxum yutib turishni kanda qilmasdingiz...

Iye! Ho' obdastaning yonidagi nima? Pishloq-mi? Voy, atirsovun-ku! Yerga tashlab qo'yishibi-di-ya. Hoynahoy, odamlarga ortiqchalik qilayotgan-ga o'xshaydi. Atrofda birov yo'qmi?

...Vey, shalpangquloq, nega xo'mrayib qolding? Ko'rib turibsan, havo tobora isib ketyapti. Ozgi-na sovun yesam, patlarim tulab, sal yengillayman. Axir, men o'zimga kerak bo'limgan narsani olayot-ganim yo'q-ku!

## CHIYABO'RINING HIKOYASI

Maktabga borishga hech oyog'im tortmay qoldi. O'qituvchimiz borgan sari qiyin savollar berib, miyamning qatig'ini chiqaryapti. Oldingi qatorda o'tirishning xosiyati yo'q ekan. Kuniga elakdan o'taman-da.

Mana, kechagi kunni olaylik. O'qituvchim meni o'rnimdan turgizib, „Xo'sh, ayt-chi, Quyon botqoqqa cho'kayotgan bo'lsa, biz nima qilishimiz kerak?“ – deb so'rab qoldi. „Serqamishroq joyni tanlab, ehtiyotkorlik bilan unga yaqinlashamiz“, dedim men.

– Balli! – dedi o'qituvchimiz.

Bu maqtovdan ko'nglim ko'tarilib, dadil so'zlashga tushdim:

– Judayam yaqinlashib qolganimizda, bir qo'li-

mizda baquvvatraq qamishning tubidan ushlab, ikkinchisini Quyonga cho'zamiz.

– Ofarin! – deya bosh irg‘ab iljaydi o‘qituvchimiz.

Men baralla sayrashda davom etib: „Quyon panjamizga ilindi deguncha, uni shartta o‘zimizga tortamiz“, dedim.

– Tasanno! – sevinganidan qichqirib yubordi o‘qituvchimiz. – Balo ekansan! Kallang zo‘r ishlayapti! Qani, uyog‘ini gapir-chi!

Shu yerga kelganda, nima deyishni bilmay, duduqlanib qoldim:

– Keyin... keyin...

Bu turishim o‘qituvchimizga yoqmadi shekilli, birdan qovog‘i osildi. Negadir toqatsizlana boshladi. So‘ng hozirgina meni „ofarin“ layotgan maxluq tuyqus to‘nini teskari kiyib: „Quyon changalingda turibdi, xumkalla. Gapga tuzukroq xulosa yasamaysanmi endi“, deb o‘shqirdi.

Men bahomning pastlab ketishidan qo‘rqib, picha o‘ylanib olgach, „Quyonning terisidagi loylarni tozalab tashlaymiz“, deb mung‘aydim.

– Gapniyam, ishniyam cho‘zvoryapsan! – so‘lagini yutib g‘ijindi o‘qituvchimiz. – Sen Quyonni mushkul ahvoldan qutqarding, ozod qilding. Oddiyroq tilda aytganda, Quyonga foydang tegdi. Endi Quyonning senga foydasi tegishi kerak. Xo‘sish, o‘yla-chi?!

Hanuz dudmallanib turganimni ko‘rib, o‘qituvchimizning battar jahli chiqdi:

– Qaysidir Quyon boshqa bir Quyonga tekinga yaxshilik qilishi mumkindir, – menga yeb qo‘ygudek bo‘lib o‘qraydi o‘qituvchimiz. – Lekin, biz Chiyabo‘rilmiz. Bizdagi falsafa boshqacha... O‘zimizga yarasha nafsimiz bor!

Tugalay dovdirab, nima deyishimni bilmay qoldim. Bundan o‘qituvchimizning fig‘oni falakka ko‘tarildir-yu, shartta bo‘g‘zimdan ushlab, meni o‘ziga yaqinroq tortdi.

– Avvaliga Quyonni ozod qilamiz, – ko‘zlariga qon to‘lib chiyilladi o‘qituvchimiz. – Qutqarganimizdan keyin, biz uni mana munday qilib...

U og‘zini katta ochib, o‘tkir tishlarini kekirtagimga yaqinlashtirgan pallada miyam yarq etib ishlab ketdi va bor ovozda: „Yeb qo‘yamiz!“ – deb qichqirdim. O‘qituvchimiz shu zahoti yengil tortib, meni qo‘yib yubordi.

– Borakansan-ku, xumkalla, – chehrasi yorishib, yelkamga qoqdi u. – Chiyabo‘ri deganning gapi mana bunaqa bo‘pti-da!

Ha, bitta „to‘rt“ olguncha, ona sutim og‘zimga keldi.

...Nima deding? Uchta tovuqqa ikkita o‘rdakni qo‘sksak, jami nechta bo‘ladi deysanmi? Bu masalani chiyabo‘richasiga oppa-oson hal qilish mumkin, og‘aynijon. Boshni ortiqcha qotirib o‘tirmaslik uchun ularni xappa yeb qo‘yamiz, qorinda o‘zları qo‘silib ketaveradi.

## BESHIKTERVATARNING HIKOYASI

Mana shu uvatning hammasi ilgarilari Beshiktervatarlarga qarashli edi. Bir kuni ochko'z Chigirtkalar yoprilib kelishdi-yu, biz ov qiladigan joylarni egallab olishdi. Tirikchiligidiz qiyinlashib ketdi.

Avvallari yemishni har qadamda uchratish mumkin edi. Endi kun bo'yi kuyib-pishib o'lja qidirasan-u, topganing oshqozonga jaz bo'lmaydi. Sakrog'ich Chigirtkalar deyarli hamma narsani zahri-mahriga yutib bo'lishdi.

Bu ko'rgiliklar kamlik qilganidek, o'sha chirilloq maxluqlarning do'qchilagini aytmaysizmi. Kecha ov qilib yursam, ulardan ikkitasi qarshimdan chiqib qoldi: bittasi vajavang semiz, boshqasi chakachak orig. Semizi menga ko'z qirida qarab qo'yib, sheringidan so'radi:

- Anavi so'ljayib turgan narsa nima?
- Dunyoda qalang'i-qasang'ilardan ko'pi yo'q,
- dedi orig'i. – Bu yashshamaguram birorta o'rma-lovchidir-da.

Semizi: „So'rab ko'r-chi, nimaga so'ppayib turib-diykin?“ – deya dimog'dorlanib suzilgan edi, orig'i menga ko'zini o'ynatib: „Ho‘, og‘zi bor! Nega biz tomonlarda ivirsib yuribsan?“ – deb shang'illadi.

Bu gaplar menga judayam alam qildi. O'zing tug'ilib o'sgan joyda bo'yin qisib yurishga maj-

bur bo'lsang-u, buning ustiga, kelgindilar seni goh mazaxlashsa, goh „qayoqdan kepqolding“ deb do'q urishsa, yurak-yuraging to'kilib ketmaydimi?

Ho'ngrab yig'laganimcha, uyga kirib keldim! Xuni-biyronligimning sababini eshitib, buvim men ga taskin bera boshladi:

– Xafa bo'lma, do'mboqcham, tirikchiligidir bir nav o'tib turibdi-ku, shunisigayam shukur qilaylik.

– Yo'q, buvijon, chidash qiyin, – dedim men. – Tunov kuni bittasi yo'limni to'sib, „Bizga o'xshab chirillashni qachon o'rganasan?“ deb dag'dag'a qiluvdi, endi boshqalari meni „qalang'i-qasang'i“ga chiqarishdi...

Buvim birpas xomush turib qoldi. Keyin chuqur uf tortib, mungli tovushda dedi:

– Chirilloq ochofatlarning urug'i ko'p, do'mboqcham. Ular bilan ortiqcha o'chakishma. Zo'ravonlargayam bir balolik kun bordir.

O'shanday kun qachon kelarkin, bilmadim. Balki, qish qattiqroq kechib, Chigirtkalarning tuxumi yoppa muzlab qolar. Qo'shnimiz buvimga shunaqa deyotganday bo'luvdi.

...Buncha esnaysan, bolakay, uyqi bosyaptimi deyman? Bunaqada qulog'ingga gap kirarmidi? Mayli, keyinroq dardlasharmiz. Hozir men tebranib turib, baxtiyorlik haqida alla aytaman, sen bir to'yib uxbab olgin bo'lmasa.

## CHUMOLINING HIKOYASI

Ishkom ostida timirskilanib yurib, daroyi uzumning urug'ini topib oldim. Qurib ketgur zil-zambil ekan, itarib ham, tortib ham joyidan siljitim bo'lma-di. Tavakkal qilib yelkalab olsammikin, deb turganimda, oldimdan „vish-sh“ etib bir badbashara maxluq chiqib qolsa bo'ladimi!

Enam kechagina yovuz ajdarho haqida ertak aytib bergen edilar. O'sha qonxo'r og'zini katta ochganicha oldimdan chiqib turibdi-yu hozir. U bilan solishay desam, ertakda ajdarhoni o'ldirgan Qilichbotir, afsuski, men emasman. Qo'limda siltansa qirq gaz cho'ziladigan qilichim ham yo'q.

Darrov es-hushimni yig'ib oldim-u, muloyimlik bilan unga ta'zim qildim.

– Assalomu alaykum, janob Ajdarho! – dedim.

Ajdarho avvaliga nechundir o'ng'aysizlanib, uyoq-buyoqqa qarab qo'ydi. Keyin birdan ko'krak kerib: „Gar saloming bo'lmasa, ikki yamlab bir yutardim“, deya menga ko'z olaytirdi. Men egilib, qaytadan ta'zim qildim.

Bir vaqt, boshimni ko'tarib qarasam, zumgina oldin qarshimda gerdaiyib turgan ajdarho yo'q. U janobning yerda yotgan barg ostiga shosha-pisha kirib ketayotganini arang payqab qoldim. Gap nimada ekanligini anglab ulgurganim yo'q ediki, osmondan bir pahlavon uchib tushib, gursillaga-

nicha yerga qo'ndi. Uning shabadasidan uch-to'rt yumalanib, yana oyoqqa turdim.

Pahlavon to'satdan patlarini hurpaytirib: „Ko'k-qurt qani?“ – deb so'radi mendan. Endigina so'zga og'iz juftlaganimda, bexos shamol ufurib, boyagi barg pildirab uchdi-yu, Ko'kqurt ismli ajdarho yalangda qoldi. Pahlavon shu zahotiyoy hamlaga hozirlanganini ko'rib, uning Qilichbotir ekanligini fahmladim. Enamning ertakda so'ylaganlari rost bo'lsa, ular endi qirq kecha-yu qirq kunduz jang qilishadi deya bezillab turgan edim, Qilichbotir bir kalla solishdayoq ajdarholi sulaytirib qo'ydi.

– Qoyil, Qilichbotir! – deb qichqirdim men, zavqlanib ketib.

– Og'zingga qarab gapir! – kutilmaganda meni jerkib berdi pahlavon. – Meni nega boshqalar bilan adashtiryapsan, tirrancha? Akkang qarag'ay yetti iqlimga dong'i ketgan mashhur Chumchuq polvon bo'laman-a!

U shunday deya, janob ajdarholi tishlab olgani-cha, yana osmoni falakka ko'tarildi.

Shu topda enamning yoniga shoshilyapman. Men unga ertak emas, Chumchuq polvon haqida o'z ko'zim bilan ko'rganlarimni aytib bersam, sezib turibmanki, og'zi lang ochilib qoladi.

...Xo'p, xayr, birodar. Sen ham bu g'aroyib hikoyani o'rtoqlaringga so'zlab berib, ularni yoppasi-ga angraytirib qo'ysang-chi.

## MUSHUKCHANING HIKOYASI

Odamlar „Mushuk ham tekinga oftobga chiqmaydi“, degan maqol to‘qishgan mish. Bu bekorchi gap bo‘lsa kerak deb o‘ylayman. Masalan, shaxsan men har kuni tomga chiqvolib, oftobda isinaman, lekin buning evaziga hech kimdan hech qanaqa haq talab qilgan emasman.

Tomda yotib, ba’zan uzoq-uzoqlarga termilib qolaman. Yer yuzi poyonsiz deyishadi. Bu gapga ishonish uchun dunyoga tomdan turib qarash kerak ekan. Men atrofni yaxshilab ko‘zdan kechirib chiqqanimdan keyin, yer yuzi mana shu tomga qaraganda kamida o’n besh marta katta bo‘lsa kerak, deb o‘ylab qo‘ydim. O’n besh marta-ya!

Tomda yotishning tag‘in bir foydali tomoni shundaki, bu yerdan hovlining hammayog‘i kaft-dek ko‘rinib turadi. Kecha mo‘rining yonida yotib, tandir ostidagi kavakdan allanimaning pildiraganicha chiqib kelayotganini payqab qoldim. Mundoq qarasam, kap-katta bir Sichqon uyalmay-netmay kalish chaynab o‘tiribdi. Achchig‘im qo‘ziganidan, dumim xoda bo‘lib, junlarim hurpayib ketdi. Miy-yov!

Vag‘illagan kuyi o‘zimni tomdan tashladim. Haligi kalishxo‘r nonushtani to‘xtatib, juftakni rostlab qoldi. Unga yetib olib, endigna tappa bosaman deb turganimda, oldimdan yer yutgur Qoplon chiqib qolsa bo‘ladimi. U vopira-vop qilib

menga tashlangan edi, o‘zim sichqonga aylan-dim-qoldim.

Qochib borayotib qarasam, tandirning yonida cheti siniq sopol tog‘ora to‘ntarilig‘ turibdi. O‘qdek uchib borib, o‘zimni o‘shaning tagiga urdim. Qoplon tirqishdan tumshug‘ini suqib, rosa irilladi. Bundan foyda chiqmagach, orqa oyoqlari bilan tog‘oraning ustiga tuproq changita boshladi. Itliging qo‘zimay o‘lgur-ey!

Qoplon qaytib ketganidan so‘ng olam birdan jimjit bo‘ldi-qoldi. Shunda tog‘ora ostida birovning „pish-pish“ nafas olayotgani qulog‘imga chalindi. Mundoq yonga o‘grilsam, bir chekkada hansiragani-cha boyagi Sichqonboy turibdi. Mendan qo‘rqibmi, itdan qo‘rqibmi, uyam to‘g‘ri shuyoqqa qarab qoch-gan ekan. Donishmand bobom: „Nodon qarshingda turgan bo‘lsa, sen aql bilan ish ko‘r“, der edilar. Tezda shu o‘gitga amal qildim. Go‘shtidan kalish hidi anqib turganini hisobga olmaganda, yog‘liqqi-na Sichqon ekan, maza qilib yedim.

Voy, esi past Sichqon-ey, boshqa joy qurib ket-gandek, kelib-kelib, tog‘oraning tagiga berkinganini qarang. Kallavaram-da. Bilmaydiki, yer yuzi mana shu siniq tog‘oraga qaraganda, kamida ming marta katta. Hatto, bir yarim ming marta katta bo‘lishiyam mumkin!

...Og‘ayni, sen ham yer yuzini o‘zingcha hech chamalab ko‘rganmisan?

## QURBAQANING HIKOYASI

Qur-r, vaq! Meni tanidingizmi? Ha, men o'sha boshi yapaloq, ko'zi shapaloq Qurbaqaman. Laqabim – Vaqvaqato'ra!

Ko'rib turibsiz, vaqtim choq. Bo'lmasam-chi! Hozirgina ikkita bo'rdoqi pashshani tutvolib, shappa-shuppa yamlab qo'ydim. Endi hovuzga kalla tashlab, bir cho'milsammikin deb turibman. Men sizga aytsam, qorin to'yganidan keyin chalqanchasiga suzib yurishning ham o'ziga yarasha gashti bor. Qancha ko'p suzsang, shuncha lanj bo'lasan. Ana undan keyin, baqato'nga o'ranvolib, miriqib uqlash mumkin.

Biroq, shunisi yomonki, uyqudan uyg'ongan chog'ingda qorning qaytadan ochqab qolgan bo'ldi. Shunda, tarvayib bir kerishasan-u, ko'zing jovdirab, yana ovqat axtarishga tushasan.

O'tgan kuni uyqusirab turib, bir sayoq Chumakarini yutib yuboribman. Itpushshaga o'xshatibmanda. Bir vaqt ichak-ichaklarimga igna sanchishni boshladi. Qurillab dodlaganimcha, satta paqir bo'yi sakrab, o'zimni yerga uraman deng. Ari chaqishi ni qo'ymaydi, men – qurillashimni. Yo'q, xayriyat, oxiri oshqozonimgayam bitta igna sanchdi-yu, shundayicha butunlay hazm bo'pketdi.

Baloyi azimdan qutulib olganimdan so'ng, mundaq qarasam, sayroqi qushlarni qafasda boqib yura-

digan sariqsoch bola menga suqlanib tikilib turibdi. Boya tinmay qurillayotganimda, chamasi, shirali ovozim unga yoqib ketgan bo‘lsa kerak. Qilig‘ing qur-r-g‘ur bolakay sayroqi qushlarga qo‘shib, meniyam bironta qafasga solib qo‘ymasin, dedim-u, hovuzga qarab ura qochdim. Men sizga aytSAM, qafasda yotib tayyor ovqat yegandan ko‘ra, erkin yurib, och qoringa ari yutgan ming marta afzal.

...Bu hikoyani aytishdan maqsadim, o‘rtoqchilik hurmati seni ogohlantirib qo‘ymoqchiman, toybola. Maslahatim shuki, uyqusirab turib ovqat yeishiga odatlana ko‘rmagin, buning oqibati judayam yomon bo‘larkan.

## JO‘JANING HIKOYASI

Mana, eson-omon tuxumdan chiqib oldim. O‘ziyam, tor joyda qisilib, qorong‘ida o‘lgudek zerikib ketuvdim.

Mendan keyin ukalarim ham tuxumlarini birin-  
ketin pachoqlashga tushdilar. Yorug‘likka chiqishgach,  
anchagacha ko‘zlarini ocholmay turishdi.  
Shumshayib o‘tirishlarini ko‘rib, kulging qistaydi.

Hozircha oltitamiz. Men-u, yana bittamiz o‘g‘il,  
qolgan to‘rttasi qiz. Yettinchi tuxum haliyam singani  
yo‘q. Ayam bechora bundan xavotirda. Dam tuxumni  
bosib yotadi, dam unga asta qulq solib ko‘radi –  
jimjit. Qachongacha yotar ekansan, deb qo‘yaman

o'zimcha. Qayoqqa borardi, baribir chiqadi. Keyin, dadamdan bir kaltak yeishi bor bu yalqovning.

Ha, aytganday, judayam zo'r dadam bor-da. Boshiba qip-qizil toj, bitta-bitta qadam tashlab yurishini ko'rsang, havasing keladi. Ko'p gapirmaydi, faqat ba'zan ko'kragini kerib turib, ma'nodor qichqirib qo'yadi: „Chi-chi-chiy chiy-y-y!“

Yo'q, o'xshatolmadim. Tilim kelishmayapti.

Ayamning aytishiga qaraganda, shu yaqin-atrofdagi xo'rozlar dadamni ko'rdi deguncha, chumchuqlardek tiraqaylab ketisharkan. Lekin, ochig'ini tan olsam, Chumchuq nimaligini o'zim ham unchalik tushunolmay turibman. Uni qo'ying, buni qo'ying, payti kelib, men ham dadamdek polvon bo'pketsam-a!

E, xayriyat, ana, yettinchi tuxum ham yorildi. Iye-iye! Bunisi kim bo'ldi endi? Na menga o'xshaydi, na ukalarimga. Tumshug'i yap-yapaloq, oyog'iyam boshqacha – panjalarining orasida pardasi bor. Voy, tavbangda ketayin-ey!

– Bu o'rdak-ku! – deya birdan shovqin soldi ayam. – Menga o'rdakning tuxumini bostirishibdi. Muttahamlar!

Dadam kenjatoyga hafsalasiz kayfiyatda qarab qo'ydi-yu, indamay yuzini o'girdi. Kenjatoy bo'lsa, e yo'q, be yo'q, chopganicha borib, o'zini suv to'la jomchaga otdi. Bir-ikki sho'ng'ib olgach, gerdayganicha suzishga kirishdi.

Oxiri aytganim keldi – betasir kichkintoy dadamning bitta tarsakisini yedi-yu, jomchadan chetga uchib tushdi.

Boshqalardan kattaroq bo‘lganim uchun, ularni tergab turishga haqqim bor. Shuni hisobga olib, tarsakidan zada yemay, yana jomchaga tirmasha-yotgan kenjatoyga qarab o‘shqirdim:

– Vey, o‘rdak! Qoch jomchaning oldidan!

Go‘yo gapimga tushunmayotgandek, bezrayib turishini qarang. Yapaloq tumshug‘ingdan o‘rgildim seni! O‘rdak bo‘lsang, o‘zingga!

... Oshna, uqtiribroq ayt-chi, O‘rdak degani nima o‘zi?

## XO‘TIKNING HIKOYASI

Ko‘p narsaga qiziqaman. Shu tufayli kechalari uxlamasdan o‘ylanib yotaman. Hozircha kallam balodek ishlab turibdi, farosatim joyida. Men bilan u-bu narsalar to‘g‘risida bir-ikki og‘iz gaplash-sangiz, ishonchim komilki, zehnim o‘tkirligini sezib, hang-hang... yo‘q, hang-mang bo‘pqolasiz.

Siz, masalan, nima uchun chaqmoq chaqib, keyin momaguldirak bo‘lishini bilasizmi? Qo‘ying, xijolat tortmang, buni o‘zim tushuntirib qo‘ya qolay.

Xullas, bulutlar suzib boraveradi, suzib boraveradi, suzib boraveradi, oxiri birdamas-birda tog‘ning cho‘qqisi bilan to‘qnashadi. Agar ikkita

chag'ir toshni bir-biriga urib ko'rgan bo'lsangiz bilasiz, bunday paytda „chars-churs“ o't chaqnaydi. Ana sizga chaqmoq! Bulut cho'qqiga urilganidan keyin, o'z-o'zidan ma'lumki, hammayoq larzaga keladi. Qarabsizki, qanordek-qanordek toshlar guldiraganicha pastga qarab yumalay boshlaydi. Ana sizga momaguldirak!

Ha, bu ancha chigal masala. Hammaning ham tezda fahmi yetavermaydi. Keling, sizga boshqa osonroq savol berayin. Qani, ayting-chi, nima uchun aravaning g'ildiragi yumalog'-u, derazaning ko'zi to'rtburchak? Eha-a-a, shuniyam bilmayman deng? Mayli, bunisiniyam o'zimiz uqtirib qo'yaylik bo'lmasa.

Xo'-o'-sh... Umringizda biror marta yumaloq oynakni ko'rganmisiz? Bilaman, ko'rmagansiz...

Bunaqasini hech kim ko'rmagan. Chunki, odatta, oynaklar korxonadan to'rtburchak qilib chiqariladi. Shunday bo'lgandan keyin, derazaning ko'zini ham o'sha oynakka moslashtirib, to'rtburchak shaklda yasashga to'g'ri keladi. Aravaning g'ildiragi esa oynak solinmaydi, shuning uchun u yumaloq. Mana, gap qayerda!

... Ho', bolakay, menga qarab nega xo'shshayi-i-b qolding? Biron-bir jumboqqa aqling yetmay turibdimi deyman-da. Savoling bo'lsa, tortinmay so'rayver, men hamma narsani bilaman.

## QOVOG‘ARINING HIKOYASI

Bir uchishda bug‘doyzorning ustidan to‘xtamay o‘tib ketishni niyat qilgan edim, bo‘lmadi. Yarim yo‘lda motorim qizishni boshladi-yu, birdan tezligim kamayib, noiloj pastga sho‘ng‘idim. Dirillaganimcha borib urilganimda, bug‘doy poyasi kamalakdek egilib, men tirmashib turgan boshqo yerga tegdi, so‘ng, hayinchakda uchgandek, yana balandga ko‘tarildim. Qarang-a, buyoqda tap-tayyor o‘yin bor ekan-u, bilmasdan yurganakanman. Endi bekorchilikda mana shunaqa „halov tuya“ o‘ynab tursam bo‘larkan.

Hozir vaqtim ziq. Ho‘ pichanzorda Ninachi bilan uchrashishim kerak. Uning ota-onasi meni mehmonga chaqirishibdi. Qani, borib, ninachilarining ovqatidan ham bir tatib ko‘raylik-chi.

Ninachi bilan juda g‘alati vaziyatda tanishib qoldim. Ilgari kuni pichanzordagi kurmaklardan biriga qo‘nib dam olib tursam, sochiga ko‘k latta bog‘lagan bir qizaloq yonimdan oyoq uchida ehti-yotkorona odimlab o‘tib qoldi. Orqaroqda kelayotgan bolakay esa: „Vertolyot kichkina ekan, avaylab ushlagin“, deb pichirladi unga.

Vertolyoti nima ekan, deb mundoq qarasam, nariroqdagi qiyoqning uchida chiroyli bir Ninachi qo‘nib turibdi. Qizaloq barmoqlarini ombir qilvolib, uning ortidan asta pisib boryapti. Men qanotlarimni

zirillatganimcha Ninachi tarafga otildim-u, dumiga bir kalla solib o'tib ketdim. Ikkalamiz birin-ketin havoga ko'tarildik.

— Namuncha anqayasan, oshna? — Ninachiga qichqirdim, uchib borayotib. — Anavi pismiqlar seni ushlagani poylab kelishayotuvdi!

Shunda, boyagi bolakay pastdan turib: „Hap senimi, bombardimonchi!“ — deya menga musht o'qtaldi. „Bombardimonchi“ nimaligini aniq bilmayman-u, taxminan aytganda, bu — chaqimchilarga qo'yilgan yangicha laqab bo'lsa kerak. Topdimmi?

Gapning qisqasi, o'shandan beri Ninachi bilan inoqlashib ketdik. Mana, bugun — mehmondorchilik.

...Xohlasang, seniyam birga olib borishim mumkin, og'ayni chalish. Lekin, boradigan bo'lsang, avval motoringni yaxshilab sovutib ol.

## SUVARAKNING HIKOYASI

Mish-mishlarga qaraganda, bir zamonlar bu yerda jangovar qo'rg'on bo'lgan ekan. Urushlarda buzilib-buzilib, qor-yomg'irlarda nurab-nurab, undan mana shu bir parchagina devor qolibdi xolos. Bu devor shunaqayam serkavakki, pastdan turib boqsang, shaharlardagi ko'pqavatli binoga o'xshab ko'rinadi. Ana shu binodagi xonalardan bittasida men yashayman.

To'g'risini aytsam, qo'shnilarim ichida istarasi issiqrog'i o'zimman. Masalan, o'ng tarafimdag'i xo-

nada Buzoqboshi, chap tomonimda Kaltakesak tura-di. Ikkovi ham bir-biridan badbashara. Tagimdag'i xonada istiqomat qiluvchi Qirqoyoqqa kelsak, yanayam tasqararoq. Ba'zan, qadam olishiga razm solib, oyog'ing saksonta bo'lgandayam, baribir menchalik poyga chopolmaysan, deb o'ylab qo'yaman.

Qo'shnilarim orasida eng turqi sovug'i, bu – Chayon. Siz faqat uning aftini ko'rgansiz, ammo hali gaplashmagan bo'lsangiz kerak. Gaplari sumbatidan ham sovuq!

Bundan uch-to'rt kun oldin bu ablah ta'bimni shunaqayam tirriq qildiki...

O'sha kuni, odatdagidek, novvoyxonaga borib, „hayov-hayov“lab uvoq yedim. Ko'zim to'yib, nafsim qonib, qorinni chirmanda qilganimcha uyga qaytib kelayotsam, yo'lda to'satdan yomg'ir shivalab qoldi. Yugurib borib, ariqcha yoqasidagi zahar zamburug'ning tagiga kirib oldim. Bir mahal qayoqdanam Chayon paydo bo'ldi-yu, halloslab kelib, uyam zamburug'ning ostiga suquldi. Orqa oyog'imni bosganicha, taqqa to'xtadi. Boldirlarim qirsillab ketgan bo'lishiga qaramay, tishni tishga bosib, sekingina ming'irladim:

– Ho', aka, oyog'ingizning tagidan chiqib ketsam, maylimi? – dedim.

Shunda, Chayon cho'chib yonga o'grildi-da, meni ko'rib, birdan dumini gajak qildi.

– Mog'or kiyimda nega menga suykalasan, vey? – deb o'shqirdi u. – Yo'qol ko'zimdan!

Keyin, o'xshatib turib, ketimga bitta tempsa bo'ladimi! Quymichimdan o't chiqib ketdi.

U kaltafahm bilan adi-badi aytishib o'tirmadim. O'zimni zo'rg'a bosib, sekin yo'lga tushdim. Uyga yetib kelgunimcha shalabbo bo'lib ketgan ekanman, tuni bilan isitmalab chiqibman deng.

Ha, bu Chayon degani shunaqa maraz maxluq. U bilan qo'shnichilikni allaqachon yig'ishtirib qo'yganman.

...Mana, tanishib ham oldik. Yana biz tomonlarga kelib qolsang, tortinmasdan to'g'ri uyimga kirib boraver, bolakay. Manzilimni yozvol: buzuq qo'rg'on, eski devor, chapdan o'n ikkinchi kavak. Yozib bo'ldingmi? Qani, bir ko'ray-chi... Mana shunaqa-da, men o'n ikkinchi kavak desam, sen o'n yettinchini yozibsani. O'chir! O'chir darrov! Bilasanmi, o'n yettinchi xonada kim turadi? U yerda o'sha la'natni Chayon yashaydi-ya!

## TOSHBAQANING HIKOYASI

Dushanba og'ir kun deganlari to'g'ri ekan. Bugun havo shunaqayam isib berdiki, nafas olsang, xuddi cho'g' yutayotgandek bo'lasan. Hali hech qancha yo'l yurganim yo'g'-u, sillam qurib, to mog'im qaqrab ketdi.

Odamlarning bolalariga maza-da. Ular bunaqa paytda salqin joyni topvolishib, muzdek sharbat ichib o'tirishadi, yo bo'lmasa, burunlarini tortib-

tortib, muzqaymoq yalashadi. Umuman, toshbaqa bo‘lib ming yil sudralgandan ko‘ra, odam bo‘lib yuz yilgina yashagan ma’qul ekan.

Sezib turibman, shunchalik holing bor ekan, safarga chiqishni senga kim qo‘yibdi, deb o‘yla-yapsiz.

Ho‘ bo‘yterakni ko‘ryapsizmi? O‘sha tomonda bitta xolam bor. Xolamning kenja chevarasi qadr-don oshnam. Kelasi dushanbada o‘sha kichkintoy o‘rtog‘im bir yuz o‘n yoshga to‘ladi. Uni tabrikla-gani ketyapman.

Nega menga bunaqa qaraysiz? Bir hafta oldin yo‘lga chiqqanimdan hayron bo‘lyapsiz shekil-li? Nima, men ayg‘irmidimki, oyog‘imga taqa qoqvolib, tosh yo‘ldan shaqira-shuqur chopib ketsam? Orqamdan it quvlasayam, bo‘lgan-bit-ganim shu.

Ana xolos, gap bilan bo‘lib, qumloqqa chiqib qolibman-ku. Hammadan ham anavi do‘nglikka to‘g‘ri kelib qolganimni ko‘rmaysizmi. Ishlar chat-toq endi. Bunaqa do‘nglardan ko‘-o‘-p pand yegan-man. O‘lib-tirilib tepaga chiqdim deganingda, bir sirg‘anasan-u, o‘zingni yana pastda ko‘rasan.

...Umringda birovga yaxshilik qilganmisan, do‘stim? Malol kelmasa, meni do‘ppingga solib, ana shu do‘ngdan o‘tkazib qo‘ygin. Nima bo‘lgan-dayam, yaxshi niyat bilan yo‘lga chiqqanman, ziyo-fatdan quruq qolmayin tag‘in.

## ULOQCHANING HIKOYASI

Ota-onamdayam, o‘zimdayam soqol bor. Bir qarashda, uchalamiz bir xilga o‘xshaymiz. Lekin, jundayam unaqa emas. Masalan, dadamning bo‘yniga qo‘ng‘iroq osib qo‘yilgan, ayamning bug‘ularnikidan ham chiroyliroq burama shoxi bor, mening esa chap ko‘zim shilpiq. Qanday kasalim bor demang, „Karamga kunjara qo‘shib yesang, dorisi – shu“, deya hammaga bir xil javob qiluvchi keksa Taka-tabibning taxmini to‘g‘ri chiqsa, ko‘zim kuzga yaqin tuzalib ketishi kerak.

Yaylovimizda Maymun degan betasir maxluq paydo bo‘lmasidan ilgari ikkala ko‘zim ham soppa-sog‘ edi. Ozgina ehtiyotsizlik qilib, boshimga shu ko‘rgilikni orttirib oldim.

O‘shanda erta bahor edi. Har galgidek, bizni saharlab o‘tloqqa haydashdi. Serkavoy degan nomi bilan faxrlangandan-faxrlanuvchi dadamning ortidan saf tortib, qo‘ng‘iroq tovushiga qulq solganimizcha yo‘lga tushdik. Buloq bo‘yidagi tog‘olchaning ostidan o‘tib borayotgan vaqtimizda „zuv-v“ etgan ovoz eshitilib qoldi. Kattakon archa bujuri toshdek uchib kelib, dadamning qoq kallasiga tar-sillab tegsa bo‘ladimi!

Dadam sho‘rlik bir shataloq otdi-yu, tomog‘i yirtilgudek bo‘lib ma’rab yubordi. Amaldorning bunaqa ahvoli chetdan juda kulgili tuyular ekan.

Mundoq qarasam, nariroqdagi archaning baland shoxida bir tasqara hayvon tirjayib o'tiribdi. Ko'zлari bejo. Men: „Anavi shaytonni qaranglar!“ – deb qichqirgan edim, Taka-tabib: „Be-e-e, bu Maymun-ku“, deya burnini jiyirdi.

Dadamning alamini olish uchun qo'y-qo'zilarni ikki tomonga surib, picha orqaga tisarildim-da, tapira-tupur qilganimcha borib, jon-jahdim bilan archaga kalla soldim. Maymun shoxdan uzilgan ol-madek tap etib oldimga tushsa kerak, deb o'ylov-dim. Yiqilmadi battol. Taajjublanib tepaga qaraganimni bilaman, u afting qurg'ur shuni poylab turgan ekanmi, qo'lidagi archabujur bilan o'xshatib sopqoldi-ku. Chap ko'zimdan o't chaqnadi. Behush yiqilib qolibman deng.

Keyin surishtirsak, o'sha Maymun hayvonot bog'idan qochib kelgan ekan. Odamlar uni erta-sigayoq ushlab ketishibdi.

Chakki bo'libdi-da. Shu yerda yurganda, u ajina-bashara bilan yakkama-yakka solishib ko'rardim. O'ziniyam bundan keyin qo'liga archabujur ushla-maydigan qilvorardim-da.

...Sochingni tarab-tarab turishingga qaraganda, sen ancha madaniyatli bolaga o'xshaysan. Hayvonot bog'igayam borib tursang kerak, a? Yana borib qolsang, o'sha Maymunga aytib qo'y, agar qo'limga tushsa, naq jig'ini ezib tashlayman. Keyin, o'zing ham chap ko'zingga ehtiyyot bo'lgin, xo'pmi?

## SUVKALAMUSHNING HIKOYASI

Cho'rtanbaliqlarni yaxshi bilaman, birovni nazar-pisand qilishmaydi. Tarvaqaylagan mo'ylovlari dan quvonishadi shekilli. Ularda bor mo'ylov bizdayam bor, lekin shu paytgacha begonalarga ortiqcha gerdaymaganmiz.

Men, hatto, o'zimdan kichik Tangabaliqlarniyam hurmat qilaman. Mabodo, qornim ochib qolsa, ular dan birortasini yaxshilikcha tutib olaman-da, hech bir qo'pollik ishlatmay, silab-siypab turib, pok-pokiza yeb qo'yaman. Manavi boshqa gap. O'zgalarga nohaq ozor berishning nima keragi bor? Zo'ravonlik qilib hali hech kim baraka topmagan. Jumladan, Cho'rtan ham baraka topmadi.

Uchiga chiqqan zo'ravon edi Cho'rtan. Yomon ning bir qilig'i ortiq deganlaridek, mening asabimga tegmasdan turolmasdi. Tashqarida uchrashib qolsak, ko'rmaganga olib, dumida biqinimga bir turtib o'tardi. Ichkarida yotsam, inimning og'ziga kelib, suvni ataylab loyqalata boshlardi. Bir narsa deyay desam, gavdasi menga ikkita keladi.

Oxiri jonimdan o'tib ketdi. Kecha: „Ke, nima bo'lsa bo'lar!“ – dedim-u, baqato'nning tagiga kirib olib, uning yo'lini poylashga tushdim. Bir mahal so'ljayganicha suzib kepqoldi. Tepamdan o'tayotgan chog'i, bir sapchib, bo'g'zidan kirt tishlab oldim. Jon shirin-da, bir zum tipirchilab

turdi, keyin sulaydi-qoldi. Tevaragimga olazarak qarab qo‘yib, uni sekingina inimga sudrab kirdim. O‘ziyam toza yetilgan ekan, kechadan beri yeb tugatolmayman.

Ertalab, quyuq nonushtadan keyin tashqarida kerishib tursam, yonimdan yalpayganicha Zog‘orabaliq o‘tib qoldi. U oldimda to‘xtalib: „Qo‘shning Cho‘rtanbek ko‘rinmaydimi?“ – deya shamador savol berdi. Men chaynalib o‘tirmay „sayr-u sayohatda yurgandir-da“, deb, tish kavlashni bemalol davom ettirdim.

Shunaqa ezmalarни jinim suymaydi. O‘zing sog‘-omon qiltinglab yurganingga shukur qilsang-chi, lodon. Boshqalar bilan ishing nima?

Harqalay, Zog‘orabaliqqa qisqa javob qilganim yaxshi bo‘ldi. Dadam rahmatli „ko‘p yegin-u, kamroq gapirgin“, derdilar. Haqiqatan ham, yuzta gap gapirgandan ko‘ra, bitta baqa tutib yegan ma’qul. Gap bilan qorin to‘yarmidi?

...Mana, hammasini o‘z qulog‘ing bilan eshitding. Xo‘sish, oshnaginam, mening xulq-atvorim haqidagi nimalar deya olasan?

## ECHKIEMARNING HIKOYASI

Timsohning jiyaniman. Bir davrlar daryoda tog‘am bilan birga yashardik. Qurg‘oqchilik yillari suv tuyqusdan kamayib ketdi-yu, ikkalamiz tor joyda juda qisilib qoldik. Buning ustiga, tog‘am oriyatimga tegadigan bir-ikkita gap aytib, g‘ashimni keltirib qo‘ydi. Shundan keyin, „hayyo-huyt“ deb, cho‘l-biyobonga bosh olib ketvordim.

Dastlabki oylarda jaziramaga chidayolmay, -tomog‘im qaqrab yurdi, so‘ng bora-bora ko‘nikib qoldim. Sahro daryo emas, bu yerda yashaydigan jonzotlar sanoqli. Agar epchilroq bo‘lmasang, ochingdan xarom o‘lasan. Shu bois, kalamushdan tortib qo‘ng‘izgacha birvoshdan tutib yejavverdim. Gap o‘rtamizda qolsin-u, bir kuni, payt poylab turib, kasallanib yotgan Chiyabo‘riniyam shippa gumdon qildim. Xayriyatki, uning bezori oshnalari buni payqamay qolishdi.

Qishloq tarafga borishni o‘rganib olganimdan keyin, yangi bir hunar orttirdim. Echki degan yuvvoshgina jonivor bo‘larkan, emsang indamay tura-veradi-da. Yo qo‘rqidan taxta bo‘p qoladimi, bilmadim. Lekin, soqolchangdan akang aylangurning suti shunaqayam shirin, shunaqayam to‘yimlik, yaxshilab emib olsang, ikki kun ovqatlanmay yuraverasan.

Afsuski, bu xursandchiligidan uzoqqa cho‘zilma-di. Odamlar echkini emib turganimni ko‘rib qo-

lishib, meni biram achitib so‘kishdi, biram tiraqaylatib quvishdiki, eson-omon qutulib ketganimga hanuz shukur qilaman.

Timsoh degan dabdabali nomim ana o‘sandan so‘ng rasvo bo‘ldi. Odamlar menga „Echkiemar“ degan laqab tirkashdi. Nafsi buzuqlikning oqibati yomon bo‘larkan, mana, oxiri sharmandali laqab orttirib oldim.

...Jon, o‘rtoqjon, shu odamlar bilan bir gaplashib ko‘rmaysanmi? Agar, ular meni qaytadan Timsoh deb atashga rozi bo‘lishsa, men ham bugundan boshlab o‘shalarning echkisini emmaganim bo‘lsin. Bunga ko‘nishmasa, o‘zlaridan ko‘rishsin!

*1978–1983-yillar*

# HAKKA XOLANING IG'VOLARI



## BAHROM HAQIDA IG‘VO

Turishini qarang – qo‘li cho‘ntakda, og‘zi qu log‘ida. Xuddi birov tekinga xo‘rozqand berayot gandek iljayadi. Undan ko‘ra, uyga kirib “Alifbe” titkilasang-chi, ko‘chada nima bor senga.

O‘taketgan qizg‘anchiq bola shu Bahrom. Tun kun qarab tursam, bir qo‘lida sumka, bir qo‘li pashmak, shipillaganicha matabga ketyapti. Sun kaga boqib afti bujmaysa, pashmakka qarab chehr si ochiladi deng.

– Ho‘, Bahromboy, – dedim unga, – qo‘lingdi narsani ikkiga taqsimlasak qalay bo‘larkin?

To‘g‘ri-da, hozirgi maktab bolalar judayam olg‘ Birpasda boringni shimo qilishadi. O‘zingga he balo qolmaydi.

Galvars bola bunga tushunarmidi? Ko‘nm ochko‘z. Shundan keyin, mana bo‘lmasa, dedim shartta uning sirini oolib tashladim. Qanaqa deysizmi? Hali eshitmaganmisiz? Mayli, ayts aytaqolay, siz ham o‘zimizdansiz.

Aniq bilamanki, bu yil birinchi sinfga o‘ttiz chi sentabrgacha tug‘ilgan bolalarni qabul qilish Bahrom esa, to‘rtinchi oktabrda tug‘ilgan. Bu yam aniq bilaman. Shunga qaramay, to‘paloy u ham maktabga ilashib qoldi. Bilsam-bilmash o‘qituvchilari uning hujjatini tuzukroq teksh ko‘rishmagan. Bolaning aqli kalta bo‘lsay bo‘yi qurg‘ur balandgina. Ana shu bo‘yiga qar

turib, uni bilmasdan maktabga opqo'yishgan deb o'ylayman.

Qisqasi, Bahrom qizg'anchiqning sir-asrorini bir-ikkitasiga sekin shipshitib qo'ydim. Dunyoda siz bilan menga o'xshagan maydagaplar ko'p. Bit-tasi bo'lmasa boshqasi bu sirni oxiri maktab direktoriga yetkazishi turgan gap. Shundan keyin, hujjat tekshirish boshlanadi. Bir vaqt qarabsizki, kelasi yilgacha xayr, deyishib, Bahromboyni maktabdan o'chirib yuborishadi. O'shanda bir yayrab ermak qilamiz-a uni?

Farosat yo'q-da bolada. Agar farosati bo'lsa, ke-lib-kelib, Hakka xoladan bir cho'qim pashmakni ayab o'tirarmidi? Battar bo'lsin!

## IKROM HAQIDA IG'VO

Oldinlari uni tappa-tuzuk bola deb yurardim. Endi bilsam, tarbiyasi judayam bo'sh ekan. Yaxshi tarbiya ko'rgan bolalar qotirligan hakkani tomosha qilgani ataylab muzeyga borishadi. U bo'lsa, tirigini ranjitib o'tiribdi-ya.

Kecha u dikonglaganicha tomorqaga kirib ke-lib, tovuqlarga makka sepdi. Keyin eshak olmaning tagiga borib, shoxga kesak ota boshladи.

Qarasam, makka ko'p, tovuqlar oz. Bir chekkadan sekin davraga kirib, rizqimni terib yeishga tushdim. Ertalab go'ngtepada chalaroq nonushta qilgan ekanman, ishtaham shunaqayam ochilib ketdiki!

Bazm avjga mingan pallada “g‘uv-v” etgan tovush eshitilib qoldi. Chumchuqdek keladigan bir kesak shundoqqina tumshug‘imning yonidan uchib o‘tib, qarsillaganicha katakning eshigiga urildi. Tovuqlar jon halpida har tarafga qochib qolishdi. Men bu chog‘da allaqachon terak bo‘yi balandlikka chiqib olgan edim.

O‘ylaganim sari menga shunisi alam qiladiki, yegan bo‘lsam, tovuqlaring donidan yebman-da, Ikromga nima? Men sizga aytsam, dunyoda hasadgo‘ylikdan yomon narsa yo‘q. Bunaqalar o‘ziyam yemaydi, birovgayam bermaydi. Dardi bedavo-da.

Avval aytmasam ham, endi aytaman. Uning laqabi – “Sariqvoy”. Bir marta “sariqvoy” desangiz, g‘ashi keladi. Ikki marta aytsangiz, baqirib beradi. Uchin-chisida dunyoni boshiga ko‘tarib yig‘lashga tushadi.

Shunchaki qiziqchilik uchun bir jig‘iga tegib ko‘rmaysizmi?

## **NODIRA HAQIDA IG‘VO**

Chetdan qarasangiz, yuvoshgina qizaloqqa o‘x-shab ko‘rinadi. Aslida, judayam mug‘ombir. Had-dan tashqari mug‘ombirligini shundan ham bilsa bo‘ladiki, o‘zi bir og‘iz gapirolmaydi-yu, hamma gapga tushunadi. Masalan, choynakka tegma, de-sangiz o‘zini go‘llikka solib, indamay o‘ynayveradi. Lekin, qand yeysanmi, deb so‘rab ko‘ring-chi. Tezda tushunib, shosha-pisha bosh qimirlatmasa, mayli, patimni yulib tashlang.

Ertalab u, ochiq qolgan uy eshigidan uyoq-buyoqqa mo'ralab olgach, tetapoya bosganicha ayvonga chiqib keldi. Xurmoning ustidan aniq ko'rib turibmanki, qo'lida bir bo'lak pishloq ham bor, uni yo og'ziga solmaydi, yo bo'lmasa tashlab yubormaydi. Bir mahal supurgiga qoqinib, gupillaganicha yiqilib tushdi-yu, qo'lidagi pishloq nariroqqa uchib ketdi. Shundan keyin ikkala qo'li bilan ko'zini ishqagancha ho'ng-ho'ng yig'lay boshladи.

Yomon yiqilgani rostmikan, yoki shunchaki ayyorlanib yig'layaptimikan, deb o'yladim o'zimcha. Xurmodan pastga tushdim-u, uni sinash uchun asta-sekin pishloqqa yaqinlasha boshladim. O'zingiz ayting-chi, joningiz og'rib turgan chog'da ovqat haqida hech o'ylaganmisiz? Nodira bo'lsa meni ko'rди-yu, kela solib pishloqqa yopishdi. Yig'ini to'xtatib, menga shunaqayam xo'mrayib qaradiki, chetdan kuzatib turgan odam Hakka xola ilgarilari ham uning pishlog'ini yeb yurarkan-da, deb o'yashi hech gapmas.

Nodiraning mug'ombirligiga endi ishongandir-siz? Uning pishlog'ini yeymان deb ovora bo'lmanг, qo'lidagi narsani olish taxtadan mix sug'urishdan ham qiyin.

## RAVSHAN HAQIDA IG'VO

Anavini qarang-a! Kelib-kelib, Ravshanni maqtab o'tiribsizmi? Agar u epaqaliroq bola bo'lsa, men bilan allaqachon do'stlashib olgan bo'lmas-

midi? Axir men bu ovuldagi eng hurmatli Hakka-lardanman-a!

Umuman aytganda-ku, bunaqangi o‘rtoqqa ko‘zim uchib turgani yo‘q. Chunki u ba’zi bolalar-ga o‘xshab shokolad yenish o‘rniga “chapa-chup, chapa-chup” qilib kun bo‘yi oqsaqich chaynaydi. U bilan oshnachilik qilishdan menga nima foyda? Tantiligi qo‘zigan paytda menga beradigan saqichi-ni boshimga uramanmi? Hamma biladiki, biz Hak-kalar och qolganda hatto shisha sinig‘ini yutishimiz mumkin, biroq ustiga nisholda surtib berilgandayam saqich chaynamaymiz.

Og‘zidagi narsaning yenishga yaroqsizligini qo‘yib turing, o‘ynaydigan o‘yinchog‘iyam bir pulga qimmat. Miltiqchasiga piston solib otilda, xuddi rostakamday varanglaydi. O‘tgan kuni so‘rida tur-gan parvardani mo‘ljallab borayotuvdim, orqadan gumburlatib qolsa bo‘ladimi. Shoshilishda boshimni so‘rining suyanchig‘iga urib oldim. Peshanamda-gi g‘urrani ko‘ryapsizmi?

Hm... qolgan gapni keyinroq gaplashadiganga o‘xshaymiz. Tarillagan tovushdan sezib turibman – dadasingin motosikliga mingashib Ravshan kel-yapti. Sal chekkaroqda turganim yaxshi. Kim biladi deysiz, balki qo‘lidagi miltig‘i o‘yinchoq emasdir. Tag‘in “paq” etkizib...

Hozircha jonim tirikchiligimga yarab turibdi.

## MO‘MIN HAQIDA IG‘VO

Beshog‘ayni mahallasida Mo‘mintoy degan bir bedavo bola bor. Balki, uni o‘zingiz ham tanirsiz – peshanasi do‘ng, burni puchuq. Shu bola menga kun bermay qo‘ydi-da.

Ularning tashqisi ham, tomorqasi ham yoppasiga ishkom. Uzum deganingiz shig‘illab yotibdi. Garov o‘ynagandayam, buncha uzumni bitta mahallaning odami yeb tugatolmaydi. Shunday bo‘lgandan keyin, to‘rtta hakka bilan beshta chumchuqning cho‘qigani qayoqqa borardi?

Mo‘mintoy bo‘lsa, ishkomning tagiga o‘tirvolib, bizni quvlagani-quvlagan, shaqildoqlarning ipini tortib “jangira-jungur” qilgani ortiqcha. Qiyalab uchib borib, o‘sha shaqildog‘ini bir tepib o‘tay deyman-u, yana u yerga tuzoq-puzoq qo‘yilgan bo‘lmasin deb o‘zimni bosaman.

Boya payt poylab turib, husaynidan bir dona olib qochdim. Oh, oh, oh! Shirasi tilni yoradi deng. Qani endi birov indamasa-yu, bemalol so‘ritokka qo‘nvolib uch-to‘rtta shingilni bir boshdan cho‘qilab chiqsang. Qayoqda deysiz, ana, haliyam “jangira-jungur” qilib o‘tiribdi. Kunda shu ahvol.

Aslida, hamma ayb uning dadasida. Bola deganga bitta uch g‘ildirakli velosiped olib berib, uni ko‘chaga quvish kerak. Bu ishning dunyoviy ahamiyati katta – tabiatning noyob durdonalaridan biri bo‘lgan bizdek parrandaning ashaddiy kushandasini bittaga kamayadi.

## ALISHER HAQIDA IG‘VO

Olako‘z bolalar yoppasiga hovliqmachi bo‘lishadi. Alisher ham shunaqa xilidan. Qo‘liga besh tiyin tushsa bormi, darrovdayoq bosar-tusarini bilmay qoladi. Do‘konga kirib qilgan savdosi, ja nari borsa, bitta pufak bo‘ladi.

Uning besh-oltita xashaki kaptari bor. Masalan, biz ularni qush deb hisoblamaymiz. Haqiqiy parranda birov yasab bergen inda yotishdan uyalishi kerak. Haligi nodon bola o‘sha beorlarni biram papalaydiki, biram taltanglatadiki, ko‘rib tumshug‘ing terlaydi. Keyin ularni uchirib yuborib, dam chapak uradi, dam hushtak chaladi. Agar biron ta kaptar havoda umbaloq oshib qolsa, jazavang qurgur bola zavqdan qichqirib yuboradi deng. Xo‘sh, o‘shandaqa qilib umbaloq oshishni biz bilmaymizmi? Istanak, undan o‘tkizvorishimiz mumkin. Ammo, birovning hushtagidan chechansirab, osmonda maynavozchilik qilish bizning obro‘yimizga to‘g‘ri kelmaydi.

Zoti past kaptarlarni boqquncha, mana bizni to‘ydir, deb qo‘yaman o‘zimcha. Bizni qush desa bo‘ladi, o‘zimizga yarasha savlatimz bor. Ancha-muncha parrandaga gap bermaymiz. Yana shunisi yaxshiki, bizga nimaiki berilsa, indamay yeyaveramiz. Olako‘z bolalar buni tushunisharmidi? Ularga umbaloq oshib bersang bo‘lgani. Ha, mayli, bizning qadrimizga yetadiganlar ham topilib qolar.

## ZULXUMOR HAQIDA IG‘VO

Kap-katta qiz bo‘lib qoldi-yu, haliyam esi kir-mayapti. Qachon qaramang, hovlini supurgani-supurgan. Yoshingga qarab ish qilsang bo‘lmaydimi, deb qo‘yaman o‘zimcha. U tengi qizlar ko‘chada to‘ptosh o‘ynab yurishibdi.

Umuman, gap uning hovli supurganida emas, men Zulxumorning saranjom-sarishtaligini yoqtir-mayman. Hamma joyda o‘ralashib, hamma ishga aralashib yuradi.

Uning Ilhomboy degan ajoyib bir ukasi bor. Lalovgina bola. Yurgan yo‘lida non kavshaydi. Kav-shangandayam, yarmini yo‘lga uvatib tashlaydi. Buni odamgarchilik deydilar. U non chaynaganicha bora-veradi, men uning orqasidan ergashib yurib, uvoqlarni guppa-guppa uraveraman. O‘rtada izzat-hurmat, mehr-oqibat bo‘lgandan keyin, bir to‘g‘ram non unga ham, menga ham bemalol yetib ortar ekan.

Tunov kuni Ilhomboy bir bo‘lak yog‘liq patirni ushlab olganicha uyidan chiqib, endigina uvatishni boshlagan edi, qayoqdanam haligi Zulxumor jik-kak kelib qolsa bo‘ladimi, u “nonni shunaqa uvatib yuradimi odam”, deb ukasining ketiga bir shapati tushirib qoldi-yu. Ilhomboy sho‘rlikning chirilla-ganini ko‘rib, mening ham jigar-jigarim ezilib ketdi. Bechora bola o‘shandan beri nonni uvatmay yeydigan bo‘lib qoldi. Endi uning ortidan yurib, baraka topmayapman.

Tag‘in ota-onasi Zulxumorni maqtaganlariga kuyaymi. Ilhomboyga “yasha, shovvoz”, deydigan mard yo‘q. Dunyoning ishlari chalkash, deganlari shu-da.

## OTABEK HAQIDA IG‘VO

Ba’zilarning miyasi to‘liq bo‘ladi-yu, baribir pandavoqilarning qatorida qolveradi. Buning sababi – aqldan to‘g‘ri foydalanmaslik. Otabekning kamchiligi ham xuddi ana shu. Agar kallani to‘g‘ri ishlatganda edi, yonida yalanib o‘tirgan mushukning bo‘ynini silash o‘rniga, dumini burab qo‘ygan bo‘lardi.

Xo‘s, mushuk nima o‘zi? Dunyodagi jonzotlarning eng pixi qayrilgani, eng bema’nisi! U shumniyat, g‘arazgo‘y bo‘lishiga qaramay, laganbardorlik bilan odamlarning pinjiga kirib olgan.

Bu yaramas hayvonning g‘alamisligini sizga isbotlab beray. Hovlida qulupnay hillo-hil pishib yotibdi. O‘zingiz bilasiz, mushuk qulupnay yemaydi, shunga qaramay, u la’nati ekinzor atrofida kun bo‘yi ivirsib yuradi. Mevachalardan bitta-yarimta tatib ko‘ray desang, balo-qazoday yugurib kelib, ustingga otiladi. O‘sha muttahamning yungi mayin bo‘lsayam, tirnoqlari olmosday o‘tkir. Panjasiga ilinganining – asfalasopilinga ketganining. Mana, anchadan buyon olmaga qo‘nib o‘tiribman-u, pastga tushgani sirayam yuragim betlamayapti.

Ho‘ so‘richadagi Mushukni ko‘ryapsizmi? Otabekning yonida yotibdi-ku hurpayvolib. Ko‘zlari ning yumuqligiga ishonmang, u jodugar hamma narsani ko‘rib turibdi.

Iye, bu Otabek qanaqa bola o‘zi? Yana mushukning belini silayapti-ya. Voy, xumbosh-ey. Undan ko‘ra, u yaramasning biqiniga qaratib bir tepsang-chi, nodon. Uf-f, bu bolaga qachon aql kirarkin?

## SIZNING HAQINGIZDA IG‘VO

Nega xo‘shshayvoli-i-b yonimdan o‘tib ketyapsan? Tanimay qoldingmi meni? Hakka xolangni-ya? Qani, rostgo‘y xolangga yurakdan chiqarib bir salom ber-chi. Salom ber, yer yutkur!

Hoy, namuncha kekkayasan? Boshqalarga o‘zingni a’lochi qilib ko‘rsatmoqchisan shekilli? Hakka xolaning hech narsadan xabari yo‘q deb o‘ylaysanda. Bilaman, yo o‘zbek tilidan, yo arifmetikadan “ikki”ng bor. Hoynahoy, kundalik daftaringni dadangga ko‘rsatmay yurgan bo‘lsang kerak.

Nima? Og‘zingizga qarab gapiring deysanmi? Hu, yer yutkur, hali yolg‘onchi bo‘ldimmi senga? Agar “ikki” olgan bo‘lsam, siyohdonim sinib, burnimga siyoh sachrasin, deb qasam ichgin-chi.

Ko‘zing jovdirab turibdi. Sening qasamingga ishonib o‘tiradigan tentak yo‘q.

Xo‘sh, cho‘ntagingda do‘mpayib turgan narsa nima? Yong‘oqmi? Boshimni aylantirma, o‘chirg‘ich

unaqa do‘mpayib turmaydi. Yong‘oq o‘ynab yur-gandan ko‘ra, “ikki”ngni tuzatsang-chi, lattabosh. Sen tengi bolalarning surati “A’lochilar taxtasi”~~da~~ turibdi-ya! Uyalgin-e!

Qani, yaxshilikcha yong‘oqni buyoqqa cho‘z-chi. Cho‘z deyapman! Bo‘lmasa, “ikki” olganing~~n~~ dadangga aytib beraman.

Iye, bu nima? Hm-m, o‘chirg‘ich degin? ~~Sen~~ qara-yu, so‘loqmonday bolasan-u, cho‘ntaging~~da~~ bittagina yong‘oq ham yo‘g‘-a. He, landavur bo‘l-may ket!

1978-yil

## MUNDARIJA

Qo'ng'iroq o'g'risi.....	4
Bilimdon .....	10
Junjal .....	21
Eng baxtli hayvon .....	27
Olatoqqa sayohat.....	34
Ashqal bilan Dashqal .....	42
Tuzoq .....	51
Qaqshatqich jang.....	59

## ATROFIMIZDAGI QIZIQCHILAR

Kuchukning hikoyasi .....	70
Qarg'aning hikoyasi.....	71
Cho'chqachaning hikoyasi.....	74
Buzoqning hikoyasi .....	75
Tulkichanening hikoyasi.....	77
Quyonchanening hikoyasi .....	81
Xachirning hikoyasi .....	83
Hakkaning hikoyasi .....	85
Chiyabo'rining hikoyasi.....	86
Beshiktervatarning hikoyasi.....	89
Chumolining hikoyasi .....	91
Mushukchaning hikoyasi .....	93
Qurbaqanining hikoyasi .....	95
Jo'janing hikoyasi .....	96
Xo'tikning hikoyasi .....	98

Qovog‘arining hikoyasi .....	100
Suvarakning hikoyasi.....	101
Toshbaqaning hikoyasi.....	103
Uloqchaning hikoyasi .....	105
Suvkalamushning hikoyasi .....	107
Echkiemarning hikoyasi.....	109

## **HAKKA XOLANING IG‘VOLARI**

Bahrom haqida ig‘vo.....	112
Ikrom haqida ig‘vo.....	113
Nodira haqida ig‘vo .....	114
Ravshan haqida ig‘vo.....	115
Mo‘min haqida ig‘vo .....	117
Alisher haqida ig‘vo.....	118
Zulkumor haqida ig‘vo .....	119
Otabek haqida ig‘vo .....	120
Sizning haqingizda ig‘vo .....	121

**„ZIYO NASHR“ nashriyoti  
2019-yilda ANVAR OBIDJONning quyidagi  
asarlarini chop etdi.**

**G'ORDAGI OLISHUV**

Iste'dodli adib Anvar Obidjonning „G'ordagi olishuv“ qissasi Alamazon va uning do'sti Eshmatning g'aroyib sarguzashtlari haqida.

Xazina qidirib Ajdarobodga tushib qolgan bu ikki og‘aynining ko‘rgan-kechirganlarini tasvirlashdagi yozuvchining mahorati sizni mahliyo qiladi.

Alamazon sizning sevimli qahramoningiz bo‘lib qolishiga ishonamiz.

**QO‘RQUV BILMAS BOYCHECHAK**

Bahor darakchisi bo‘lmish Boychechakning Navro‘zoy bilan uchrashuviga Ayozzoda qarshilik qiladi. Qishning erkatoyi qanchalik harakat qilmasin, ular yuz ko‘rishadilar.

Navro‘zoy va Boychechakning o‘z maqsadlariga yetishlariga Oqbars va Tojibabaqlar ham yordam beradi. Bu qo‘rquv bilmas qahramonlarning kimligini ushbu qissadan bilib olasiz.

Shuningdek, ushbu kitobdan „Oltin yurakli avtobola“ qissasi ham joy olgan.

**ALAMAZONNING IKKINCHI SARGUZASHTI**

O‘zining g‘aroyib sarguzashtlari bilan o‘quvchilarning sevimli qahramoniga aylangan Alamazon omad qidirib poytaxtga keladi. Biyron ismli go‘zal qiz bilan tanishib, unga ko‘ngil qo‘yadi. Lekin...

Iste'dodli adib Anvar Obidjonning „Alamazonning ikkinchi sarguzashti“ nomli qissasi jozibador tili, qiziqarli voqealari bilan sizni maftun etadi.

Shuningdek, ushbu to‘plamdan yozuvchining „Oddiy ayriliq“ nomli go‘zal hikoyasi ham o‘rin olgan.

*Adabiy-badiiy nashr*

ANVAR OBIDJON

**QO'NG'IROQLI YOLG'ONCHI**

*Qissa va hikoyalar*

**„Ziyo nashr“ nashriyoti**

Toshkent – 2019

Muharrir

*Abdurahmon Jo'rarev*

Badiiy muharrir

*Bahodir Ibrohimov*

Musahhih

*Oybek Haydarov*

Sahifalovchi

*Rayhon Yaxshiboyeva*

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019  
01.11.2019 da bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 84x108 <sup>1/32</sup>.  
Ofset qog'oz. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog'i 6,72. Nashriyot-hisob tabog'i 6,4.  
Adadi 10000 (1-zavod 5000). Sharhnomalar № 81–19.  
Buyurtma raqami 1099.

„Ziyo nashr“  
Mas'uliyati cheklangan jamiyat  
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

«Credo Print» MChJ  
Kitob fabrikasida chop etildi  
Toshkent sh., Bog'ishamol k. 160.  
Tel.: 71 234-44-01/05  
[www.credoprint.uz](http://www.credoprint.uz)

O-14

**Obidjon, Anvar.**


**Qo‘ng‘iroqli yolg‘onchi.** [Matn]: qissa va hikoyalar. / A. Obidjon||  
– T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2019. – 128 b.

ISBN 978-9943-5937-7-0

**UO‘K: 821-512.133-32|**  
**KBK 84(56)6**



12



ZIYO NASHR



[t.me/zionashr](https://t.me/zionashr)  
[fb.com/zio.nashr](https://fb.com/zio.nashr)  
[@ zionashr@mail.ru](mailto:zionashr@mail.ru)



ISBN 978-9943-5937-7-0

9 789943 593770